


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

G.D. SHAMSIIDDINOVA, N.X. QODIROV,  
G.B. AHMEDOVA

# MOLEKULAR BIOLOGIYA VA GENETIKAGA OID MASALALAR TO'PLAMI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

GULCHEHRA SHAMSIDDINOVA, NARZULLO QODIROV,  
GULSARA AHMEDOVA

MOLEKULAR BIOLOGIYA  
VA GENETIKAGA  
OID MASALALAR TO'PLAMI

*Oliy o'quv yurtlari, tabiiy fanlar yo'nalishidagi akademik litseylar,  
tibbiyot kolleji o'qituvchi va o'quvchilari uchun uslubiy qo'llanma*

Toshkent  
«Yangi asr avlodii»  
2011

УДК: 57.012 (075)

28.04 я 73

М471

Molekular biologiya va genetikaga oid masalalar to'plami (Oliy o'quv yurtlari, tabiiy fanlar yo'nalishidagi akademik litseylar, tibbiyot kolleji o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma). – T.: «Yangi ast avlod», 2011, 156 b.

ISBN 978-9943-08-759-0

Mazkur uslubiy qo'llanmada molekular genetika, mono, di, poliduragay chatishtirishlar, genlarning o'zaro va ko'p tomonlama ta'siri, komplementarlik, epistaz, pleytropiya jins bilan bog'liq holda nasldan naslga o'tishi, krossingover bo'yicha tuzilgan masala va mashqlar hamda ularni yechish usullari bayon etilgan.

Uslihu uslubiy qo'llanmadan nafaqat tibbiyot yo'nalishidagi, balki boshqa oliyoh talabalari ham, jumladan, umumiy genetika va tibbiyot genetikasi fani o'tiladigan hamma oliyoh talabalari, shuningdek genetika kursi o'tiladigan barcha o'quv yurtlari va tibbiyot kolleji talabalari, tibbiyot yo'nalishidagi litseylar hamda o'quv markazi o'qituvchilar ham foydalanshi mumkin.

УДК: 57.012 (075)

28.04 я 73

**Mas'ul muhabbir:**

Ergashev Axmatqul Ergashevich,  
biologiya fanlari doktori, professor

**Taqribchilar:**

Ergashev Axmatqul Ergashevich,  
biologiya fanlari doktori, professor

Jumaboyev Bahodir Yerejebovich,

Navoiy davlat pedagogika instituti Umumiy biologiya kafedrasi mudiri,  
biologiya fanlar nomzodi

Ibodova Mahfuza Namozovna,

NDPI huzuridagi 1-sonli akademik litseyining biologiya fani o'qituvchisi

Shodiyev Husniddin Xolmurodovich,

Navoiy tibbiyot kolleji biologiya fani o'qituvchisi

ISBN 978-9943-08-759-0

© «Molekular biologiya va genetikaga oid masalalar to'plami», «Yangi ast avlod», 2011-yil.

## KIRISH

Mamlakatda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» zamon talablariga javob bera oladigan, chinakamiga ma'rifatli, bozor munosabatlari sharoitida o'z bilim va ko'nikmalari bilan Vatan istiqboli manfaatlari yo'lida samarali faoliyat ko'rsata oladigan mutaxassislar tayyorlashni nazarda tutadi.

O'zbekistonning ijtimoiy pedagogik sharoiti va elтиyojlariga mos bo'lgan yangi biologiya fani rivojlandi, o'qitishning o'ziga xos metodlarini, laboratoriya ishlarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash dolzorb hamda yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi.

Mazkur uslubiy qo'llanma tibbiyot yo'nalishida bilim olish istagida bo'lgan barcha o'quvchi-talabalarga odam va tibbiyat genetikasidan amaliy mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan bo'lib, shuningdek genetikadan masalalar yechishda ham undan foydalananish mumkin.

Fan va texnika taraqqiyoti har bir sohaga jadal kitib borayotgan davrda, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar ko'lamiga bo'lgan e'tibor ham tobora yuksalmoqda. Biologiya fanining ham roli benihoya ortib bormoqda. Hozirgi kunda oziq-ovqat dasturi vazifalarini hal qilish, odamdag'i nasldan nasliga o'tadigan kasalliklarni o'rganish, inson salomatligini yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish, koinotni zabt etish, tirik mavjudotlarning tuzilishi va funksiyasidan texnikada antdoza olish va boshqa shu singari masalalar biologiya fanining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq ekanligi hammanizga ma'lum.

O'quvchilarning mustaqil bilim olishi, ko'nikma va malakasini rivojlantirishning bir qancha shakl va usullari mavjud. Ular orasida mashqlar bajarish va masalalar yechish alohida o'rın tutadi. Genetika biologiyaning yetakchi sohalaridan biridir. Yildan-yilga genetika fani oldiga muhim vazifalar qo'yilmoqda. Bular jumlasiga sog'liqni saqlash, bioteknologik jarayonlarni yo'lga qo'yish, genetik injeneriyani rivojlantirish masalalari kiradi. Bu muammolarning muvaffaqiyatli hal qilinishi abolining turmush darajasini ko'tarish va jrsiy kasalliklarning oldini olishni ta'minlaydi.

Ushbu qo'llanma o'quvchilarning aynan shu fan sohasida oladigan nazariy bilinclarini genetik masalalarni yechish orqali mavzularni puxta o'zlashtirishlariga, mustaqil fikr yuritishlariga imkon beradi. Shularni inobatga olgan holda ushbu masalalar to'plamiga ko'proq odamlarda uchraydigan belgi va kasalliklarga oid masalalar kiritilgan.

**I BO'LIM**  
**IRSIYATNING MOLEKULAR ASOSLARI**

**ORGANIZMNING IRSIYLANISH XUSUSIYATLARIDA MUHIM  
AHAMIYAT KASB ETUVCHI BIOMOLEKULALAR**

Har qanday tirik organizm kimyoviy moddalardan tuzilgan. Ularni umumlashtiruvchi jihatlardan biri ularning o'xshash kimyoviy elementlardan tuzilganligidir. Tirik organizmlar hujayrasining 20-30 %ini organik moddalar tashkil qilib, ular asosan oqsil, nuklein kislota, uglevod va lipidlar ko'trinishida hujayrada uchraydi. Hujayrada uchrovchi bu biomolekulalarning har biri o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Masalan, oqsil hujayradagi barcha biokimyoviy reaksiyalarni: himoya, qurilish va boshqa ko'plab muhim vazifalarni bajarsa, nuklein kislotalar hujayrada kechadigan barcha jarayonlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularda oqsil biosentezi jarayoni maxsus kodlar bilan ifodalangan bo'ladi. Nuklein kislota yordamida organizmning avlodlar almashinuvidagi irsiy bardavomligi ta'minlanadi.

**Nuklein kislota**

Oqsil, uglevod va nuklein kislota biopolimerlar hisoblanib, monomerlardan tashkil topgan bo'ladi. Nuklein kislotalarning monomeri nukleotidlari, oqsilning monomeri esa aminokislotalar hisoblanadi.

Hujayrada tuzilishi, vazifasi va yana bir qancha xususiyatlari bilan farq qiluvchi asosan 2 xil nuklein kislota *dezoksiribonuklein kislota* (DNK) va *ribonuklein kislotalar* (RNK) uchraydi. Ular yuqorida ta'kidlanganidek, mononukleotidlardan tashkil topgan bo'lib, har bir nukleotid azot asosi (adenin, guanin, sitozin, timin, uratsil), monosaxarid (dezoksiriboza yoki riboza) va fosfat kislota qoldig'idan tashkil topgan. Har bir nukleotidning molekular massasi shartli ravishda 330 D (Dalton).

Nukleotidlari orasidagi masofa (bir zanjirda) 0,34 nm yoki 3,4 Å ga teng. RNK da nukleotidlari bitta zanjir hosil qilib joylashganligi uchun, asosan, unda vodorod bog'lar uchramaydi (i-RNK). D NK ning ikki zanjiri orasida vodorod bog'larini mavjud bo'lib, ular doimo komplementar sherik nukleotidlari A=T (2 ta vodorod bog') hamda G≡S (3 ta vodorod

bog') o'rtasida uchraydi. Nuklein kislotalarning faoliyati bilan bog'liq jarayonlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, ularda boshqa biomolekulalarda uchramaydigan jihat – o'zini-o'zi hosil qilish, ya'ni ikki hissa ortish jarayoni kuzatiladi. DNA dagi bu jarayon replikatsiya yoki reduplikatsiya deb ataladi.

A	=	T	T	=	A	=	=	T	=	A
T	=	A	A	=	T	=	=	A	=	T
S	=	G	G	=	S	=	=	G	=	S
G	=	S	S	=	G	=	=	S	=	G
A	=	T	T	=	A	=	=	T	=	A
T	=	A	A	=	T	=	=	A	=	T
S	=	G	G	=	S	=	=	G	=	S
A	=	T	T	=	A	=	=	T	=	A
G	=	S	S	=	G	=	=	S	=	G
A	=	T	T	=	A	=	=	T	=	A
S	=	G	G	=	S	=	=	G	=	S
T	=	A	A	=	T	=	=	A	=	T

### 1. DNA qo'sh zanjiri

### 2. Replikatsiya jarayoni.

Qo'sh zanjirlar asosida fermentlar yordamida yangi DNA zanjirining sintezlanishi

A	=	T	→	A
T	=	A	→	U
S	=	G	→	S
G	=	S	→	G
A	=	T	→	A
T	=	A	→	U
S	=	G	→	S
A	=	T	→	A
G	=	S	→	G
A	=	T	→	A
S	=	G	→	S
T	=	A	→	U

3. Transkripsiya jarayoni.  
DNAning bir zanjiri asosida  
komplementar tarzda RNA  
(i-RNA) sintezi

A	U	Met
G	G	
G	A	Asp
A	U	
A	S	Glu
A	G	
S	A	Thr
U	S	

4. Translatsiya jarayoni. i-RNA dagi nukleotidlardan yordamida aminokislotalar sintezi. Universal genetik kod jadvali yordamida kodonlarga mos aminokislotalarning sintezlanishi.

DNKdan RNK (i-RNK, t-RNK, r-RNK)lar sintezlanish jarayoni transkripsiya – ko'chirib yozish deb ataladi. Bu jarayon ham qat'iy komplementarlik asosida kechadi. Hujayradagi eng asosiy assimilatsion jarayonlardan biri oqsil biosintezi hisoblanadi, bu jarayon, asosan, sitoplazmada, ribosomalarda kechadi. Sintezlanadigan oqsil haqidagi irlsiy axborot, asosan, yadroda, DNK da nukleotidlар ketma-ketligida yozilgan bo'lib, ular asosida dastlab RNK sintezlanib olinadi ( i-RNK, t-RNK, r-RNK). RNKlar sitoplazmaga chiqarilgach har biri o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. i-RNKda 4 xil nukleotid yordamida kodlangan irlsiy axborot har nukleotidlар uchligida (triplet) aminokislotalar sinteziga sabab bo'ladi. Har bir aminokislotaling 4 xil nukleotid yordamida 3 ta nukleotid ketma-ketligida ifodalanib kelishiga genetik kod deyiladi.

### **Nuklein kislotalar va irlsiyatning molekular asoslariga doir masalalar va topshiriqlar**

1. \* D NK fragmentining bitta zanjirida 25467 ta nukleotid bor, shu D NK fragmentida jami nechta nukleotid bor?

2. Quyida D NKning bitta zanjiridagi nukleotidlар ketma-ketligi keltirilgan:

TTGAAGSSTATGAAG. Shu zanjir yordamida D NKning ikkinchi zanjiridagi nukleotidlар ketma-ketligini yozing.

3. Quyida D NKning bitta zanjiridagi nukleotidlар ketma-ketligi keltirilgan: TAGSSGTTASGTT. Shu zanjir yordamida D NKning ikkinchi zanjiridagi nukleotidlар ketma-ketligini yozing.

4. Quyida D NKning bitta zanjiridagi nukleotidlар ketma-ketligi keltirilgan: AGSAGGTASGTSTG. Shu zanjir yordamida D NKning ikkinchi zanjiridagi nukleotidlар ketma-ketligini yozing.

5. D NK replikatsiyasi jarayonida unda G 3000ta va A 2300 ta bor. Shu D NK replikatsiyasida komplementarlik qoidasiga asosan qanday va qancha nukleotidlар ishtirok etishi mumkinligini aniqlang.

6. D NK replikatsiyasi jarayonida unda S 240ta va T 180 ta bor. Shu D NK replikatsiyasida komplementarlik qoidasiga asosan qanday va qancha nukleotidlар ishtirok etishi mumkinligini aniqlang.

---

\* Yechimlari keltirilgan masalalar.

7. DNK zanjirida 450 ta T nukleotidi bo'lib, u barcha nukleotidlarning 15 %ini tashkil qiladi. Shu fragmentda nechta adenin nukleotidi bor va u necha %ni tashkil qiladi?

8. DNK zanjirida 450 ta T nukleotidi bo'lib, u barcha nukleotidlarning 15 %ini tashkil qiladi. Shu fragmentda nechta S nukleotidi bor va u necha %ni tashkil qiladi?

9. DNK zanjirida 450 ta T nukleotidi bo'lib, u barcha nukleotidlarning 15 %ini tashkil qiladi. Shu fragmentdagi barcha nukleotidlarning sonini aniqlang.

10. DNK zanjirida 450 ta T nukleotidi bo'lib, u barcha nukleotidlarning 15 %ini tashkil qiladi. Shu fragmentda nechta adenin, guanin, sitozin nukleotidlari bor va ular necha %ni tashkil qiladi?

11. Agar DNK fragmentida hammasi bo'lib 6000 ta nukleotid bo'lsa, shu DNKdagi dezoksiriboza va fosfat kislota qoldiqlari sonini aniqlang.

12. Agar DNK fragmentida hammasi bo'lib 6000 ta nukleotid bo'lsa, shu DNKdan sintezlangan RNK dagi dezoksiriboza va fosfat kislota qoldiqlari sonini aniqlang (transkripsiya jarayonida DNK fragmentining 50%i ishtirok etgan).

13. Agar DNK fragmentida hammasi bo'lib 6000 ta nukleotid bo'lsa, shu DNKdan sintezlangan RNK dagi nukleotidlar sonini aniqlang (transkripsiya jarayonda DNK fragmentining 50%i ishtirok etgan).

14. \* DNK fragmentida 456 ta nukleotid bor, shu fragmentning uzunligini hisoblang (Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 0,34nm).

15. DNK fragmentining bitta zanjirida 350 ta dezoksiriboza bor. Fragmentning uzunligini hisoblang (Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 0,34nm).

16. i-RNKda 450 ta riboza bor, agar shu RNKn sintezlashda DNK ning butun boshli bitta zanjiri ishtirok etgan bo'lsa, DNKning uzunligini hisoblang (Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 0,34nm).

17. Agar DNK fragmentining uzunligi 46,24 nm bo'lsa, undagi nukleotidlar sonini hisoblang (Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 0,34nm).

18. Agar DNK fragmentining uzunligi 3026 A bo'lsa, undagi nukleotidlar sonini hisoblang (Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 3,4 A).

19. Uzunligi 326,4 nm bo'lgan DNK fragmentida nechta dezoksiriboza va fosfat kislota qoldig'i bor?

20. i-RNKning uzunligi 510 nm. Shu RNKnin transkripsiyalagan DNK fragmentining uzunligini va undagi nukleotidlar sonini aniqlang (RNK sintezida DNK ning butun bosliki bitta zanjiri ishtirot etgan).

21. DNK fragmentida 3000ta G va 2300 ta A bor. Shu DNK dagi vodorod bog'lar sonini hisoblang.

22. DNK fragmentida 350ta S va 180 ta T bor. Shu DNK dagi vodorod bog'lar sonini hisoblang.

23. Agar DNK fragmentining uzunligi 510 nm bo'lsa, undagi jami nukleotidlarning 15 %ini S tashkil qiladi. Shu DNK fragmentida jami nechta nukleotid bor va undagi vodorod bog'lar sonini hisoblang.

24. \* DNK zanjirida 450 ta T nukleotidi bo'lib, u barcha nukleotidlarning 15 %ini tashkil qiladi. Shu DNK dagi vodorod bog'lar sonini hisoblang.

25. DNK zanjirida 180 ta vodorod bog'i va 20 ta Guanin borligi ma'lum bo'lsa, DNK fragmentining uzunligi necha nanometr?

26. Agar RNK zanjirida A-800, G-1600, U-2000, C-600 bo'lsa, shu RNK nusxa olgan DNK da T -necha foiz?

27. DNK uzunligi 816 A° va 20 ta Adenin bo'lsa, azotli asoslar orasida nechta vodorod bog'i bor? (Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 3,4 A)

28. DNK fragmentida 800 ta dezoksiriboza bor. D NK fragmenti uzunligi necha A°? (Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 3,4 A)

29. D NK da 80 ta adenin bor. U D NK nukleotidlarning 20 %ini tashkil qiladi. D NK dagi nukleotidlarning necha foizini Sitozin tashkil qiladi?

30. D NK zanjirida 840 ta vodorod bog'larini azotli asoslar orasida joylashgan bo'lib, shu bog'larning 40 % adenin va timin orasida joylashgan. D NK uzunligi necha nanometr?

31. Agar D NK bir zanjiri AGCTACGGCA bo'lsa, uning ikki zanjiri orasida nechta vodorod bog' bor?

32. D NK fragmentida 60 ta timin bo'lib, umumiyligi nukleotidlarning 20 % tashkil qilsa, D NK da azotli asoslar orasida nechta vodorod bog'lar bor?

33. D NKda nukleotidlarning soni 4000 ta bo'lib, shundan 10 %ini timin tashkil qiladi. D NK uzunligi necha nm?

34. RNK molekulasiida A – 800 ta, G – 2200 ta bo'lsa, D NK molekulasiida nechta fosfat kislota, deziksiriboza va azotli asos bo'ladi?

35. Agar DNK bir zanjiri AGCTACGGCACTG bo'lsa, uning ikki zanjiri orasida nechta vodorod bog' bor?
36. DNKda nukleotidlarning soni 4000 ta bo'lib, shundan 10 %ini timin tashkil qiladi. DNK fragmentida azotli asoslari orasida nechta vodorod bog' bor?
37. RNK molekulasida A-800, G- 2200 ta bo'lsa, DNK ning shu fragmentida vodorod bog'lari nechta bo'ladi?
38. Agar RNK molekulasida A- 800 ta, G-1600, U-2000 ta S-600 ta bo'lsa, shu RNKnin sintezlaydigan DNK uzunligi necha nanometr, undagi fosfat kislota qoldig'i va vodorod bog'lar soni nechta?
39. \* 15 ta aminokislotadan tashkil topgan polipeptid zanjirini sintezlashga xizmat qilgan DNK fragmentida nechta nukleotid mavjud?
40. 172 ta aminokislotadan tashkil topgan oqsilni sintezlash uchun xizmat qilgan gen (DNK) uzunligini va undagi nukleotidlar sonini hisoblang.
41. 51 ta aminokislotadan iborat oqsilni sintezlaydigan DNK fragmentida nechta nukleotid bo'ladi?
42. \* Ma'lum bir oqsil gidrolizlanganda 110 molekula suv hosil bo'ldi. Uni sintezlagan DNK fragmentidagi nukleotidlar sonini aniqlang?
43. 816 A° DNK fragmenti sintezlagan oqsil molekulasi gidroliz qilinganda nechta  $H_2O$  molekulasi hosil bo'ladi?
44. \* Oqsilning molekular massasi 40000 D bo'lsa, uni sintezlaydigan genning uzunligi qancha (nm) (Ilti aminokislotaning massasi o'rtacha 100 D, ita nukleotidniki 330 D)
45. DNK zanjirida 600 ta nukleotid bor. Shu fragment sintezlaydigan oqsilda nechta peptid bog' bor?
46. (A). DNK zanjirida 840 ta vodorod bog'lari azotli asoslar orasida joylashgan bo'lib, shu bog'larning 40 %i adenin va timin orasida joylashgan. DNK fragmenti sintezlaydigan oqsilda nechta peptid bog'i bor?
46. (B). RNK da 15 ta uratsil bo'lib, umumiy zanjirning 20 %ini tashkil qilsa, DNK uzunligi necha nanometr va u nechta aminokislotani kodlaydi?
47. \* Translatsiya jarayonida jami 90 molekula t-RNK qatnashidi. Shu sintezlangan oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalar sonini (1) hamda shu sintez jarayonida matritsa vazifasini bajargan i-RNKhagi tripletlar soni (2) va shu i-RNK ni sintezlagan DNK dagi nukleotidlar sonini (3) toping.

48. Translatsiya jarayonida jami 270 molekula t-RNK qatnashdi. Shu sintezlangan oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislolar sonini (1) hamda shu sintez jarayonida matritsa vazifasini bajargan i-RNKdagi tripletlar soni (2) va shu i-RNK ni sintezlagan DNK dagi nukleotidlar sonini (3) toping.

49. Translatsiya jarayonida jami 135 molekula t-RNK qatnashdi. Shu sintezlangan oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislolar sonini (1) hamda shu sintez jarayonida matritsa vazifasini bajargan i-RNKdagi tripletlar soni (2) va shu i-RNK ni sintezlagan DNK dagi nukleotidlar sonini (3) toping.

50. DNKnинг ATGGSATAAGTAAAG zanjiridan sintezlangan i-RNK nechta aminokislani kodlaydi?

51. DNKnинг GATSATAGGAGTASG zanjiridan sintezlangan i-RNK nechta aminokislani kodlaydi?

52. Agar RNK molekulasiда 60 ta uratsil bo'lib, ular umumiyluk nukleotidlarning 20 %ini tashkil qilsa, shu RNK informatsiya olgan DNK fragmenti uzunligi va nechta aminokislota sintezlashini toping.

53. GSGATGSGTATSASG DNKnинг I-zanjiri yuqoridagicha bo'lsa, shu DNKda A va T o'rta sidagi vodorod bog'lar umumiyluk vodorod bog'larning necha %ini tashkil qiladi?

54. GUUGSSUUUASSGAAU RNKdagi nukleotidlari yuqoridagiday bo'lsa, shu RNKni sintezlagan DNKda G va S o'rta sidagi vodorod bog'lar umumiyluk vodorod bog'larning necha %ini tashkil qiladi?

55. TTGAAGSSTATGAAG DNKnинг I-zanjiri yuqoridagicha bo'lsa, shu DNKda A va T o'rta sidagi vodorod bog'lar umumiyluk vodorod bog'larning necha %ini tashkil qiladi?

56. USASSAGGSUGSAUG RNKdagi nukleotidlari yuqoridagiday bo'lsa, shu RNK ni sintezlagan DNKda G va S o'rta sidagi vodorod bog'lar umumiyluk vodorod bog'larning necha %ini tashkil qiladi?

57. TAGSSGTTASGTTAG DNKnинг I-zanjiri yuqoridagicha bo'lsa, shu DNKda A va T o'rta sidagi vodorod bog'lar umumiyluk vodorod bog'larning necha %ini tashkil qiladi?

58. AUGSSGUASGGAAU RNKdagi nukleotidlari yuqoridagiday bo'lsa, shu RNK ni sintezlagan DNKda G va S o'rta sidagi vodorod bog'lar umumiyluk vodorod bog'larning necha %ini tashkil qiladi?

59. DNK da A-35 %ni tashkil qilib, ularning soni 70 ta bo'lsa, shu DNK da nechta vodorod bog' bor?

60. RNK da U-56 ta bo'lib, u umumiy nukleotidlarning 40%ini tashkil qilsa, shu RNKn ni sintezlagan DNAN uzunligini toping (nm).

61. DNA da G-20 %ni tashkil qilib, ularning soni 68 ta bo'lsa, shu DNAN uzunligini toping (nm).

62. RNK da A-45 ta bo'lib, u umumiy nukleotidlarning 22,5%ini tashkil qilsa, shu RNKn ni sintezlagan DNAN uzunligini toping (nm).

63. RNK da U-104 ta bo'lib, u umumiy nukleotidlarning 40 %ini tashkil qilsa, shu RNKn ni sintezlagan DNAN uzunligini toping (nm).

64. RNK da G-50 ta bo'lib, u umumiy nukleotidlarning 40 %ini tashkil qilsa, shu RNKn ni sintezlagan DNAN uzunligini toping (nm).

65. Agar DNA tarkibidagi har bir nukleotidning molekular massasi o'rtacha 330 ga teng bo'lsa, 180 ta aminokislotadan iborat oqsilni kodlaydigan DNA fragmentining molekular massasini hisoblang.

66. Agar DNA tarkibida 400 ta purin asoslari bo'lsa, shu DNA fragmentida nechta dezoksiriboza mavjud?

67. DNA tarkibida 250 ta pirimidin asoslari mavjudligi aniq bo'lsa, shu DNA fragmentining uzunligini hisoblang.

68. DNA fragmentida 400 ta (A-G nisbati mos ravishda 1:1,5) purin asosi bo'lsa, DNAning molekular massasi (1), uzunligi (2) (nm), jami vodorod bog'lari (3)ni toping (1ta nukleotid massasi 330D).

69. Agar DNA fragmentining molekular massasi 83160 bo'lsa, shu DNA fragmenti nechta aminokislotadan iborat oqsilni kodlaydi (har bir nukleotid massasi 330 ga teng deb olinsin).

70. DNA fragmentida 882 ta dezoksiriboza bo'lsa, shu fragment sintezlaydigan oqsilning molekular massasini hisoblang (har bir nukleotid massasi 330, har bir aminokisloti massasi 110 Dga teng deb olinsin).

71. DNA fragmentida 438 ta qo'sh nukleotid bo'lsa, shu fragment sintezlaydigan oqsilda nechta peptid bog' bor? (har bir nukleotid massasi 330 ga teng deb olinsin).

72. \*\* DNA bitta zanjirida dezoksiriboza va fosfat kislotalar qoldig'i 1122 ta bor. Shu zanjirda A nukleotidi 22 %, G 33 %; T 22 % bo'lsa, DNA zanjirlari orasida nechta vodorod bog'i bor?

73. Agar DNA fragmentida 912 ta dezoksiriboza bo'lsa, shu zanjir nechta aminokislotadan iborat oqsilni kodlaydi va gen uzunligi qancha (nm)?

---

\*\* Murakkab masalalar.

74. Agar sintezlangan oqsil tarkibida 108 ta aminokislota bo'lsa, shu oqsil sintezida ishtirok etgan DNK da nechta qo'sh nukleotid mavjud?
75. Agar DNKnning uzunligi 850 A<sup>º</sup> bo'lsa, DNK ning 1 ta zanjirida nechta fosfat kislota qoldig'i bor?
76. DNK fragmentida 936 ta dezoksiriboza bo'lsa, u sintezlangan oqsil molekulasiда nechta peptid bog' mavjud?
77. \*\* DNK da 220 ta vodorod bog' bo'lib, A-T orasidagi vodorod bog'lar umumiy bog'larning 40 %ini tashkil etsa, shu DNK dagi G umumiy nukleotidlarning necha %ini tashkil qiladi?
78. \*\* DNK da 260 ta vodorod bog' bo'lib, G-S orasidagi vodorod bog'lar umumiy vodorod bog'larning 60 %ini tashkil etsa, shu DNK dagi T umumiy nukleotidlarning necha %ini tashkil qiladi?
79. DNK da 280 ta vodorod bog' bo'lib, A-T orasidagi vodorod bog'lar umumiy bog'larning 25 %ini tashkil etsa, shu DNK dagi G umumiy nukleotidlarning necha %ini tashkil qiladi?
80. \*\* DNK da 300 ta vodorod bog' bo'lib, G-S orasidagi vodorod bog'lar umumiy bog'larning 42 %ini tashkil etsa, shu DNK dagi A umumiy nukleotidlarning necha %ini tashkil qiladi?
81. \*\* DNK da 400 ta vodorod bog' bo'lib, G-S orasidagi vodorod bog'lar umumiy bog'larning 42 %ini tashkil etsa, shu DNK dagi T umumiy nukleotidlarning necha %ini tashkil qiladi?
82. \*\* DNK da 400 ta vodorod bog' bo'lib, A-T orasidagi vodorod bog'lar umumiy bog'larning 58 %ini tashkil etsa, shu DNK dagi S umumiy nukleotidlarning necha %ini tashkil qiladi?
83. Oqsil tarkibida 125 ta aminokislota qoldig'i bo'lsa, shu oqsilni sintezlangan DNK fragmentining molekular massasini hisoblang (qo'sh nukleotidlarning massasi 660 ga teng deb olinsin).
84. DNK da nukleotidlari soni 852 ta bo'lsa, shu DNK fragmentini sintezlangan oqsil tarkibida nechta peptid bog' bor?
85. Agar DNK fragmentida 800 ta fosfat kislota qoldig'i bo'lsa, shu fragmentning uzunligi necha A<sup>º</sup> va shu fragmentda nechta dezoksiriboza bor?
86. Agar DNKnning uzunligi 816 A<sup>º</sup> bo'lsa, DNKda nechta nukleotid bor?
87. \*\* DNK bitta zanjirida 90 ta A bor. Shu DNK fragmentidan transkripsiyalangan i-RNK zanjiridagi G soni DNKnning o'sha zanjiridagi A lar sonidan 17 marta ko'p. RNK dagi A lar soni undagi umumiy

nukleotidlarning 17 %ini tashkil etadi. RNK zanjiridagi S lar soni U lar sonidan 3 marta ko'p. DNKdagi nukleotidlarni va uzunligini toping (nm).

88. \*\* Molekular massasi 66 000 D bo'lgan oqsil translatsiya jarayonida i-RNK fragmentining 12 %i ishtirok etishidan hosil bo'lgan. Shu RNK transkripsiyalangan DNKdagi umumiy nukleotidlarning 20 %ini G tashkil etsa, H bog'lar sonini toping (1 ta aminokislotaning massasi 110 D).

89. \*\* Oqsil molekulasingin massasi 66 000D ga teng. Har bir aminokislotaning massasi 110 D. Shu oqsilni sintezlagan DNK fragmentining  $\frac{1}{4}$  qismini A tashkil etsa, shu DNK fragmentidagi vodorod bog'lar sonini toping.

90. \*\* DNK bitta zanjirida 90 ta A bor. Shu DNK fragmentidan transkripsiyalangan i-RNK zanjiridagi G soni DNKnинг o'sha zanjiridagi A lar sonidan 17 marta ko'p. RNK dagi A lar soni undagi umumiy nukleotidlarning 17 %ini tashkil etadi. RNK zanjiridagi S lar soni U lar sonidan 3 marta ko'p. DNKdagi vodorod bog'lar sonini toping.

91. \*\* Oqsil molekulyasining massasi 66 000D ga teng. Har bir aminokislotaning massasi 110 D. Shu oqsilni sintezlagan DNK fragmentidagi nukleotidlarning 1/3 qismini A tashkil etsa, shu DNK fragmentidagi vodorod bog'lar sonini toping.

92. \*\* Molekular massasi 66 000 D bo'lgan oqsil translatsiya jarayonida i-RNK fragmentining 15 %i ishtirok etishidan hosil bo'lgan. Shu RNK transkripsiyalangan DNKdagi umumiy nukleotidlarning 20 %ini T tashkil etsa, H bog'lar sonini toping (Bitta aminokislotaning massasi 110 D).

**HBO'LIM**  
**GENETIKA ASOSLARI**

**BA'ZI BIR GENOTIPLI ORGANIZMLARNING NOMLANISHI**

Har qaysi organizmdagi barcha genlarning yig'indisi uning genotipini tashkil qiladi. Allel genlar bir xil harf bilan, dominant geni – katta (A), retsessiv geni esa kichik harf bilan belgilanadi. Bir-birini inkor etuvchi belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar – allel genlar deyiladi. Ular gomologik xromosomalarning bir xil lokuslarida joylashadi.

Gomozigota organizmlar deb chatishitirliganda belgilarida ajralish kuzatilmaydigan organizmlarga aytildi. Gomozigota organizmlar bir xil allellardan tashkil topgan bo'lib, 2 xil:

1) *AA* – gomozigota dominant; 2) *aa* – gomozigota retsessiv shaklda bo'ladi.

Har xil allellardan (bitta dominant, bitta retsessiv – *Aa*) tashkil topgan organizm geterozigota organizm deyiladi.

Keltirilgan organizmlarning genotipini nomlashi jarayoni quyidagi bosqichlarda kechadi.

Masalan: Genotipi *AaBbccDd* bo'lgan organizmni nomlaydigan bo'lsak, dastlab bir xil turkumdagи –gomozigota dominant, gomozigota retsessiv va geterozigotalarni belgilab olamiz:

*AaBbccDd* so'ng

1) Bir turkumga (gomozigota yoki geterozigotalar) kiruvchilar soni;

2) Holati – gomozigota yoki geterozigota ekanligi, so'ng agar organizmnning geterozigota belgisi bo'lsa nomlashi jarayoni tugatiladi, agar gomozigota holatda bo'lsa;

3) Dominant yoki retsessiv holatda ekanligi o'qiladi.

*AaBbccDd* – Ikki belgisi bo'yicha geterozigota, bir belgisi bo'yicha gomozigota dominant, bir belgisi bo'yicha gomozigota retsessiv (lotincha digeterozigota, monogomozigota dominant, monogomozigota retsessiv)

**Nomlashga doir topshiriqlar**

1. AA, Aa, aa genotipli organizmlar genetik jihatdan qanday nomlanadi?

2. aaBB va AaBb genotipli organizmlarni nomlang.

3. aaBbCcDDff genotipli organizmni nomlang.
4. HpHpCcZyzypqr genotipli organizmni nomlang.
5. aaPrprololHjhjCsCs genotipli organizmni nomlang.
6. HphpbbprprQqr genotipli organizmni nomlang.
7. AaCcZZQrQr genotipli organizmni nomlang.
8. BrBrPrPrololHjhj genotipli organizmni nomlang.
9. WwewHHI<sup>A</sup>I<sup>a</sup> genotipli organizmni nomlang (qon guruhining belgilanishiga e'tibor bering), ushu genotipda geterozigotali genlar soni nechta?
10. AABbX<sup>A</sup>X<sup>a</sup> genotipli organizmni nomlang. Belgilarning nechtası autosoma, nechtası jinsiy xromosoma orqali irlsiylanganligini aniqlang.
11. Quyidagilardan bir xil genetik nomlanishga ega bo'lgan genotiplarni aniqlang.
  - a) SSDdFfGG; b) OtolBrBrCC; c) AaBBDd; d) aaBbCcDD;
  - e) RpRpEENndd.
12. \*\* Genotipi ikki belgisi bo'yicha geterozigota, bir belgisi bo'yicha gomiozigota retsessiv bo'lgan organizm quyidagi shartlardan qaysi birini bajarmaydi (barcha belgilar autosomada joylashgan)?
  - a) 4 ta gameta hosil qiladi;
  - b) undan abc ko'rinishdagi gameta olish mumkin;
  - c) undan ABC ko'rinishdagi gameta olish mumkin.

### GAMETALAR OLİSH TARTIBI

Jinsiy ko'payishda avlodlar o'rtasidagi bog'lanish jiusiy hujayralar – gametalalar orqali amalga oshadi. Har bir gameta just irlsiy omillardan suqat bittasiga ega bo'ladi. Gomozigota organizmlar faqat bitta gameta hosil qiladi. Geterozigota organizmlarda gametalalar xilma-xilligi oshadi.

Poliduragayda gametalarni hisoblashning umumiy formulasi mavjud bo'lib, genotipdagi geterozigotalarning soniga bog'liq holda yoziladi:  $2^n$  bu yerda  $n$  – doimiy o'zgarmas son,  $n$ - genotipdagi geterozigotalar soni.

Masalan: AABBCC genotipli organizmda geterozigota mavjud emas –  $2^0=1$ ; 1 ta gameta hosil qiladi.

AaBbCcDDff  $2^3 = 8$  ta gameta hosil qiladi.

Gameta sonini aniqlash tartibi bilan tanishdik, endi shu gametalarning olishi usuli bilan tanishhamiz. Genetikada asosan gametalalar olishda shajara usulidan foydalaniildi:


1. Monoduragayda: AA; aa  
Gametalar: A A a

2. Genotipi AaBbCc bo'lgan organizm ( $2^3$ ) 8 ta gameta hosil qilishi ma'lum, shu gametalarni shajara usulida olamiz:





Gametalar: 1) ABC; 2) Abc; 3) AbC; 4) Abc; 5) aBC ; 6) aBc; 7) abc;  
8) abc.

3. Genotipi aaBbCC bo'lgan organizm 2 ta gameta hosil qiladi:  
1) aBC 2) abC




4. Genotipi AaBbCcDd bo'lgan organizm 16 ta gameta hosil qiladi:



1) ABCD; 2) ABCd; 3) AbcD; 4) Abcd; 5) AbCD; 6) AbCd; 7) AbcD;  
8) Abcd;

- 9) aBCD; 10) aBCd; 11) aBcD; 12) aBcd; 13) abCD; 14) abCd; 15) abcD; 16) abcd.

5. aaBbCCDDeeFf genotipli organizm 4 ta gameta hosil qiladi:



- 1) aBCDeF; 2) aBCDef;  
3) abCDeF; 4) abCDef.

### Gameta olishga doir masalalar va topshiriqlar

- Quyidagi genotipga ega bo'lgan organizmlar qanday tipdag'i gametalarni hosil qiladi?
  - AA;
  - Aa;
  - aa.
- aaBB va AaBb genotipli organizmlar nechta va qanday tipdag'i gameta hosil qiladi?
- Quyidagi genotipli organizmlar nechta gameta hosil qiladi va har ikkalasi uchun bir bo'lgan gametalarini aniqlang.
  - AaBbCcDDee;
  - aaBbCCDdEe.
- WcwcHHJ^J<sup>0</sup> genotipli organizm nechta va qanday tipdag'i gameta hosil qiladi?
  - \*\* Quyidagi organizmning genotipini aniqlang, nechta va qanday gametalar hosil qilishi aniqlang.
    - birinchi belgisi bo'yicha geterozigotali bo'lgan qora soch va o'naqay ayolda (ikkala belgi ham dominant);
    - ikkinchi belgiga nisbatan geterozigotali bo'lgan normal eshitadigan va polidaktiliyali erkak kishida (normal eshitish va polidaktiliya autosoma orqali irlsiylanadigan dominant belgilari hisoblanadi).
  - \*\* To'rtinchi qon guruhsli, yuzlarida sepkilli bo'lgan, o'naqay, kulrang ko'zli, to'lqinsimon sochli ayol (uning onasida sepkillar bo'lmagan, shuningdek u chapaqay va silliq sochli bo'lgan) ning genotipini yozing va undan nechta gametalar hosil bo'lishi mumkinligini aniqlang (barcha belgilari autosomalar orqali irlsiylangan).

7. Ter bezlari bo'Imagan (jinsiy X xromosomada irsiylanuvchi retsessiv belgi), polidaktiliyali, normal eshitish qobiliyatiga va yuzlarida botiqchaga ega bo'lgan erkak (uning onasi besh barmoqli va yuzlarida chuqurchasi bo'Imagan, otasi esa eshitish qibiliyatini yo'qotgan) ning genotipini yozing.

8. Yettita belgisi bo'yicha bir-biridan keskin farq qiluvchi gomozigotali ikki organizm chatishtirilganida  $F_2$  da gametalar nisbati qanday bo'ladi?

9. Genotipi  $AaBBCcDD \times aaBbccDd$  bo'lgan organizmlar chatishtirilganida gametalar nisbati qanday bo'ladi?

10.  $AaBbCCddFfGg$  genotipli organizmda  $abCdfG$  gametanining hosil bo'lish ehtimolini aniqlang.

11. \*\* Pomidor o'simligida shoxlarning uzunligi bilan mevasining shaklini ifodalovchi genlar to'liqsiz birikkan bo'lib, bitta autosomada joylashgan. Uzun poyali (H) va yumaloq mevali (P) digeterozigota pomidor bilan kalta poyali (h) va yumaloq mevali, faqat ikkinchi belgisi bo'yicha geterozigota pomidor chatishtirildi. Shu o'simliklar nechta gametalar hosil qilishini, krossingoverlangan va nokrossingoverlangan gametalarni aniqlang.

### **Monoduragay chatishtirishga doir masalalar va topshiriqlar**

Faqat bir just alternativ (zid, qarama-qarshi) belgisi bilan farq qiluvchi organizmlarni chatishtirishga monoduragay chatishtirish deyiladi.

Genetikadan masalalarni yechishda turli xil simvollardan foydalilanladi va turli yo'llar bilan yechishga harakat qilinadi. Lekin masalalarni yechishda ma'lum tartibga rioya qilinsa, masala yechgan odamga ham oson bo'ladi.

Shuning uchun masala yechishda qulay bo'lgan quyidagi uslubni taklif qilamiz:

1) masalaning sharti yozilishi kerak;

2) masalaning qabul qilingan tartib bo'yicha yechish kerak va uni yechishda genetikada ishlataladigan hamma simvollardan va atamalardan unumli foydalanish kerak;

3) oxirida masalani izohlash kerak.

Masalan:

*1. Masalaning berilgan sharti:*

Ota-onasi ko'zining rangi jigarrang bo'lgan oilada tug'ilgan ko'k ko'zli erkak, otasining ko'zi jigarrang, onasining ko'zin rangi ko'k (ushbu

oiladagi ayolning aka va singillarining barchasining ko'zi rangi jigarrang bo'lgan, o'zining ko'zi esa jigarrang bo'lgan ayolga uylandi.

Ushbu nikohdan tug'ilish ehtimoli bo'lgan farzandlarni aniqlang.

## *2. Masalani yechish tartibi.*

Belgi (fenotip)	Gen	Genotipi
Jigarrang ko'z	A	AA, Aa
Ko'k ko'z	a	aa

Masalani yechishda bir qancha qoidalarga e'tibor beriladi va bir qancha belgilardan foydalaniлади:

1) Dastlab birinchi qatorga quyidagilar yoziladi: «P» harfi lotincha «Parentale» – ota-onha demakdir. so'ng ♀ - Zuxro-Venera ko'zgusi belgisi, go'zallik timсоли – ayol belgisi, undan so'ng ayol organizm genotipi, keyingi navbatda chatishitirish belgisi- «x», undan so'ng ♂ - erkak belgisi, Marsning qalqoni va nayzasi, qatorning oxirida esa erkak organizm genotipi yoziladi.

2) Ikkinchchi qatorga quyidagilar yoziladi: «G» harfi gametalar, ya'ni jinsiy hujayralarni anglatadi. Gametalarni boshqa genotiplardan ajratish uchun ularni doira ichiga olinsa, yanada yaxshi bo'ladi.

3) Uchinchi qatorga quyidagilar yoziladi: «F» – lotincha «filia» so'zidan olingan bo'lib, farzandlar ma'nosini bildiradi. Hosil bo'lishi ehtimoli bo'lgan organizmlar genotipi yoziladi.

Yigit tug'ilgan oila genotipi:

P ♀ Aa x ♂ Aa

G A a A a

F AA Aa Aa aa

Ularning nikohidan tug'iladigan farzandlar:

P ♀ Aa x ♂ aa

G A a a

F Aa aa

Ayol tug'ilgan oila genotipi:

P ♀ aa x ♂ AA

G a A

F Aa

*3. Masalani izohlaydigan bo'lsak:* Masala bir just alternativ belgilari bo'yicha farq qiluvchi organizmlarning chatishitirishiga, ya'ni monoduragay chatishitirishga misol bo'la oladi.

## To'la dominantlik Monoduragay irsiylanishga doir masalalar va topshiriqlar

To'liq dominantlik – geterozigotali duragaylarning barchasida faqat bitta allelning belgisi to'liq namoyon bo'lib, ikkinchi allel belgisining paydo bo'lmasligi holati.

1. G'o'za o'simligining normal poyali va past poyali o'simliklari chatishtirilganida  $F_1$  da doimo normal poyali o'simliklar olingan. Chatishtirilgan normal poyali o'simliklar o'z-o'zidan changlantirilganida ham normal poyali o'simliklar olingan. Shu ikki chatishtirishning genetik asoslarini –ota-onal formalari va olingan avlodning genotiplarini aniqlang.

2. Quyonlarda junning normal uzunligi dominant (B), qisqaligi retsessiv belgi hisoblanadi. Quyidagi genotipli organizmlar chatishtirilganida qanday fenotipik nisbatli organizmlar olimadi?

a) Bb x Bb b) BB x bb c) Bb x BB

3. \* G'o'zaning hosil shoxi cheklanmagan (A) gomozigotali formasi bilan hosil shoxi cheklangan formasi o'zaro chatishtirildi.  $F_1$  va  $F_2$  bo'g'imining fenotipi va genotipini aniqlang.

4. Pomidor mevasining qizil rangi (A) sariq rangi (a) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada ota-onal o'simliklar qizil rangda edi, lekin ular chatishtirilganida  $\frac{1}{2}$  qizil,  $\frac{1}{2}$  sariq pomidorlar hosil bo'ldi. Ota-onal va  $F_1$  duragaylarining genotipini aniqlang.

5. \* Ipak qurti urug'ining qoramtilrang rangi (A) oq rangi (a) ustidan dominantlik qiladi. Geterozigotali urg'ochi kapalak shunday erkak kapalak bilan chatishtirilganida olingan naslda qanday ajralish sodir bo'ladi (%da ifodalang)

6. Ipak qurti lichinkalarining yo'l-yo'lligi ( $\text{A}^+$ ) bir xilligi ustidan dominantlik qiladi. Yo'l-yo'l geterozigotali qurtdan chiqqan kapalak bir xil rangli qurtdan chiqqan erkak kapalak bilan chatishtirildi.  $F_1$  bo'g'inning fenotipi va genotipini toping.

7. Drozofila meva pashshasida normal uzunlikdagi qanot dominant, egilgan qanot (a) esa retsessiv gen ta'sirida rivojlanadi. Naslda fenotip bo'yicha 3:1 yoki 1:1 nisbatlardagi ajralishlarni olish uchun qanday genotipli organizmlar chatishtirilishi lozim?

8. Qorako'zanlar mo'ynasining jigarrang bo'lishini A gen, havorang-kulrangligini esa a geni belgilaydi (jigarrang geni havorang-kulrangga nisbatan dominantlik qiladi). Agar gomozigotali jigarrang qorako'zan

havorang-kulrang qorako'zan bilan chatishirilsa, qanday avlod olish mumkin?

9. No'xatdagi urug'pallaning sariq rangi yashil rang ustidan dominantlik qiladi. Ota-onalarning o'simliklarning o'z-o'zidan changlanishi natijasida 33 ta sariq va 11 ta yashil no'xat olindi. Ota-onalarning o'simliklarning genotipini aniqlang. Sariq rangli o'simliklarning (taxminan) nechta gomozigotali, geterozigotali?

10. Pomidor mevasi yumaloq va noksimon shakkarda bo'ladi. Agar ikki o'simlikni chatishirib olingan avlodda yumaloq va noksimon mevali o'simliklarning soni teng bo'lsa, chatishirilgan o'simliklarning genotipini aniqlang.

11. Jag'-jag'ning uchburchak mevali o'simliklari o'zaro chatishirilganida uchburchak va tuxumsimon mevali o'simliklar olindi. Chatishirilgan o'simliklarning genotipini aniqlang.

12. Bug'doyda poyaning past bo'lishi baland bo'lishiga nisbatan ustunlik qiladi. Agar ikki o'simlik chatishirib olingan avlodning s qismini past bo'yli bug'doy o'simliklari tashkil qilsa, chatishirilgan o'simliklarning genotipini aniqlang.

13. Pashshalar chatishirilganida  $F_2$  da olingan avlodning 1392tasi kulrang va 467 tasi qora bo'ldi. Boshlang'ich ota-onalarning genotipini aniqlang.

14. Pashshalar chatishirilganida  $F_2$  da olingan avlodning 1392tasi kulrang va 467 tasi qora bo'ldi.  $F_2$  duragaylarining genotipini aniqlang.

15. Dengiz cho'chqasining qora rangli urg'ochisi oq rangli erkagi bilan chatishirilganida olingan avlodlar o'rtasida oq rangli individlar ham bor edi. Agar junning qora rangi oq rangiga nisbatan dominantlik qilsa, ota-onalarning genotipi qanday?

16. \* Burishgan va silliq urug'si no'xat o'simligi chatishirilganida  $F_2$  da 7324 ta no'xat olindi, shulardan 1850 tasi burishgan edi. Bu holatda qaysi belgi dominantlik qilgan?  $F_2$  da olingan o'simliklardan nechta gomozigotali ekanligini aniqlang.

17. No'xat gullarining poya o'qi bo'ylab joylashishi gullarning poya uchida joylashishiga qaraganda dominantlik qiladi. Ota-onalarning o'simliklari changlantirilganida  $F_2$  da olingan o'simliklarning 72 tasida gullar poya o'qi bo'ylab joylashgan va 24 tasida gullar poya uchida joylashgan edi. Ota-onalarning genotipini aniqlang.  $F_2$  da olingan o'simliklarning nechta fenotip jihatdan ota-onalarning farq qiladi?

18. No'xat gullarining poya o'qi bo'ylab joylashishi gullarning poya uchida joylashishiga qaraganda dominantlik qiladi. Ota-onalarning o'simliklari changlantirilganida  $F_1$  da olingan o'simliklarning 72 tasida gullar poya o'qi bo'ylab joylashgan va 24 tasida gullar poya uchida joylashgan edi.  $F_1$  duragaylarining genotipini aniqlang.  $F_1$  da olingan o'simliklarning nechtasi genotip jihatdan chatishtirilgan ota-onalarning farq qiladi?

19. Jigarrang va kulrang qorako'zanlar chatishtirilganida olingan avlod jigarrang,  $F_1$  da esa 96ta jigarrang va 31 ta kulrang qorako'zanlar olindi. Qaysi belgi dominantlik qilgan?  $F_1$  da olingan jigarrang qorako'zanlarning taxminan nechtasi dastlabki ota-onalarning genotipiga o'xshash genotipga ega?

20. Sulida kechpisharlik ertapisharlikka nisbatan retsessiv belgi hisoblanadi. Tajribada kechpishar suli geterozigota ertapishar suli bilan chatishtirilganida 69134 ta ertapishar o'simlik olindi. Shu bo'g'indagi kechpishar sullarning sonini aniqlang.

21. Yunglari hurpaygan va silliq dengiz cho'chqalari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da fenotiplari ota-onanikiga o'xshash bo'lgan 144 ta avlodlar olingan. Shu olingan avlodning nechtasi gomozigotali?

22. Yunglari hurpaygan va silliq dengiz cho'chqalari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da fenotiplari ota-onanikiga o'xshash bo'lgan 144 ta avlodlar olingan. Shu olingan avlodning nechtasi dominant belgili (hurpaygan yung silliq yung ustidan dominantlik qiladi)?

23. Qora qorako'l qo'chqori bilan qo'ng'ir ona qo'y chatishtirilgan.  $F_1$  da 28 ta qora, 32 ta qo'ng'ir qo'zichoq olingan. Ona qo'yning naslida qora tus yo'q edi. Ota-onaning genotipini aniqlang.

24. Qora qorako'l qo'chqori bilan qo'ng'ir ona qo'y chatishtirilgan.  $F_1$  da 28 ta qora, 32 ta qo'ng'ir qo'zichoq olingan (qo'ng'ir rang dominant belgi).  $F_1$  da olingan qo'ng'ir rangli qo'zichoqlar keyinchalik o'zaro chatishtirilganida qora rangli avlodlarning olinish eltimolligi qancha (%)?

25. Qora qorako'l qo'chqori bilan qo'ng'ir ona qo'y chatishtirilgan.  $F_1$  da 28 ta qora, 32 ta qo'ng'ir qo'zichoq olingan.  $F_1$  da olingan qora rangli qo'zichoqlar keyinchalik o'zaro chatishtirilganida qo'ng'ir rangli avlodlarning olinish eltimoli qancha (%)?

26. Ola quyonlar bir xil rangli quyonlar bilan chatishtirilganida doimo ola quyonlar olingan.  $F_2$  da esa 23 ta ola va 8 ta bir xil rangli quyonchalar olingan. 23 ta ola quyonchalardan taxminan nechtasi geterozigotali?

27. \*\* Ottarda hiqildaq irsiy kasalligi mavjud. Kasal ottar yugurganida xarakterli xirillaydi. Kasal ota-onalardan tug'iladigan toylar ko'pincha sog'lom bo'ladi. Shu kasallik qanday irsiylanadi? Dominant yoki retsessiv?

28. Normal belgilarga ega bo'lgan pashshalar o'zaro chatishtilganida olingan avlodlarning  $\frac{1}{4}$  qismining ko'zlarini o'zgargan edi. Shu pashshalar (ko'zlarini o'zgargan) normal pashshalar bilan qayta chatishtilganida 37 ta ko'zlarini kichraygan hamda 39 ta normal ko'zli individlar olingan. Har ikkala chatishtilishdagi ota-onal formalarining genotiplarini aniqlang.

29. Normal qanotli drozofila pashshalari chatishtilganida F<sub>1</sub> da 3565 ta avlod olingan. Ular orasida normal qanotilari faqat 2673 ta bo'lib, qolganlari qayrilgan qanotli edi. Ota-onal formalarining genotipini va F<sub>2</sub> da olingan individlar orasidan ularning genotipi bilan bir xil bo'lganlarining sonini aniqlang.

30. \*\* Qoramollarda qulquning choklligi dominant gen K orqali irsiylanib, qulquning yo'rmakllilik anomaliyasi ustidan dominantlik qiladi. Shu anomaliyaga ega bo'lgan buqa sog'lom sigir bilan chatishtilganida olingan avlodning barchasi normal belgilarga ega bo'lgan. F<sub>2</sub> da esa belgililar orasida ajralish sodir bo'lib, unda jami 56 ta individ olingani ma'lum bo'lsa, ulardan nechta shu anomaliyaga ega emas?

31. \*\* Qoramollarda qulquning choklligi dominant gen K orqali irsiylanib, qulquning yo'rmakllilik anomaliyasi ustidan dominantlik qiladi. Shu anomaliyaga ega bo'lgan buqa sog'lom sigir bilan chatishtilganida olingan avlodning barchasi normal belgilarga ega bo'lgan. F<sub>2</sub> da anomaliyaga ega bo'lgan avlodlarning tug'ilish ehtimoli qanday (%)?

32. Qoramollarda qora rang geni qizil rang ustidan dominantlik qiladi. Geterozigotali qoramollar o'zaro chatishtilganda olinadigan avlodda fenotipik jihatdan qanday xilma-xillik kutish mumkin (foizlarda ifodalang)?

33. Urug'pallalarining rangi sariq va yashil bo'lgan no'xatlar o'zaro chatishtilganda birinchi bo'g'inda olingan o'simliklarning barchasi sariq urug'pallali bo'ldi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanan ularning genotipini aniqlang. Duragay urug'lardan unib chiqqan o'simliklarning o'z-o'zidan urug'lanishi natijasida qanday avlod olinadi?

34. Urug'pallalarining rangi sariq va yashil bo'lgan no'xatlar o'zaro chatishtilganda birinchi bo'g'inda olingan o'simliklarning barchasi sariq

urug' pallali bo'ldi. Duragay urug'lardan unib chiqqan o'simliklarning o'z-o'zidan urug'lanishi natijasida olinadigan avlodlarda necha xil fenotipik va genotipik sinf uchraydi?

35. Mushuklarda yungining kaltaligi uzunligi ustidan dominantlik qiladi. Qisqa va uzun yungli mushuklar chatishirilganida,  $F_2$  da 6 ta qisqa yungli va 2 ta uzun yungli mushukchalar dunyoga keldi. Dastlabki chatishirilgan ota-onalarning genotipini aniqlang.

36. Yashil va och sariq urug'li ikki no'xat o'simligini chatishirganda  $F_1$  da hamma urug'lar och sariq rangli urug' pallalarga ega bo'lib chiqdi, ikkinchi bo'g'inda esa olingan avlodning taxminan  $\frac{1}{2}$  qismi och sariq urug'li,  $\frac{1}{4}$  qismi yashil tusdag'i urug'ga ega bo'lib chiqdi. Ota-onalarning hamda birinchi va ikkinchi bo'g'indarda olingan avlodlarning genotipini aniqlang.

37. Gomozigotali yashil va sariq urug'li o'simliklar chatishirildi.  $F_1$  da olingan hamma o'simliklar sariq urug'li bo'ldi,  $F_2$  da – duragay o'simliklarni o'z-o'zidan changlantirilishi natijasida 3903 ta yashil urug'li va 11902 ta sariq urug' pallali o'simliklar olindi.  $F_2$  da olingan o'simliklardan taxminan nechtasi genotip jihatdan  $F_1$  duragaylariga o'xshaydi?

38. Turli xildagi qizil (to'la albinos) va kulrang tusdag'i baliqlar o'zaro chatishirilganda  $F_1$  da olingan hamma baliqchalar kulrang tusda bo'ldi.  $F_2$  da esa 211 ta kulrang va 83 ta qizil rangli baliqchalar olindi. Baliqlarda rang qanday holatda irsiylanadi?

39. Turli xildagi qizil (to'la albinos) va kulrang tusdag'i baliqlar o'zaro chatishirilganda  $F_1$  da olingan hamma baliqchalar kulrang tusda bo'ldi.  $F_2$  da kulrang va qizil rangli baliqchalar olindi.  $F_2$  da olingan duragaylar orasidan kulrang tusga ega bo'lgan baliqlar tasodifiy tanlab olingan holda chatishirilganida turli xil fenotipik sinflarga mansub 328 ta avlod olingan. Olingan individlar orasida albinos baliqchalarning soni nechta?

40. Tajribalar olib boruvchi institutning sichqonlar populatsiyasidagi dumsiz tug'ilgan sichqon normal dumli sichqon bilan bir necha marta chatishirilganida birinchi bo'g'inda 49 ta avlod olinib, ularning barchasi normal dumli edi.  $F_2$  da 157 sichqon olindi.  $F_2$  da olingan sichqonlarning taxminan nechtasi dumsiz edi?

41. Oq lekgorn zotli va qora patli parrandalar chatishirilganda umumiy hisobda  $F_1$  da bir necha yuzlab oq patli jo'jalar olingan.  $F_2$  da 586 ta jo'ja olingan bo'lsa, ularning nechtasi oq lekgorn zotli bo'lgan?

42. Oq lekgorn zotli va qora patli parrandalar chatishtirilganda  $F_1$  da 252 ta oq va 262 ta qora patli jo'jalar olingan. Ota-onal formalari va olingan duragaylarning genotiplarini aniqlang.

43. Sichqonlar yungining kumushrang bo'lishi bilan mutatsiyaga uchraydi. Normal yungli sichqonni kumushrang yungli sichqon bilan chatishtirganda faqat normal yungli sichqonlar olingan.  $F_2$  da normal yungli urg'ochi sichqonni kumushrang yungli sichqon bilan qayta chatishtirilganda 38 ta kumushrang va 40 ta normal avlod olingan. Sichqonlarda kumushrang qanday irlsiylanadi? Dominant yoki retsessiv belgi ekanligini aniqlang.

44. Normal yungli sichqonni kumushrang yungli sichqon bilan chatishtirganda faqat normal yungli sichqonlar olingan.  $F_2$  da esa 130 ta sichqon olingan.  $F_3$  da olingan sichqonlar orasidan taxminan nechtasi kumushrangli bo'ladi?

45. Ikkita qora erkak kalamush jigarrang urg'ochi kalamush bilan chatishtirildi. Birinchi qora kalamushdan 20 ta qora va 17 ta jigarrang, ikkinchi qora kalamushdan faqat 33 ta qora rangli kalamushlar olindi. Har ikkala chatishtirishdagi ota-onal va olingan avlodlarning genotipini aniqlang.

46. Bo'yni va qornida oq dog'chalari bo'lgan qora mushuk (S) xuddi o'zinikidek fenotip va genotipga ega bo'lgan mushuk bilan chatishtirildi. Bu juftlikdan butun tanasi qora rang bilan qoplangan dog'siz mushukchalar tug'ilgan bo'lsa, bundan keyin ham dog'siz mushuklarning tug'ilish ehtimolini toping (%).

47. Normal jihatlarga ega bo'lgan drozofila pashshalari o'zaro chatishtirilganida olingan avlodning 25 % i ko'zlar kichik bo'lib rivojlandi. Ota-onal formalardan biri qisqargan ko'zli forma bilan chatishtirilganida 24 ta ko'zlar qisqargan, 21 ta normal bo'lgan avlod rivojlandi. Har ikkala tajribadagi pashshalarning genotipini aniqlang.

48. Geterozigotali (Brbr) ikkita organizmni o'zaro chatishtirganda necha xil fenotip va genotipga ega bo'lish mumkin?

49. Itlarning ayrim zotlarida (foksterer) 5-6 oyldara namoyon bo'lувчи irlsiy asab kasalligi uchraydi. Bu xastalik o'lim bilan yakunlanmagan, lekin keyinchalik kasallangan itlarning erkin harakatlanshi og'riqli kechgan. Bu kasallik miyacha ataksiyasi nomi bilan atalgan va har ikkala jinsdagi itlarda uchragan. Bir xil belgiga ega bo'lgan itlar o'zaro chatishtirilishidan olingan 92 ta kuchukchalarining faqat 25 tasida bu

belgi uchragan. Bu kasallik qanday irsiylanadi (dominant yoki retsessiv). Chatishtirilgan ota-onalar va olingan duragaylarning genotipini aniqlang.

50. \* Tovuqlarda gulsimon toj R geni bilan, bargsimon toj esa r geni bilan belgilanadi. Gulsimon tojli xo'roz ikkita gulsimon tojli tovuq bilan chatishtirildi. Birinchisi 14 ta jo'ja berdi, ularning hammasi gulsimon tojli edi. Ikkimchisi esa 13 ta jo'ja berdi, ulardan 10 tasi gulsimon, 3tasi esa bargsimon tojli edi. Barcha ota-onalarning genotipini aniqlang.

### Monoduragay chatishtirishda to'liqsiz dominant holatda irsiyanuvchi belgilarga doir masalalar va topshiriqlar

Chala dominantlikda dominant gen retsessiv gen bilan birga kelganda o'z belgisini to'liq yuzaga chiqara olmaydi. Shuning uchun geterozigota organizmda har ikkala gen yuzaga chiqaradigan belgilarning oraliq formasi hosil bo'ladi. Masalan: Namozshomgulning oq va qizil rangdagi formalarini o'zaro chatishtirilganda pushti rangli namozshomgul paydo bo'ladi. Odamlarda jingalak sochli va silliq sochli insonlar turmush qurishsa, to'lqinsimon sochli avlod yuzaga kelishi kuzatiladi. Bundan tashqari, qulupnay o'simligining guli va mevasining rangi, xushbo'y no'xat va namozshomgul o'simliklarining gultojbarglarining rangi, go'za o'simligi tolasining novvotrangda bo'lishi, poyasining antotsian rangi, barg plastinkalarining tuzilishi, qushlar patining tuzilishi, andaluz tovuqlari patining rangi, odamdagi biokimyoviy belgilari uchun ham oraliq irsiyanish xos.

1. Qulupnayning oq va qizil mevali formalari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  dagi duragaylarning barchasi pushtirang mevali bo'lди. Agar ular o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da fenotip va genotip jihatdan qanday nisbatdagi ajralish kuzatiladi? Qulupnay mevasida qizil rang oq rang ustidan to'liqsiz dominantlik qiladi.

2. Pushti mevali qulupnaylar o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da 1500 ta o'simlik olingan. Shu olingan o'simliklarning nechtasi qizil, nechtasi oq rangli mevaga ega ekanligini aniqlang.

3. Qulupnay o'simligida gulkosachabarglarining normal shakli gulkosochabarglarining birlashmaganligi ustidan to'la ustunlik qila olmaydi, natijada geterozigotali formalarda gulqo'rg'on oraliq shaklda bo'ladi. Gulqo'rg'oni oraliq formada bo'lgan va gulkosachabarglari birlashmagan o'simliklar o'zaro chatishtirilganida 3000 ta avlod olingan.

Shu olingan avlodning qanchasining (foizi va sonlarda ifodalang) gulkosachabarglari birlashmagan?

4. Qulupnay o'simligida gulkosachabarglarining normal shakli gulkosochabarglarining birlashmaganligi ustidan to'la ustunlik qila olmaydi, natijada geterozigotali formalarda gulqo'rg'on oraliq shaklda bo'ladi. Gulqo'rg'oni oraliq formada bo'lgan va gulkosachabarglari birlashmagan o'simliklar o'zaro chatishtirilganida 3000 ta avlod olingan. Shu olingan avlodning qanchasi geterozigotali?

5. Qulupnay o'simligida gulkosachabarglarining normal shakli gulkosochabarglarining birlashmaganligi ustidan to'la ustunlik qila olmaydi, natijada geterozigotali formalarda gulqo'rg'on oraliq shaklda bo'ladi. Gulqo'rg'oni oraliq formada bo'lgan o'simliklar o'zaro chatishtirilganida 3000 ta avlod olingan. Shu olingan avlodning qanchasi toza liniyali (sof gomozigotali)?

6. Xushbo'y no'xat o'simligida gultojbarglarining rangi oraliq irsiylanuvchi belgi sifatida irsiylanadi. Gomozigota dominant holatda gulining rangi qizil, geterozigota holatda esa pushti bo'ladi. Qizil va oq gultojbargli no'xat o'simliklari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da olingan barcha o'simliklar pushti gulli bo'ldi.  $F_1$  duragaylarini qayta chatishtirilishi natijasida  $F_2$  da 1860 ta o'simlik olindi.  $F_2$  da olingan o'simliklardan nechtaси pushti gultojbargli?

7. Xushbo'y no'xat o'simligida gultojbarglarining rangi oraliq irsiylanuvchi belgi sifatida irsiylanadi. Gomozigota dominant holatda gulining rangi qizil, geterozigota holatda esa pushti bo'ladi. Qizil va oq gultojbargli no'xat o'simliklari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da olingan barcha o'simliklar pushti gulli bo'ldi.  $F_1$  duragaylarini qayta chatishtirilishi natijasida  $F_2$  da 1860 ta o'simlik olindi.  $F_2$  da olingan o'simliklardan nechtaси oraliq belgiga ega emas?

8. Xushbo'y no'xat o'simligida gultojbarglarining rangi oraliq irsiylanuvchi belgi sifatida irsiylanadi. Gomozigota dominant holatda gulining rangi qizil, geterozigota holatda esa pushti bo'ladi. Pushti va oq gultojbargli no'xat o'simliklari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da olingan 2000 ta o'simliklar o'rtaida ajralish kuzatildi. Olingan o'simliklarning nechtaси pushti gultojbargli bo'lgan. Olingan o'simliklarning (% jihatdan) qancha qismini qizil gulli o'simliklar tashkil etgan?

9. Itog'iz o'simliklari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da taxminan 12560 ta organizm olingan. Ulardan faqat 6280 tasi pushti gulli bo'lib, qolgan

o'simliklar deyarli teng nisbatlarda oq va qizil gulli bo'lgan. Chatishtirilgan o'simliklarning genotipi va fenotipini aniqlang.

10. G'o'zada malla rang tola oq tola ustidan qisman dominantlik qilgani uchun  $F_1$  bo'g'inda novvotrang tolali o'simliklar hosil bo'ldi. Agar  $F_1$  duragaylari o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da qanday natija olinadi?

11. Namozshomgulning qizil va pushti gultojbargli formalari oq gultojbargli formasi bilan chatishtirilganida birinchi chatishtirishda  $F_1$  da barcha o'simliklar pushti gultojbargli, ikkinchi chatishtirishda 50 % pushti, 50 % oq gultojbargli formalari hosil bo'ldi. Har ikkala tajribadagi ota-oni va  $F_1$  duragaylarining genotipini aniqlang.

12. Kulrang andaluz tovuqlari o'zaro chatishtirilganida naslda 17 ta oq, 15 ta qora va 32 ta kulrang patli formalari olindi. Kulrang andaluz tovuqlarining genotipini aniqlang.

13. Andaluz tovuqlarida patning qora rangda bo'lishi oq rang ustidan to'la ustunlik qila olmaydi, natijada parrandalarda patning havorang (kulrang) bo'lishi ham uchraydi. Kulrang tovuq bir xo'roz bilan chatishtirilganida 9 ta kulrang va 10 ta qora rangli jo'jalar olingan. Chatishtirilgan xo'rozning genotipi va fenotipini aniqlang.

14. G'o'zaning moyasi, shoxlari, barglari antotsian rangli – Rp va yashil rangli – rp bo'ladi. Agar shu belgili organizmlar chatishtirilsa,  $F_1$  och antotsian rangli bo'ladi. Quyidagi genotipli organizmlar chatishtirilganida olinadigan avlodlarda qanday fenotipik ajralishlarni kutish mumkin (% larda ifodalang)

1) RpRp x Rpp; 2) Rpp x rpp; 3) RpRp x rpp.

15. G'o'zaning och antotsian rangli o'simliklari chatishtirilishida 860 ta o'simlik olindi. Shundan 430 tasi och antotsian rangli. Qolgan o'simliklardan qanchasi yashil rangli bo'ladi?

16. \*\* G'o'za o'simligida barg plastinkasining chuqur kesilganligi barg yaprog'ining butun bo'lishiga nisbatan chala dominantlik qiladi. Geterozigotali organizmlarda esa barg yaprog'i bo'laklarga bo'lingan bo'ladi. Barg plastinkasi bo'laklarga bo'lingan g'o'za o'simliklari o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  da fenotip jihatdan ajralish kuzatilgan. Agar olingan o'simliklarning 340 tasi butun barg yaprog'li bo'lsa, qolgan o'simliklardan nechtasining barg yaprog'i bo'laklarga bo'lingan bo'lgan?

17. G'o'za o'simligida barg plastinkasining chuqur kesilganligi barg yaprog'ining butun bo'lishiga nisbatan chala dominantlik qiladi. Geterozigotali organizmlarda esa barg yaprog'i bo'laklarga bo'lingan

bo'ladi. Barg plastinkasi bo'laklarga bo'singan g'o'za o'simliklari o'zaro chatishirilganida  $F_1$  da fenotip jihatdan ajralish kuzatilgan. Agar olingan o'simliklarning 340 tasi butun barg yaprog'li bo'lsa, olingan o'simliklardan nechta shu belgilar bo'yicha gomozigotali bo'lgan?

18. \*\* Qo'ylerda qulog'inining uzun bo'lishi quloglarining bo'lmasligi ustidan chala dominantlik qiladi. Natijada geterozigotali organizmlarda quloglar kalta bo'ladi. Quloglari bo'limgan va uzun qulogli organizmlar o'zaro chatishirilganida 120 ta avlod olingan. Shulardan necha % i geterozigotali?

19. Qizil urug'li yertut o'simliklari o'zaro chatishirilganida har doim qizil mevali, oq urug'lilari o'zaro chatishirilganida esa faqat oq mevali o'simliklar olingan. Har ikkala navni o'zaro chatishirilishi natijasida och qizil rang mevali o'simliklar olingan. Och qizil rang mevali o'simliklar o'zaro chatishirilganida  $F_1$  da 3000 ta o'simlik olingan bo'lsa, ulardan nechta qizil, nechta oq, nechta och qizil mevaga ega ekanligini aniqlang.

20. Och qizil mevali yertut o'simliklari o'zaro chatishirilganida  $F_1$  da olingan o'simliklar orasida 1200 ta oq va xuddi shuncha qizil mevali o'simliklar uchragan.  $F_1$  da jami nechta o'simlik olingan?

21. Sariq va oq rangli dengiz cho'chqalar o'zaro chatishirilganda doimo malla rangli avlodlar olingan. Malla rangli dengiz cho'chqalar o'zaro chatishirilganida esa 120 sariq: 117 oq: 245 malla nisbatlardagi avlod olingan. Malla rangli dengiz cho'chqalarining genotipini aniqlang.

22. Normal va to'lqinsimon patli parrandalar o'zaro chatishirilganida 81 ta to'lqinsimon va 78 ta normal pat qoplamiga ega bo'lgan jo'jalar olingan.  $F_1$  da olingan to'lqinsimon pat qoplamlari parrandalar o'zaro chatishirilganida esa 31 ta to'lqinsimon, 18ta normal pat qoplamlari va 16ta jingalak patli bo'lgan jo'jalar olingan. To'lqinsimon pat parrandalarda qanday irsiylanadi? To'lqinsimon patli parrandalarning genotipini aniqlang.

23. Dengiz cho'chqalarining qaymoq rang junli erkak va urg'ochilari chatishirilganida naslda 52 ta sariq rangli, 99 ta qaymoq rangli va 49 ta oq rangli individlar olingan. Shu olingan individlarning nechta va qaysi rangdagilari genotip jihatdan gomozigotali ekanligini aniqlang.

24. \* Odamlarda anostalm a (ko'z olmasining bo'lmasligi) allel geni orqali irsiylanadi. Uning A alleli ko'zning normal rivojlanishini ta'minlaydi. Geterozigotalilarda esa ko'z olmasi kichraygan bo'ladi. A

geni bo'yicha geterozigotali bo'lgan erkak ko'zları normal bo'lgan ayol bilan oila qurdi. Bu oilada kichraygan ko'zli farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang (%).

25. \* Sistinuriyaning bir formasi – bemor odamning siydigida bir qancha aminokislotalarning, jumladan, sistin, arginin, ornitin kabilarning uchrashi, moddalar almashinuvining buzilishi bilan xarakterlanadi, autosoma retsessiv belgi sifatida irsiylanadi. Genotip jihatdan geterozigotali organizmlarda faqatgina siydigida sistin aminokislotasining miqdori yuqori bo'lishi kuzatilsa, gomozigotalilarda kasallik buyrakda tosh hosil bo'lishi bilan kechadi. Ota-onalardan biri bu kasallik bilan kasallanib, genotipi gomozigota holatda, ikkinchisida esa klinik belgilari namoyon bo'lmay, faqatgina siydig'i tarkibidagi sistin moddasining miqdori yuqori bo'lsa, bu oilada tug'iladigan farzandlarda kasallikning uchrash ehtimolini (%) aniqlang.

26. \*\* Sistinuriyaning bir formasi – bemor odamning siydigida bir qancha aminokislotalarning, jumladan, sistin, arginin, ornitin kabilarning uchrashi, moddalar almashinuvining buzilishi bilan xarakterlanadi, autosoma retsessiv belgi sifatida irsiylanadi. Genotip jihatdan geterozigotali organizmda faqatgina siydigida sistin aminokislotasining miqdori yuqori bo'lishi kuzatilsa, gomozigotalilarda kasallik buyrakda tosh hosil bo'lishi bilan kechadi.

Agar ota-onalardan birida shu kasallik tufayli buyragida tosh bo'lsa, ikkinchisi esa o'rganilayotgan belgi bo'yicha sog'lom bo'lsa, shu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning kasallikning gomozigota formasi bilan tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

27. \*\* Giperxolesterinemiya kasalligi autosoma dominant belgi sifatida irsiylanadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gomozigotalarda esa kasallik ateroskleroz va terida ksantomalar (xavfsiz hisoblangan o'smalar) paydo bo'lishi bilan kechadi.

Oilada ota-onalardan birida kasallik natijasida ateroskleroz va ksantomalar kuzatilgan bo'lsa va ikkinchisi bu belgi bo'yicha sog'lom bo'lsa, tug'iladigan farzandlarda kasallikning rivojlanish ehtimolini (%) aniqlang. Oila a'zolarining genotiplarini to'liq yozing.

28. \* Giperxolesterinemiya kasalligi autosoma dominant belgi sifatida irsiylanadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Gomozigotalarda esa kasallik ateroskleroz va terida ksantomalar (xavfsiz hisoblangan o'smalar) paydo bo'lishi bilan kechadi.

Agar ota-onalarning har ikkalasi ham kasallikning yengil formasi bilan kasallangan bo'lsa, bu oilada giperxolesterinemiya bilan kasallangan farzandlarning tug'ilish ehtimolini (%) toping.

29. \*\* Akatalaziya (qonda katalaza fermentining bo'lmasligi) autosoma retsessiv belgi sifatida irlsylanadi. Tekshirishlar natijasida bu belgi bo'yicha geterozigota bo'lgan odamlarda katalaza fermenti faolligining pasayishi aniqlangan. Oilada ota-onalarning har ikkalasida va ularning yolg'izgina o'g'lida katalaza fermenti faolligining pasayganligi aniqlandi. Shu oilada keyingi farzandning sog'lom bo'lib tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

30. \*\* O'roqsimon anemiya – normal gemoglobinning (A-gemoglobin) S-gemoglobinga aylanishi natijasida organizmda atmosferadan qabul qilingan kislorodning eritrotsitlarda tashilishi buzilishi bilan ifodalananadigan chala dominant belgi sifatida autosomalar orqali irlsylanadigan kasallik hisoblanadi. Bu belgi bo'yicha gomozigota organizmlar juda yosh vaqtidayoq nobud bo'ladi. Geterozigotali organizmlar yashab ketish xususiyatiga ega bo'lib, ular kasallikning yengil formasi bilan kasallanadi va hayotlari davomida bezgak paraziti bilan og'rimaydilar. O'rta Yer dengizi bo'ylarida bu kasallik keng tarqalgan.

Oilada ota-onalardan biri o'roqsimon anemiya bo'yicha geterozigotali, ikkinchisi sog'lom bo'lsa, bu oilada farzandlarning bezgakka chidamli bo'lib tug'ilish ehtimoli (%) qanday?

31. \*\* O'roqsimon anemiya – normal gemoglobinning (A-gemoglobin) S-gemoglobinga aylanishi natijasida organizmda atmosferadan qabul qilingan kislorodning eritrotsitlarda tashilishi buzilishi bilan ifodalananadigan chala dominant belgi sifatida autosomalar orqali irlsylanadigan kasallik hisoblanadi. Bu belgi bo'yicha gomozigota organizmlar juda yosh vaqtidayoq nobud bo'ladi. Geterozigotali organizmlar yashab ketish xususiyatiga ega bo'lib, ular kasallikning yengil formasi bilan kasallanish va hayotlari davomida bezgak paraziti bilan og'rimaydilar. Agar ota-onalarning har ikkalasi bu kasallikning yengil formasi bilan kasallangan bo'lsa, farzandlarning anomaliyasiz bo'lib tug'ilish ehtimoli (%) qanday?

## Kodominantlik. Qon guruhlarining irtsiylanishiga doir masalalar va topshiriqlar

**Kodominantlik** – geterozigota holatda har ikkala gen bir-biridan mustaqil ravishda o‘z ta’sirini yuzaga chiqaradi. Bunga misol qilib IV qon guruhini keltirsak bo‘ladi.

1. \* II qon guruhi bo‘yicha geterozigotali ayol qon guruhi I bo‘lgan erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada farzandlarning qanday qon guruhlariga ega bo‘lib tug‘ilish ehtimolini toping.

2. III qon guruhi bo‘yicha geterozigotali ayol IV qon guruhli erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada farzandlarning qanday qon guruhlariga ega bo‘lib tug‘ilish ehtimolini toping.

3. Oilada ayol III qon guruhli, erkak esa II qon guruhli edi ( har ikkalasining ham onasi I qon guruhli bo‘lgan). Shu oilada farzandlarning I, II, III yoki IV qon guruhli bo‘lib tug‘ilish ehtimollarini (%) toping.

4. Bolaning qon guruhi I (0), uning opasining qon guruhi esa IV (AB). Ularning ota-onasi qanday qon guruhiga ega?

5. Tug‘ruqxonada bir kunda to‘rtta chaqaloq tug‘ildi, ularning qon guruhlari 0, A, B va AB edi. To‘rtta ota-ona juftligining qon guruhlari esa quyidagicha:

1) 0 va 0; 2) AB va 0; 3) A va B; 4) B va B. Bu ma’lumotlardan foydalanib, chaqaloqlarni ota-onalari bilan birga juftlab yozing.

6. Oilada erkakning qon guruhi AB, ayolnikni esa A, ularning 3 nafar farzandi bo‘lib, ularning qon guruhlari B, AB va A edi. Ota-ona va farzandlarning genotiplarini aniqlang.

7. Tug‘ruqxonada ikkita chaqaloq almashib qolganligi ma’lum bo‘ldi. Ularning qon guruhi 0 va B, birinchi ota-onaning qon guruhi 0 va B, boshqa bir oilanining qon guruhlari esa A va AB ekanligi aniqlandi. Shu ma’lumotlardan foydalanib bolalarning haqiqiy oilasini ko‘rsatib bering.

8. \*\* Bolaning ona tomondan bobosi AB qon guruhiga ega. Uning qolgan barcha bobo-buvilari 0 qon guruhiga ega bo‘lgan. Shu bolaning qon guruhli A, B, AB yoki 0 bo‘lish ehtimoli (%) qanday?

9. Agar oiladagi farzandlarning qon guruhlari A, B va AB, 0 bo‘lsa, ularning ota-onalari qanday qon guruhiga ega bo‘ladi?

10. Ayolning qon guruhi I, erkakniki esa IV. Bu oilada ota-onasining qon guruhi bilan bir xil qon guruhga ega bo‘lgan farzandlarning tug‘ilish ehtimoli qanday?

II qon guruhli ayol I va III qon guruhli farzandlarga ega. Farzandlarning otasi qanday qon guruhiga ega ekanligini aniqlang.

### **Diduragay chatishtirishga doir masalalar va topshiriqlar**

Ikki juft alternativ belgi bilan farq qiluvchi organizmlarni chatishtirishga diduragay chatishtirish deyiladi. Diduragay chatishtirishga doir masalalar yechishda angliyalik olim Pennet taklif qilgan katakchadan soydalanish genotip va fenotiplarni aniqlashda juda katta qulaylik tug'diradi.

Diduragay chatishtirishga doir masalani yechish:

Odamlarda kar-soqov bo'lishiga sababchi bo'ladigan kasallik turlaridan biri retsessiv belgi sifatida irsiylanadi. Podagra kasalligi dominant belgi bo'lib irsiylanadi. Bu ikki gen ham har xil juft xromosomalarda joylashgan. Podagra kasalligiga moyilligi bo'lgan, lekin sog'lom, kar-soqov ayol va onasi kar-soqov, sog'lom, otasi podagra bilan kasallangan, lekin nutqi ravon bo'lgan, o'zi har ikki belgi bo'yicha kasal bo'lgan erkak oilasida 1) podagra bo'yicha sog'lom 2) kar-soqovlik bo'yicha kasal bolalarning tug'ilish eltimolini toping.

Masalaning yeclulish tartibi:

1. Keltirilgan belgilarni mos ravishda belgilab olamiz

Belgi (fenotip)	Gen	Genotipi
Normal, nutqi ravon	A	AA, Aa
Kar-soqov	a	aa
Podagra bo'yicha kasal	B	BB, Bb
Podagra bo'yicha sog'lom	b	bb

2. Ota-onan genotipini masala shartidan kelib chiqib topib olamiz

Keltirilgan masalada ayol fenotipi podagra kasalligiga moyilligi bo'lgan, lekin sog'lom, kar-soqov ekanligi berilgan, demak uning genotipi – aabb.

Erkak fenotipi ikki belgi bo'yicha kasal ekanligi keltirilgan, demak, erkak genotipi aaB\_ ; uning onasi kar-soqov, sog'lom genotipi – aabb, otasi podagra bilan kasallangan, lekin nutqi ravon A\_B\_ ; masala shartidan kelib chiqadiki, erkak genotipini to'liq aniqlashimiz lozim – aaB\_ ; har bir juft allel genlarda ota-onadan o'tgan bittadan allel genlar

bo'ladi (A (B) yoki a (b)), demak, erkakka onasidan podagra bo'yicha sog'lomlik geni – b irsiylanib o'tgan. Erkakning to'liq genotipi aaBb ko'rinishda bo'ladi.

3. Aniq bo'lgan genotiplar ustida chatishirish olib boramiz:  
kar-soqov, sog'lom har ikki belgisi bo'yicha kasal

P:  $\frac{aa}{G}$  ♀ aabb x ♂ aaBb  
 $\frac{ab}{ab}$  aB; ab

♀	♂	aB	ab
ab		aaBb	aabb

aaBb – kar-soqov; podagra bo'yicha kasal;  
aabb – kar-soqov; podagra bo'yicha sog'lom.

1. Masala shartidan so'rangan ehtimollikni topamiz:

1) Tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlar orasida faqat 2 xil fenotip va genotip uchraydi: aaBb – kar-soqov; podagra bo'yicha kasal; aabb podagra bo'yicha sog'lom masalaning 1-shartida podagra bo'yicha sog'lom farzand tug'ilish ehtimolini topish so'rangan, demak, podagra bo'yicha sog'lom farzand bu oilada  $\frac{1}{2}$  ehtimollikda yoki

2 — 100 %

1 —  $x\%$   $x\% = 100\% / 2$   $x = 50\%$  50% ehtimollikda ekan

2-shartida Kar-soqov farzandlarning tug'ilish ehtimoli so'rangan. Masala yechish davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilada tug'ilish ehtimoli bo'lgan barcha farzandlar kar-soqov bo'lib tug'iladi.

Javob: 100 % farzandlar kar-soqov bo'lib tug'iladi.

1. \* No'xatda dukkakning bo'g'imliliqi oddiyligiga nisbatan, mevaning yashil rangi sariq rangiga nisbatan retsessiv belgi hisoblanadi. Gomozigotali bo'g'imli, sariq mevali va oddiy, yashil mevali o'simliklar o'zaro chatishitirilganida F<sub>1</sub> duragaylarining fenotipi qanday bo'ladi?

2. Qovoq o'simligida W geni mevaning oq rangda, uning retsessiv alleli sariq rangda, D geni mevaning disksimon bo'lishini, uning retsessiv alleli esa sharsimon bo'lishini ta'minlaydi.

Quyidagi genotipli organizmlarning chatishitirilishidan olinadigan avlodlarda fenotip va genotip bo'yicha ajralish nisbatlarini toping.

- |                |                |
|----------------|----------------|
| 1) WWdd x WwDD | 2) WwDd x WwDd |
| 3) WWDD x WwDd | 4) WwDD x wwdd |
| 5) WwDd x Wwdd | 6) WwDd x wwdd |

3. \*Gomozigota qora to'lqinsimon yungli quyon oq silliq yungli quyon bilan chatishtirilganida  $F_1$  da hammasi qora to'lqinsimon yungli bo'lgan quyonlar olingan. Agar  $F_1$  duragaylari qayta chatishtirilsa,  $F_2$  da olingan duragaylarning fenotipi va genotipi qanday bo'ladi?

4. Tarvuz mevasining rangi yashil va yo'l-yo'l, shakli uzunchoq va yumaloq bo'ladi. Gomozigota uzunchoq yashil mevali tarvuz o'simligi yumaloq yashil mevali o'simlik bilan chatishtirildi.  $F_1$  da yumaloq yashil mevali o'simliklar olingau.  $F_2$  da esa jami 1200 ta o'simlik olingan. Olingan o'simliklarning nechtasi yumaloq yashil ekanligini aniqlang.

5. \*\* Bangidevona o'simligida gulning qizil rangi uning oqligiga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada, geterozigota holatda gulning rangi qirmizi bo'ladi. O'simlik mevasi sirtining tikanliligi tekisligiga nisbatan to'la dominantlik qiladi. Qirmizi gulli va tikanli mevaga ega bo'lgan o'simliklar chatishtirilishi natijasida olingan  $F_1$  avlod ichida tekis mevali o'simliklar uchragan. Agar  $F_1$  da 960 ta o'simlik olingani ma'lum bo'lsa, olingan o'simliklarning nechtasi qizil gulli ekanligini aniqlang.

6. \*\* Bangidevona o'simligida gulning qizil rangi uning oqligiga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada, geterozigota holatda gulning rangi qirmizi bo'ladi. O'simlik mevasi sirtining tikanliligi tekisligiga nisbatan to'la dominantlik qiladi. Qirmizi gulli va tikanli mevaga ega bo'lgan o'simliklar chatishtirilishi natijasida olingan  $F_1$  avlod ichida tekis mevali o'simliklar uchragan. Agar  $F_1$  da 960 ta o'simlik olingani ma'lum bo'lsa, olingan o'simliklarning nechtasining mevasi tekis va tikansiz ekanligini aniqlang.

7. \* Bangidevona o'simligida gulning qizil rangi uning oqligiga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada, geterozigota holatda gulning rangi qirmizi bo'ladi. O'simlik mevasi sirtining tikanliligi tekisligiga nisbatan to'la dominantlik qiladi. Qirmizi gulli va tikanli mevaga ega bo'lgan o'simliklar chatishtirilishi natijasida olingan  $F_1$  avlod ichida tekis mevali o'simliklar uchragan. Agar  $F_1$  da 960 ta o'simlik olingani ma'lum bo'lsa,  $F_1$  da genotip va fenotip bo'yicha ajralish nisbatlarini aniqlang.

8. Bulg'or garmdorilarining qizil va yashil, yupqa va qalin etli xillari bo'ladi. Qizil rangi boshqaruvchi gen dominant, yupqa etli bo'lishi retsessiv genga bog'liq. Ikki gen ham ham xil autosoma xromosomalarida joylashgan.

Agar geterozigotali qizil va qalin po'stli garmdorini ikki belgisi bo'yicha retsessiv xili bilan chatishtirolsa,  $F_1$  da qanday genotipga ega bo'lgan organizmlar olinadi?

9. Bulg'or garmdorilarining qizil va yashil, yupqa va qalin etli xillari bo'ladi. Qizil rangi boshqaruvchi gen dominant, yupqa etli bo'lishi retsessiv genga bog'liq. Ikki gen ham har xil autosoma xromosomalarida joylashgan. Ota-onha o'simliklarining genotipi qanday bo'lganda avlodda 1:1:1:1 nisbatda ajralish olinadi?

10. Itog'iz o'simligining gullari shakli normal (ikki bo'lakka bo'lingan) va qo'shilgan bo'ladi. Ranglari bo'yicha qizil, pushti va oq rangli bo'ladi. Ikkala juft belgini yuzaga chiqaruvchi genlar turli xil xromosomalarda joylashgan bo'lib, normal shakl qo'shilgan shaklga nisbatan dominantlik qiladi. Pushti rang esa qizil va oq gullarni chatishitriganda namoyon bo'ladi. Pushti rang, shakli ikkiga bo'lingan va har ikkala belgisi bo'yicha geterozigotali itog'iz o'simliklari chatishtirolganda fenotipda qanday ajralish namoyon bo'ladi, nechta fenotipik sinf hosil bo'ladi?

11. Itog'iz o'simligining gullarini shakli normal (ikki bo'lakka bo'lingan) va qo'shilgan bo'ladi. Ranglari bo'yicha qizil, pushti va oq rangli bo'ladi. Ikkala juft belgini yuzaga chiqaruvchi genlar turli xil xromosomalarda joylashgan bo'lib, normal shakl qo'shilgan shaklga nisbatan dominantlik qiladi. Pushti rang esa qizil va oq gullarni chatishitriganda namoyon bo'ladi. Pushti rang, shakli ikkiga bo'lingan va har ikkala belgisi bo'yicha geterozigotali itog'iz o'simliklari chatishtirolganda normal shaklga ega bo'lgan o'simliklarning necha % pushti gulli bo'ladi?

12. G'o'za o'simligida hosil shoxi cheklanmagan va cheklangan tipda, tola rangi esa qo'ng'ir va oq bo'ladi. Shoxning cheklanmagan tipda bo'lishligi cheklangan tipda bo'lishligi ustidan to'liq, tolaning qo'ng'ir rangda bo'lishligi esa oq rangi ustidan to'liqsiz dominantlik qiladi. Gomozigota cheklanmagan shoxli, qo'ng'ir tolali g'o'za o'simliklari cheklangan shoxli, oq tololi o'simliklari bilan chatishtirolganda  $F_1$  da olingen o'simliklarning hammasi cheklanmagan shoxli va tolesi novvotrang bo'lgan.  $F_1$  o'simliklari o'z-o'ziga chatishtirolib, keyingi avlod olinsa, ularning fenotipi qanday bo'ladi? Fenotipik sinflarning nisbatini aniqlang?

13. Itlar yungining qora rangi jigarrang ustidan, kalta yungi uzun yungidan to'liq dominantlik qiladi. Ikkala juft genlar har xil autosoma xromosomalarda joylashgan. Ovchi qora va kalta yungli itlarni

ko'paytirish maqsadida xuddi shunday fenotipli itlarni chatishtirgan. Lekin ularning avlodidagi kuchukchalarning ma'lum qismigina qora, kalta yungli bo'lgan. Qolganlari esa qora uzun yungli yoki jigarrang uzun yungli bo'lgan. Chatishtirish uchun olingan itlarning genotipini aniqlang.

14. Boshog'i qiltanoqsiz, qizil bo'lgan bug'doy navlari boshog'i qiltanoqli, oq navlar bilan chatishtirilganda  $F_1$  da olingan o'simliklar qiltanoqsiz va qizil boshoqli bo'lgan.  $F_2$  da esa quyidagicha ajralish namoyon bo'lgan: 159 ta qiltanoqsiz, qizil; 48 ta qiltanoqsiz, oq; 54 ta qiltanoqli, qizil; 16 ta qiltanoqli, oq boshoqli o'simliklar olingan.  $F_2$  dagi o'simliklarining necha foizi digeterozigotali?

15. Qoramollarda shoxsizlik belgisi, shoxlilik belgisi ustidan, junining qora rangda bo'lishi qizil rangda bo'lishi ustidan dominantlik qiladi. Bu berilgan 2 just belgi har xil xromosomalarda joylashgan. Naslchilik xo'jaligida bir necha yillar davomida qora shoxsiz sigir qora shoxsiz buqalar bilan chatishtirilishi natijasida olingan 896 ta buzoqlardan 504 tasi qora shoxsiz, 168 tasi qizil shoxsiz bo'lgan. Olingan buzoqlar orasida qanchasi shoxli va qanchasi qizil rangda ekanligi aniqlang.

16. No'xatning uzun poyali, oq gultojbargli formasi kalta poyali qizil gultojbargli formasi bilan chatishtirildi. Bunda  $F_1$  da 850 ta uzun poyali qizil gulli o'simlik hosil bo'ldi.  $F_2$  da hosil bo'lgan 1360 ta o'simlikdan nechtaси uzun poyali qizil gultojbargli?

17. Itlarda jun rangining qora bo'lishi jigarrang ustidan, kalta bo'lishi uzun bo'lishi ustidan to'liq dominantlik qiladi. Har ikkala belgining rivojlanishini ta'minlovchi genlar boshqa-boshqa xromosomalarda joylashgan. Agar digeterozigotali qora va kalta junli itlar o'zaro chatishtirilganda keyingi avlodda olingan kuchukchalarning necha foizi jigarrang, kalta junli bo'ldi?

18. \*\* Parrandalarda pat qoplamasining qora rangi A, qo'ng'ir bo'lishi a geni orqali irlaylanadi. Tojli yoki tojsiz ekanligini belgilovchi gen ham autosoma orqali irlaylanadi. Bu genlar har xil autosoma xromosomalarda joylashgan. Qo'ng'ir rangli tojdor xo'roz, tojsiz qora rangli tovuq bilan chatishtirildi. Ulardan 50 % qora va 50 % qo'ng'ir rangli jo'jalalar olindi, jo'jalarning barchasi tojli bo'lgan. Chatishtirilgan tovuq va xo'rozning genotipini aniqlang.

19. \*\* Bir xil rangdagи qurtlar beruvchi pillsasining rangi sariq bo'lgan hamda yo'l-yo'l tusdagи qurtlar beruvchi pillsasining rangi oq bo'lgan tut ipak qurti zotlari chatishtirildi. Birinchi bo'g'inda qolning qurtlarning

hammasi yo'l-yo'l tusli va sariq pillali bo'ldi. Ikkinchchi bo'g'inda esa belgilarning ajralishi kuzatilib, 11040 ta qurtlar olindi. Shulardan taxminan nechtaси yo'l-yo'l tusli ekanligini aniqlang.

20. \*\* Bir xil rangdagи qurtlar beruvchi pillasining rangi sariq bo'lgan hamda yo'l-yo'l tusdagи qurtlar beruvchi pillasining rangi oq bo'lgan tut ipak qurti zotlari chatishdirildi. Birinchi bo'g'inda olingan qurtlarning hammasi yo'l-yo'l tusli va sariq pillali bo'ldi. Ikkinchchi bo'g'inda esa belgilarning ajralishi kuzatilib, 11040 ta qurtlar olindi. Shulardan taxminan nechtaси oq pillali ekanligini aniqlang.

21. Tarvuz mevasining rangi yashil va yo'l-yo'l, shakli uzunchoq va yumaloq bo'ladı. Gomozigota uzunchoq yashil mevali tarvuz o'simligi yumaloq yo'l-yo'l mevali o'simlik bilan chatishdirildi.  $F_1$  da yumaloq yashil mevali o'simliklar olingan.  $F_2$  da esa jami 1200 ta o'simlik olingan. Olingan o'simliklarning nechtaси yumaloq, nechtaси yashil ekanligini aniqlang.

22. Tarvuz mevasining rangi yashil va yo'l-yo'l, shakli uzunchoq va yumaloq bo'ladı. Gomozigota uzunchoq yashil mevali tarvuz o'simligi yumaloq yo'l-yo'l mevali o'simlik bilan chatishdirildi.  $F_1$  da yumaloq yashil mevali o'simliklar olingan.  $F_2$  da esa jami 1200 ta o'simlik olingan. Olingan o'simliklarning genotip (1) va fenotip (2) jihatdan  $F_1$  duragaylariga o'xshashligini aniqlang.

23. \*\* Odamda qulogda erkin solinchak bo'lishi va iyakning uchburchak-chuqurchali ekanligi dominant belgilar hisoblanadi. Ular qulogda erkin solinchak bo'lmasiлиgi va iyakning silliqligiga nisbatan to'la dominantlik qiluvchi belgilar hisoblanib, har xil autosomalarda joylashgan bo'lib, mustaqil taqsimlanish xususiyatiga ega.

Ayolning qulog'i erkin solinchakli va uning iyagi silliq, erkakning qulog'ida solinchak yo'q, iyagi chuqurchali (uning onasining iyagi silliq bo'lgan). Bu oilada xuddi otasiga o'xshash fenotipga ega bo'lgan qiz tug'ilgan. Keyingi farzandning iyagi silliq bo'lib tug'ilish ehtimolini toping.

24. \*\* Odamda qulogda erkin solinchak bo'lishi va iyakning uchburchak-chuqurchali ekanligi dominant belgilar hisoblanadi. Ular qulogda erkin solinchak bo'lmasiлиgi va iyakning silliqligiga nisbatan to'la dominantlik qiluvchi belgilar hisoblanib, har xil autosomalarda joylashgan, mustaqil taqsimlanish xususiyatiga ega.

Ayolning qulog'i erkin solinchakli va uning iyagi silliq, erkakning qulog'ida solinchak yo'q, iyagi chuqurchali (uning onasining iyagi silliq bo'lgan). Bu oilada xuddi otasiga o'xshash fenotipga ega bo'lgan qiz

tug'ilgan. Keyingi farzandning xuddi onasiga o'xshash fenotipga ega bo'lib tug'ilish ehtimolini toping.

25. \*\* Ota to'lqinsimon sochli, sepkilsiz, ona esa seckilli (ayolning otasida seckillar bo'limgan) bo'lib, uning ham sochlari to'lqinsimon. Ota-oni va bu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning fenotipi va genotipini aniqlang (jingalak soch silliq sochlarga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada geterozigota holatda to'lqinsimon soch yuzaga keladi. Sepkillarning bo'lishi ularning bo'lmasligi ustidan to'la dominantlik qiladi).

26. Ota to'lqinsimon sochli, sepkilsiz, ona esa seckilli (ayolning otasida seckillar bo'limgan) bo'lib, uning ham sochlari to'lqinsimon. Ota-oni va bu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan to'lqinsimon sochli farzandlarning ehtimolini (%) aniqlang (jingalak soch silliq sochlarga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada geterozigota holatda to'lqinsimon soch yuzaga keladi. Sepkillarning bo'lishi ularning bo'lmasligi ustidan to'la dominantlik qiladi).

27. Ota to'lqinsimon sochli, sepkilsiz, ona esa seckilli (ayolning otasida seckillar bo'limgan) bo'lib, uning ham sochlari to'lqinsimon. Bu oilada jingalak sochli farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang (jingalak soch silliq sochlarga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada geterozigota holatda to'lqinsimon soch yuzaga keladi. Sepkillarning bo'lishi ularning bo'lmasligi ustidan to'la dominantlik qiladi).

28. Ota to'lqinsimon sochli, sepkilsiz, ona esa seckilli (ayolning otasida seckillar bo'limgan) bo'lib, uning ham sochlari to'lqinsimon. Bu oilada silliq sochli sepkilsiz farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang (jingalak soch silliq sochlarga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada geterozigota holatda to'lqinsimon soch yuzaga keladi. Sepkillarning bo'lishi ularning bo'lmasligi ustidan to'la dominantlik qiladi).

29. \*\* Bolaning qon guruhi AB, rezus omili mansiy, opasining qon guruhi 0 va unda rezus omil musbat. Ota-onaning qon guruhi va rezus omilini aniqlang. (rezus musbat manfiyga nisbatan dominant belgi. Bu oilada gemolitik kasallikning hech qachon uchramaganligiga e'tiboringizni qarating)

30. \* Odamda qo'y ko'zlik va o'naqaylik dominant. Erkak ko'k ko'z, o'naqay bo'lib, uning onasi chapaqay bo'lgan. Ayol ko'k ko'z va o'naqay bo'lgan turmushdan ko'k ko'z, chapaqay bola tug'ilishi ehtimolini toping. Bu oilada oldin ko'k ko'z chapaqay bola tug'ilgan.

31. Odamda qo'y ko'zlik va o'naqaylik dominant. Erkak ko'k ko'z va o'naqay (uning onasi chapaqay bo'lgan), ayol qo'yko'z va o'naqay bo'lgan turmushdan gomozigotali ko'k ko'z, o'naqay bola tug'ilishi ehtimolini toping (Bu oilada oldin ko'k ko'z chapaqay bola tug'ilgan).

32. Ikkita qovoq o'simligi ustida chatishtrish ishlari olib borilganda avlodda 18 ta oq disksimon, 6 ta oq sharsimon, 2 ta sariq sharsimon mevalar olindi. Avlodda qancha sariq disksimon mevalar olingan (%).

33. Qoramolda shoxsizlik shoxlilik ustidan dominantlik qiladi. Terining qora rangi, ola-bula rangga nisbatan ustunlik qiladi. Agar ikki belgisi bo'yicha geterozigotali ota-onalar chatishtrilsa, hosil bo'lgan individlar orasida genotip jihatdan ota-onasiga o'xshashlari necha %ni tashkil qiladi? Necha qismi ola-bula rangga ega bo'ladi?

34. \*\* Talassemiya va o'roqsimon anemiya autosoma orqali chala dominant belgilari sifatida nasldan naslga o'tadi. Har ikkala belgida ham dominant gomozigotilar nobud bo'ladi, geterozigotalilarda kasallik yengil o'tadi. Erkak faqat birinchi belgisi bo'yicha geterozigota, ayol esa faqat ikkinchi belgisi bo'yicha geterozigota bo'lgan oilada farzandlarning necha %i sog'lom bo'lib tug'iladi va ularning genotipi qanday bo'ladi?

35. O'rmon yertutida mevasining qizil rangi va kosachabargining to'g'riliqi chala dominantlik qiladi. Digeterozigotali organizmlar chatishtirilganda  $F_1$ da fenotip bo'yicha ajralish nisbati va genotipik sinflar soni qanday bo'ladi?

36. \*\* Odamda talassemiya (A) chala dominant holatda irsiylanadi. Dominant gomozigotalar erta halok bo'ladi. Geterozigotalar esa yashaydi. O'roqsimon anemiya retsessiv gomozigota holatda halok bo'ladi. Geterozigota holatda kasallik yengil kechadi. Digeterozigota ota-onadan tug'iladigan farzandlarning necha %i o'roqsimon anemiya bilan kasallangan?

37. \*Odamda talassemiya to'liqsiz dominant belgi sifatida irsiylanadi. Gomozigota dominant holatda nobud bo'ladi. Geterozigota holatda yashaydi, kasallik yengil kechadi. O'roqsimon anemiya retsessiv holda irsiylanadigan va o'limga olib keluvchi kasallik hisoblanadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tadi. Agar ota-onal bu belgilari bo'yicha geterozigotali bo'lsa, bolalarning necha foizi ikkala anomaliya bilan kasallangan bo'lib tug'iladi?

38. Qoramtil, jingalak sochli, faqat birinchi belgisi bo'yicha geterozigotali ayol, qoramtil, silliq sochli, lekin birinchi belgisi bo'yicha

geterozigota yigit bilan turmush qurban. Ushbu oilada tug'iladigan farzandlarning fenotip va genotiplarini aniqlang (silliq soch – retsessiv).

39. G'o'za o'simligida hosil shoxi cheklanmagan va cheklangan tipda, tola rangi esa qo'ng'ir va oq bo'ladi. Shoxning cheklanmagan tipda bo'lishi cheklangan tipda bo'lishi ustidan to'liq, tolaning qo'ng'ir rangda bo'lishi esa oq rangi ustidan to'liqsiz dominantlik qiladi. Gomozigota cheklanmagan shoxli, qo'ng'ir tolali g'o'za o'simliklari cheklangan shoxli, oq tolali o'simliklari bilan chatishirilganda F<sub>1</sub> da olingan o'simliklarning hammasi cheklanmagan shoxli va tolesi novvotrang bo'lgan. F<sub>1</sub> o'simliklari o'z-o'ziga chatishirilib, keyingi avlod olinsa, ularda genotipik sinflarning nisbatini aniqlang?

40. Har ikkala belgisi bo'yicha geterozigota qora ko'zli va besh barmoqli erkak (lekin yoshligida ortiqcha barmog'i olib tashlangan) ko'k ko'zli, besh barmoqli ayolga uylangan. Ushbu nikohdan ko'k ko'zli va olti barmoqli bola tug'ilishi ehtimoli qanday?

41. \*\* Fruktozuriyaning ikki xil formasi mavjud. Birinchisi klinik belgilarsiz kechuvchi sindrom hisoblansa, ikkinchisi aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolishga olib keladi. Har ikkala turi ham bir-biri bilan birikmagan, autosoma orqali irlsiyanuvchi retsessiv belgilari hisoblanadi. Ota-onadan birining siyidigi tarkibida fruktozaning miqdori yuqori ekanligi aniqlandi, unda fruktozuriya klinik belgilarsiz kechadi, lekin ikkinchi belgisi bo'yicha geterozigota. Ota-onalardan ikkinchisi esa vaqtida fruktozuriyaning 2-formasi bo'yicha davolangan, lekin klinik belgilarsiz kechuvchi formasi bo'yicha geterozigota. Bu oilada fruktozuriyaning faqat bir forinasi bilan kasallangan bolalar tug'ilish ehtimolini toping.

42. \*\* Parrandalarda oyoqning patli (B) bo'lishi patsizligi ustidan, no'xatsimon toj (R) oddiy toj (r) ustidan to'liq dominantlik qiladi.

Ikkita «A» va «B» xo'rozlar va «C», «D» tovuqlar chatishirildi. To'rttalasi ham oyoqlari patli, toji no'xatsimon edi. Xo'roz «A» shu ikkala tovuq bilan chatishirilganda faqat tojlari no'xatsimon, oyoqlari patli bo'lgan jo'jalar olindi. Xo'roz «B» «C» tovuq bilan chatishirilganda faqat no'xatsimon tojli, oyoqlari esa patli va patsiz bo'lgan jo'jalar olindi. «D» tovuq bilan «B» xo'roz chatishirilganda esa no'xatsimon va oddiy tojli jo'jalar olingan hamda ularning hammasining oyog'i patli bo'lgan. «A» xo'rozning genotipini aniqlang.

43. \*\* Parrandalarda oyoqning patli (B) bo'lishi patsizligi ustidan, no'xatsimon toj (R) oddiy toj (r) ustidan to'liq dominantlik qiladi.

Ikkita «A» va «B» xo'rozlar va «C», «D» tovuqlar chatishtirildi. To'rttalasi ham oyoqlari patli, toji no'xatsimon edi. Xo'roz A shu ikkala tovuq bilan chatishtirilganda faqat tojlari no'xatsimon, oyoqlari patli bo'lgan jo'jalar olindi. Xo'roz «B», «C» tovuq bilan chatishtirilganda faqat no'xatsimon tojli, oyoqlari esa patli va patsiz bo'lgan jo'jalar olindi. «D» tovuq bilan «B» xo'roz chatishtirilganda esa no'xatsimon va oddiy tojli jo'jalar olingan hamda ularning hammasining oyog'i patli bo'lgan. «B» xo'rozning genotipini aniqlang.

44. \*\* Fruktozuriyaning ikki xil formasi mavjud. Birinchisi klinik belgilarsiz kechuvchi sindrom hisoblansa, ikkinchisi aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolishga olib keladi. Har ikkala turi ham bir-biri bilan birikmagan, autosoma orqali irsiylanuvchi retsessiv belgilari hisoblanadi. Ota-onadan birining siyidigi tarkibida fruktozaning miqdori yuqori ekanligi aniqlandi, unda fruktozuriya klinik belgilarsiz kechadi, lekin ikkinchi belgisi bo'yicha geterozigota. Ota-onalardan ikkinchisi esa vaqtida fruktozuriyaning 2-formasi bo'yicha davolangan, lekin klinik belgilarsiz kechuvchi formasi bo'yicha geterozigota. Bu oilada fruktozuriyaning faqat klinik belgilari namoyon bo'luchchi formasi bilan kasallangan bolalar tug'ilish ehtimolini toping.

45. \*\* Parrandalarda oyoqning patli (B) bo'lishi patsizligi ustidan, no'xatsimon toj (R) oddiy toj (r) ustidan to'liq dominantlik qiladi.

Ikkita «A» va «B» xo'rozlar va «C», «D» tovuqlar chatishtirildi. To'rttalasi ham oyoqlari patli, toji no'xatsimon edi. Xo'roz «A» shu ikkala tovuq bilan chatishtirilganda faqat tojlari no'xatsimon, oyoqlari patli bo'lgan jo'jalar olindi. Xo'roz «B» «C» tovuq bilan chatishtirilganda faqat no'xatsimon tojli, oyoqlari esa patli va patsiz bo'lgan jo'jalar olindi. «D» tovuq bilan «B» xo'roz chatishtirilganda esa no'xatsimon va oddiy tojli jo'jalar olingan hamda ularning hammasining oyog'i patli bo'lgan. «C» tovuqning genotipini aniqlang.

46. \*\* Parrandalarda oyoqning patli (B) bo'lishi patsizligi ustidan, no'xatsimon toj (R) oddiy toj (r) ustidan to'liq dominantlik qiladi.

Ikkita «A» va «B» xo'rozlar va «C», «D» tovuqlar chatishtirildi. To'rttalasi ham oyoqlari patli, toji no'xatsimon edi. Xo'roz «A» shu ikkala tovuq bilan chatishtirilganda faqat tojlari no'xatsimon, oyoqlari patli bo'lgan jo'jalar olindi. Xo'roz «B» «C» tovuq bilan chatishtirilganda faqat no'xatsimon tojli, oyoqlari esa patli va patsiz bo'lgan jo'jalar olindi. «D» tovuq bilan «B» xo'roz chatishtirilganda esa no'xatsimon va oddiy

tojli jo'jalar olingen hamda ularning hammasining oyog'i pathi bo'lgan. «D» tovuqning genotipini aniqlang.

47. \*\* Glaukomaning bir nechta yo'l bilan irsiylanadigan formalari mavjud. Birinchi formasi autosoma dominant, ikkinchi formasi – retsessiv, bu formasi ham autosoma orqali, lekin birinchi forma bilan birikmagan holda irsiylanadi. Agar ota-onaning ikkalasi ham kasallikning har ikkala formasi bo'yicha geterozigota bo'lsa, bu oilada farzandlarning glaukoma bilan kasallangan bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha?

48. \* Glaukomaning bir nechta yo'l bilan irsiylanadigan formalari mavjud. Birinchi formasi autosoma dominant, ikkinchi formasi – retsessiv, bu formasi ham autosoma orqali, lekin birinchi forma bilan birikmagan holda irsiylanadi. Agar ota-onaning ikkalasi ham kasallikning har ikkala formasi bo'yicha geterozigota bo'lsa, bu oilada farzandlarning glaukomaning saqat bir turi bilan kasallangan bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha?

49. \*\* Glaukomaning bir nechta yo'l bilan irsiylanadigan formalari mavjud. Birinchi formasi autosoma dominant, ikkinchi formasi – retsessiv, bu formasi ham autosoma orqali, lekin birinchi forma bilan birikmagan holda irsiylanadi. Agar ota-onaning ikkalasi ham kasallikning har ikkala formasi bo'yicha geterozigota bo'lsa, bu oilada farzandlarning glaukomaning har ikkala turi bilan kasallanib, har ikkala anomaliya bo'yicha sog'lom tug'ilish ehtimoli qancha?

50. Odamlarda yaqinni ko'ra olishning ayrim formalari normal ko'rishga nisbatan, ko'zning jigarrangi ko'k ko'zlikka nisbatan dominantlik qiladi. Ota-onha har ikki belgi bo'yicha geterozigotali bo'lsa, bu oilada farzandlarning sog'lom bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha (%)?

51. \*\* Odamlarda yaqinni ko'ra olishning ayrim formalari normal ko'rishga nisbatan, ko'zning jigarrangi ko'k ko'zlikka nisbatan dominantlik qiladi. Ota-onha har ikki belgi bo'yicha geterozigotali bo'lsa, bu oilada jigarrang ko'zli farzandlarning sog'lom bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha (%)?

52. Sariq (A) va silliq (B) no'xatlarni shunday belgili no'xat bilan chatishirish natijasida avlodda uchta sariq silliq, bitta sariq burishgan donli o'simliklar hosil bo'lgan. Qaysi chatishirish (lar)dan ushbu ajralish olinadi?

53. Sariq (A) va burishgan (b) no'xatlarni sariq, silliq belgili no'xat bilan chatishirilganda avlodda uchta sariq silliq, uchta sariq burishgan.

bitta yashil silliq, bitta yashil burishgan donli o'simliklar hosil bo'lgan. Qaysi chatishtrishdan ushbu ajralish olinadi?

54. Sariq (A) va silliq (B) no'xatlarni sariq, burishgan belgili no'xat bilan chatishtirilganda avlodda bitta sariq silliq, bitta sariq burishgan donli o'simliklar hosil bo'lgan. Qaysi chatishtrishdan ushbu ajralish olinadi?

1) AAbb x AABB; 2) Aabb x AABb; 3) AaBb x Aabb.

55. Bangidevonaning qizg'ish poyali (A), qizil mevali (B) xili yashil poyali, qizil mevali bilan chatishtirilganda avlodda 231 ta qizg'ish poyali, sariq mevali va 693 ta qizg'ish poyali, qizil mevalilar hosil bo'lgan. Ota-onanining genotipini aniqlang.

56. Bangidevonaning qizg'ish poyali (A), qizil mevali (B) xili yashil poyali, qizil mevali bilan chatishtirilganda avlodda 231 ta qizg'ish poyali, sariq mevali va 693 ta qizg'ish poyali, qizil mevalilar hosil bo'lgan. Genotip bo'yicha qanday ajralish olingan?

57. Bangidevonaning qizg'ish poyali (A), qizil mevali (B) xili yashil poyali, qizil mevali bilan chatishtirilganda avlodda 231 ta qizg'ish poyali, sariq mevali va 693 ta qizg'ish poyali, qizil mevalilar hosil bo'lgan. Avlodda olingan duragaylar qanday genotipga ega bo'ladi.

58. Bangidevonaning qizg'ish poyali (A), qizil mevali (B) xili yashil poyali, qizil mevali bilan chatishtirilganda avlodda 231 ta qizg'ish poyali, sariq mevali va 693 ta qizg'ish poyali, qizil mevalilar hosil bo'lgan. Avlodda olingan qizg'ish poyali, qizil mevalilarning nechтasi 2 ta belgi bo'yicha geterozigotali bo'lgan.

59. Qora rangli, paxmoq junli ona quyon birinchi belgisi bo'yicha geterozigotali bo'lib, oq rangli, paxmoq ikkinchi belgisi bo'yicha geterozigota ota quyon bilan chatishtirildi. F<sub>1</sub> dagi organizmlar genotip va fenotiplarining nisbati qanday bo'ladi?

60. \*\* Albinizmning har xil irlsiy shakllari bo'lib, ulardan biri qisman albinizm autosoma-dominant tipda, ikkinchi xili to'liq albinizm autosoma retsessiv tipda nasldan naslga o'tadi. Agarda ota-onalardan birining genotipi digeterozigotali bo'lib, qisman albinizm bilan kasallangan, ikkinchisi to'liq albinizm bilan kasallangan bo'lib, uning avlodida qisman albinizm hech qachon kuzatilmagan bo'lsa, shu oilada 1) to'liq albinizm bo'yicha kasal; 2) har ikkala turi bo'yicha kasallangan farzandlarning tug'ilish ehtimolini toping.

61. \*\* Albinizmning har xil irlsiy shakllari bo'lib, ulardan biri qisman albinizm autosoma-dominant tipda, ikkinchi xili to'liq albinizm autosoma

retsessiv tipda nasldan naslga o'tadi. Agarda ota-onalardan birining genotipi digeterozigotali bo'lib, qisman albizm bilan kasallangan, ikinchisi to'liq albinizm bilan kasallangan bo'lib, uning avlodida qisman albinizm hech qachon kuzatilmagan bo'lsa, shu oilada 1) qisman albinizm bo'yicha kasal; 2) albizm bo'yicha sog'lom farzandlarning tug'ilish ehtimolini toping.

62. \*\* Odamda ko'rlikning bir necha turlari ma'lum bo'lib, ularning ikki shakli autosomalar orqali irsiylanuvchi retsessiv gen kasalliklari hisoblanadi. Har ikkala turni irsiylantirib keluvchi genlar turli xil xromosomalarda joylashgan. Erkak va ayolning har ikkalasi ko'rlikning faqat bir turi bilan (ayol I turi, erkak II turi) kasallanib, boshqa turi bo'yicha geterozigotali bo'lgan oilada kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

63. \*\* Odamda ko'rlikning bir necha turlari ma'lum bo'lib, ularning ikki shakli autosomalar orqali irsiylanuvchi retsessiv gen kasalliklari hisoblanadi. Har ikkala turni irsiylantirib keluvchi genlar turli xil xromosomalarda joylashgan. Erkak va ayolning har ikkalasi ko'rlikning faqat bir turi bilan (ayol I turi, erkak II turi) kasallanib, boshqa turi bo'yicha geterozigotali bo'lgan oilada sog'lom farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

64. Kulrang silliq yungli mushuk bilan qora hurpaygan yungli mushuk o'zaro chatishtirilganida ulardan ko'p yillar mobaynida faqatgina kulrang silliq yungli mushuklar olingan.  $F_1$  da olingan mushuklar o'zaro chatishtirilganida 240 ta mushukchalar olinganligi ma'lum bo'lsa, ularning taxminan nechtasi hurpaygan yungli?

65. Kulrang silliq yungli mushuk bilan qora hurpaygan yungli mushuk o'zaro chatishtirilganida ulardan ko'p yillar mobaynida faqatgina kulrang silliq yungli mushuklar olingan.  $F_1$  da olingan mushuklar o'zaro chatishtirilganida  $F_2$  da olingan kulrang silliq yungli mushulkarda nechta genotipik sind uchragan?

66. Oq gardishsimon mevali oshqovoq o'simligini oq yumaloq mevali o'simlik bilan chatishtirilganida 38 ta oq gardishsimon mevali, 36 tasi oq yumaloq, 13 tasi sariq gardishsimon, 12 tasi sariq yumaloq o'simlik olindi. Ota-onaning genotipini aniqlang.

67. Oq gardishsimon mevali oshqovoq o'simligini oq yumaloq mevali o'simlik bilan chatishtirilganida olingan o'simlikning 38 tasi oq gardishsimon mevali, 36 tasi oq yumaloq, 13 tasi sariq gardishsimon, 12

tasi sariq yumaloq bo'ldi. Gardishsimon mevali o'simliklardan taxminan necha %i digeterozigotali (mevaning oq rangi sariq rangi ustidan, gardishsimon shakli yumaloq shakli ustidan to'la dominantlik qiladi)?

68. Oq gardishsimon mevali oshqovoq o'simligini oq yumaloq mevali o'simlik bilan chatishtirilganida olingen o'simlikning 74 tasi oq gardishsimon mevali, 72 tasi oq yumaloq bo'ldi. Ota-onaning genotipini aniqlang.

### POLIDURAGAY CHATISHTIRISH

Bir necha just alternativ belgilar bo'yicha farq qiluvchi organizmlarning chatishtirishga poliduragay chatishtirish deyilib, chatishtirishning ushbu turida  $F_2$  avlodda xilma-xillik yanada murakkablashadi. Ularni tahlil qilish uchun ham Mendel qonunlaridan samarali foydalaniлади. Bunday murakkab irsiylanish negizida agar to'liq holda irsiylanish bo'lsa, fenotipda 3:1 nisbatda ajralish yotadi. Bu ajralish formulasini agar diduragay bo'lsa ( $3:1$ )<sup>2</sup>, triduragay uchun ( $3:1$ )<sup>3</sup> poliduragay uchun ( $3:1$ )<sup>n</sup> shaklida, qisqartirilgan fenotipik sinflarni topish formulasini  $2^n$  holatida ifodalash mumkin. Agar oraliq holda irsiylanish holatlari kuzatilsa, fenotipik sinflarni topishning formulasasi ( $1:2:1$ )<sup>n</sup> ( $3:1$ )<sup>n</sup> yoki  $3^n \cdot 2^n$  tarzida ifodalash mumkin. Bu yerda  $y$ -to'liqsiz dominant tipida irsiyanuvchi belgilar soni,  $n$ -to'liq dominant tipida irsiyanuvchi belgilar soni, 2 va 3 soni o'zgarmas sonlar hisoblanadi. Quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar genetikada mono, di, poliduragaya oid masalalar yechishda qo'l keladi, degan umiddamiz.

Allel juftlar soni	Gameta xillari soni	Gametalarning kombinatsiya lanish soni	Genotipik sinflar soni	Fenotipik sinflar soni	Ajralishning fenotipik formulasasi (to'liq dominantlik)
1	$2^1=2$	$4^1=4$	$3^1=3$	$2^1=2$	$(3:1)^1=3:1$
2	$2^2=4$	$4^2=16$	$3^2=9$	$2^2=4$	$(3:1)^2=9:3:3:1$
3	$2^3=8$	$4^3=64$	$3^3=27$	$2^3=8$	$(3:1)^3=27:9:9:9:3:3:3:1$
4	$2^4=16$	$4^4=256$	$3^4=81$	$2^4=16$	$(3:1)^4=81:27:27:27:27:27:9:9:9:9:9:3:3:3:1$
$n$	$2^n$	$4^n$	$3^n$	$2^n$	$(3:1)^n$

## Poliduragay chatishtirishga doir masalalar va topshiriqlar

1. \*\* Odamlarda ko'zning qora (Q), yuzda sepkil (S) bo'lishi va polidaktiliya (P) dominant, ko'zning ko'k (q), barmoqlarning normal bo'lishi (p), sepkil yo'qligi (s) retsessiv belgilar hisoblanadi. Tubandagi genotipli erkak va ayollardan a)ko'k ko'zli, seckilli, polidaktiliya farzandlar b) qora ko'z, sepkilsiz, 5 barmoqli farzandlarning tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

- |                    |                    |
|--------------------|--------------------|
| 1. QqSsPp x qqsspp | 2. QqSSPp x qqsspp |
| 3. QQSSPP x QqSSPp | 4. QqSSPp x qqssPp |

2. To'lqinsimon sochli, ko'zlar oralig'i va og'iz kattaligi o'ttacha bo'lgan erkak va ayol nikohidan jingalak sochli, ko'zlar oralig'i uzoq, og'iz kattaligi kichik farzand tug'ildi. Keyingi farzandlarining silliq sochli, ko'zlar oralig'i qisqa, og'iz kattaligi kichik bo'lib tug'ilishi ehtimolini aniqlang (%).

3. \*\* Tovuqlarning gomozigota oyog'ida pati bor, oddiy tojli va oq patli formasi gomozigota oyog'ida pati yo'q, gulsimon tojli va qora patli xo'roz bilan chatishtirilgan (oyoqlarida patning bo'lishi, gulsimon toj va oq rang dominant belgilar hisoblanadi).  $F_2$  da gulsimon tojli organizmlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang (%).

4. Sulida poyaning balandligi, kechpisharlik va zang zamburug'iga chidamsizlik poyaning normalligi, ertapisharlik, zang zamburug'iga chidamlilik belgilariga nisbatan retsessivdir. Baland poyali, kechpishar, zang zamburug'iga chidamsiz suli navi barcha belgilar bo'yicha gomozigota normal, ertapishar, zangga chidamli navi bilan chatishtirilishi natijasida olingan  $F_1$  durugaylarni barcha belgilari bo'yicha dominant gomozigota bo'lgan ota forma bilan chatishtirish natijasida 472 ta o'simlik olingan. Olingan o'simliklar orasida fenotipi  $F_2$  ga o'xshash o'simliklar qancha bo'lishi mumkin?

5. Sulida poyaning balandligi, kechpisharlik va zang zamburug'iga chidamsizlik poyaning normalligi, ertapisharlik, zang zamburug'iga chidamlilik belgilariga nisbatan retsessivdir. Baland poyali, kechpishar, zang zamburug'iga chidamsiz suli navi barcha belgilar bo'yicha gomozigota normal, ertapishar, zangga chidamli navi bilan chatishtirilishi natijasida olingan  $F_1$  durugaylarni barcha belgilari bo'yicha dominant gomozigota bo'lgan ota forma bilan chatishtirish natijasida 472 ta o'simlik olingan. Olingan o'simliklar orasida nechta genotipik sind uchraydi?

6. Odamlarda ko'zning qo'ng'ir rangda bo'lishi, sochning jingalak shaklda bo'lishi dominant belgi, barmoqlarning normal, ya'ni 5 ta bo'lishi retsessiv belgi. Ushbu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar har xil just xromosomalarda joylashgan bo'lib, bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Ko'zlarining rangi qo'ng'ir, silliq sochli, polidaktiliya belgisiga hamda II qon guruhga ega bo'lgan erkak va ko'zlarining rangi ko'k, sochlari jingalak, barmoqlari normada, III qon guruhli ayol nikohidan ko'zning rangi ko'k, barmoqlarining soni normada, silliq sochli, I qon guruhiga ega bo'lgan farzand tug'ildi. Ota-onaning genotipini toping.

7. \*\* Odamlarda ko'zning qo'ng'ir rangda bo'lishi, sochning jingalak shaklda bo'lishi dominant belgi, barmoqlarning normal, ya'ni 5 ta bo'lishi retsessiv belgi. Ushbu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar har xil just xromosomalarda joylashgan bo'lib, bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Ko'zlarining rangi qo'ng'ir, silliq sochli, polidaktiliya belgisiga hamda II qon guruhga ega bo'lgan erkak va ko'zlarining rangi ko'k, sochlari jingalak, barmoqlari normada, III qon guruhli ayol nikohidan ko'zning rangi ko'k, barmoqlarining soni normada, silliq sochli, I qon guruhiga ega bo'lgan farzand tug'ildi. Bu oiladagi II qon guruhli farzandlarning necha %i sog'lom?

8. \*\* Odamlarda ko'zning qo'ng'ir rangda bo'lishi, sochning jingalak shaklda bo'lishi dominant belgi, barmoqlarning normal, ya'ni 5 ta bo'lishi retsessiv belgi. Ushbu belgilarni yuzaga chiqaruvchi genlar har xil just xromosomalarda joylashgan bo'lib, bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Ko'zlarining rangi qo'ng'ir, silliq sochli, polidaktiliya belgisiga hamda II qon guruhga ega bo'lgan erkak va ko'zlarining rangi ko'k, sochlari jingalak, barmoqlari normada, III qon guruhli ayol nikohidan ko'zning rangi ko'k, barmoqlarining soni normada, silliq sochli I qon guruhiga ega bo'lgan farzand tug'ildi. Bu oiladagi IV qon guruhli farzandlarning necha %i polidaktiliya bilan kasallangan?

9. \* Kataraktaning bir necha xil irlsiy shakllari mavjud. Bir turi autosoma dominant tipda, ikkinchi turi autosoma retsessiv tipda irlsiylanadi. Ular bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Bir oilada qo'ng'ir ko'zli er-xotinning ikkalasi kataraktaning autosoma-dominant turi bo'yicha ham, kataraktaning autosoma-retsessiv turi bo'yicha ham, ko'zning rangi bo'yicha ham geterozigotali bo'lsa, sog'lom farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

10. \*\* Kataraktaning bir necha xil irlsiy shakkulari mavjud. Bir turi autosoma dominant tipda, ikkinchi turi autosoma retsessiv tipda irlsiylanadi. Ular bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Bir oilada qo'ng'ir ko'zli er-xotinning ikkalasi kataraktaning autosoma-dominant turi bo'yicha ham, kataraktaning autosoma-retsessiv turi bo'yicha ham, ko'zining rangi bo'yicha ham geterozigotali bo'lsa, sog'lom farzandlarning necha %i ko'k ko'zli?

11. \*\* Kataraktaning bir necha xil irlsiy shakkulari mavjud. Bir turi autosoma dominant tipda, ikkinchi turi autosoma retsessiv tipda irlsiylanadi. Ular bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Bir oilada qo'ng'ir ko'zli er-xotinning ikkalasi kataraktaning autosoma-dominant turi bo'yicha ham, kataraktaning autosoma-retsessiv turi bo'yicha ham, ko'zining rangi bo'yicha ham geterozigotali bo'lsa, katarakta bilan kasallangan farzandlarning necha %i qo'ng'ir ko'zli?

12. \*\* Odamda jingalak soch silliq soch ustidan to'la dominantlik qilmaydi. Geterozigota holatda soch to'lqinsimon bo'ladi. O'naqaylik va normal eshitish chapaqaylik va karlik ustidan to'la dominantlik qiladi. Jingalak sochli, o'naqay, yaxshi eshitadigan ikki belgisi bo'yicha geterozigotali ayol to'lqinsimon sochli, chapaqay, yaxshi eshitadigan ikkita belgisi bo'yicha geterozigotali erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada 1) to'lqinsimon sochli, o'naqay, yaxshi eshitadigan; 2) to'lqinsimon sochli, o'naqay, kar bolalar tug'ilishi ehtimolini aniqlang (%).

13. \*\* Odamda jingalak soch tekis soch ustidan to'la dominantlik qilmaydi, geterozigota holatda sochlari to'lqinsimon bo'ladi. O'naqaylik, normal eshitish esa chapaqaylik va karlik ustidan to'la dominantlik qiladi. Jingalak sochli, o'naqay, normal eshituvchi ikki belgisi bo'yicha geterozigotali ayol to'lqinsimon sochli, chapaqay, normal eshituvchi, ikki belgisi bo'yicha geterozigota erkakka turmushga chiqdi. 1) jingalak sochli, o'naqay, normal eshituvchi ; 2) jingalak sochli, o'naqay, kar bolalar tug'ilishi ehtimolini toping (%).

## JINSGA BIRIKKAN HOLDA IRSIYLANISH

Jins organizmning gametalar hosil qilish orqali nasl qoldirishi, irlsiy axborotni kelgusi avlodga uzatishni ta'mintaydigan belgi va xossalalar majmuasidir.

Mendel o'z tajribalarida jins ham organizmdagi boshqa belgilari singari irlsiylanadi, degau fikrni ilgari surgan. Ma'lumki, monoduragaylarda

tabliliy chatishtirish olib borilsa, kelgusi avlodda 1:1, ya'ni Aa x aa Aa:aa kuzatiladi. Shunga asoslanib chatishtirishda qatnashgan ota-onaning biri gomozigota, ikkinchisi geterozigota bo'lishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Keyinchalik har xil jinsli organizmlarning biri gomozigota, ikkinchisi geterozigota ekanligi sitologik tadqiqotlarda ham o'z tasdig'ini topdi

Organizmlar	Geterogametalijins	Gametalar		Zigotalar	
		Urug'hujayra	Tuxumhujayra	Urg'ochi	Erkak
Odam, drozofila va boshqalar	Erkak	X va Y	X va X	XX	XY
Qandala (protenor)	Erkak	X va O	X va X	XX	XO
Chigirtka	Erkak	X va O	X va X	XX	XO
Qushlar, kapalaklar	Urg'ochi	X va X	X va Y	XY	XX
Tut ipak qurti	Urg'ochi	X va X	X va Y	XY	XX

Agar urg'ochi organizm jinsiy xromosomalari-XX, erkak organizmlarda XY-bo'lsa, urg'ochi organizm bir xil X-xromosomal gameta, erkak organizm esa ikki xil X va Y-xromosomal gametalarni hosil qiladi. Mabodo urg'ochi organizm geterogametalij, erkak organizm gomogametalij, ya'ni XX-jinsiy xromosomal bo'lsa, urg'ochi organizmdan X va Y-xromosomal ikki xil gameta, erkak organizmdan esa bir xil X-xromosomal gameta rivojlanadi.

Jinsiy xromosomalarda joylashgan genlar orqali yuzaga chiqadigan belgilarga jins bilan birikkan belgililar deyiladi. Odamda Y-xromosoma otadan faqat o'g'illarga o'tadi. Shuning uchun Y-xromosomada joylashgan gen orqali yuzaga chiquvchi belgi agar otada mavjud bo'lsa, o'g'illarda albatta yuzaga chiqadi. Ayollarda ikki jinsiy X-xromosoma, erkaklarda 1 ta X-jinsiy va 1 ta Y-xromosoma mavjud bo'lgani uchun belgi jinsiy X-xromosoma bilan irlashtiriladi bo'lsa, otadan faqat qiziga, onadan esa ham qiziga, ham o'g'liga o'tishi mumkin. Y-xromosoma orqali belgi faqat otadan o'g'ilga o'tadi.

## Jinsga birikkan holda irsiylanishga doir masalalar va topshiriqlar

1. Drozofilada ko'zining qizil bo'lishini ta'minlovchi gen X-xromosomada joylashgan bo'lsa, ko'zni oq bo'lishini ta'minlovchi gen qayerda joylashgan?
2. Onasi sog'lom, otasi gemofilik bo'lgan oilada gemofiliya bilan kasallangan o'g'il tug'ilgan. Ushbu kasallikni o'g'ilga otadan o'tgan deb aytish mumkinmi va uning sababini izohlang. (gemofiliya retsessiv gen kasalligi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi)
3. \* Gemofiliya bilan kasallangan ayol va sog'lom erkak oilasida sog'lom qizlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang (gemofiliya retsessiv gen kasalligi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi).
4. Gemofiliya bo'yicha tashuvchi ayol va sog'lom erkak oilasida sog'lom qizlarning tug'ilish ehtimolini topping (gemofiliya retsessiv gen kasalligi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi).
5. Ko'zlati ranglarni normal ajratuvchi ayol sog'lom erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada daltonik farzand tug'ildi. Ota-onaning genotipini aniqlang (daltonizm retsessiv gen kasalligi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi).
6. Ko'zlati ranglarni normal ajratuvchi ayol sog'lom erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada daltonik farzand tug'ildi. Shu oilada o'g'il farzandlarning kasallanib tug'ilish ehtimolini aniqlang (daltonizm retsessiv gen kasalligi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi).
7. Qizil ko'zli urg'ochi drozofila pashshalari xuddi o'zlariga o'xshash erkak drozofila pashshalari bilan chatishtirilganda 40 ta qizil va oq ko'zli erkak pashshalar, 38 ta qizil ko'zli urg'ochi pashshalar olindi. Ko'zning qizil rangi oq rangga nisbatan dominant bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi. Ota-ona va olingan duragaylarning genotipini aniqlang.
8. \* Tovuq va xo'rozlar patining oltin va kumush rangda bo'lishini ta'minlovchi genlar jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiyanib, oltin rang kumush rangga nisbatan dominantlik qiladi. Gomozigotali oltin rangli xo'roz kumush rang tovuq bilan chatishtirilganida olingan parrandalarning fenotipi qanday bo'ladi?
9. \*\* Tovuq va xo'rozlar patining oltin rangli va kumush rangda bo'lishini ta'minlovchi genlar jinsiy X-xromosomaga birikkan holda

irsiylanib, oltin rang kumush rangga nisbatan dominantlik qiladi. Oltin rangli xo'roz kumush rang tovuq bilan chatishtilganida olingan F<sub>1</sub> duragaylari o'zaro chatishtilisa, F<sub>2</sub> da olingan jo'jalarning fenotipi qanday bo'ladi?

10. Gipertrixoz retsessiv belgi bo'lib, Y-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi, polidaktiliya esa autosoma dominant belgi sifatida irsiylanadi. Otasi gipertrixoz, onasi esa polidaktiliya bilan kasallangan oilada bu kasalliklar bo'yicha sog'lom qiz farzand tug'ildi. Ota-onalarni genotipini aniqlang. Yana ikkala belgisi sog'lom farzandlar tug'ilish ehtimolini aniqlang.

11. \* Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'Imagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xshash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'iladigan qizlarning necha foizida daltonizm namoyon bo'ladi?

12. \*\* Odamda daltonizm retsessiv allellarga bog'liq va u X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi. Talassemiya autosoma kasalligi bo'lib, u chala dominantlik qiladi. Rangni yaxshi ajratadigan, lekin talassemianing yengil formasi bilan kasal ayol daltonik, lekin talassemiya bo'yicha sog' erkakga tur mushga chiqdi. Ularning oilasida daltonik, talassemianing yengil formasi bilan kasallangan o'g'il tug'ildi. Ota-onalarni genotipini aniqlang. Bu oilada anomaliyasiz o'g'il tug'ilishi ehtimoli qancha?

13. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'Imagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xshash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'ilgan qizlarda fenotip bo'yicha qanday ajralish namoyon bo'ladi?

14. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'Imagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xshash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'ilgan farzandlarda genotip (1) va fenotip (2) bo'yicha qanday ajralish kuzatiladi?

15. \*\* Aggamaglobulinemianing bir turi autosomaga birikkan retsessiv kasallik holatda, ikkinchi turi esa retsessiv X-xromosomaga birikkan holatda nasidan naslga o'tadi. Ayol ikki belgisi bo'yicha geterozigota va erkak aggamaglobulinemiya bilan kasallangan, agar unga bu kasallik faqat onasidan o'tgan bo'lsa (har ikkala turi ham), otasidan esa umuman kasallik o'tmaganligi ma'lum bo'lsa, oilada kasal bolalar tug'ilishi ehtimolini toping.

16. \*\* Aggамаглобулинемиyaning bir turi autosomaga birikkan retsessiv kasallik holatda, ikkinchi turi esa retsessiv X-xromosomaga birikkan holatda nasldan naslga o'tadi. Ayol ikki belgisi bo'yicha geterozigota va erkak aggамаглобулинемиya bilan kasallangan, agar unga bu kasallik faqat onasidan o'tgan bo'lса (har ikkala turi ham), otasidan esa umuman kasallik o'tmaganligi ma'lum bo'lса, oilada kasal bo'lмаган bolalar tug'ilishi ehtimolini toping.

17. \*\* Tishlarning qoramitir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X-xromosomada joylashgan. Tishlari qora erkak va ayoldan tish rangi normal bo'lган qiz va o'g'il tug'ildi. Ayol tishini qoramitir rang geni X-xromosomada, erkak tishini qoramitir rang geni autosomalarda joylashgan taqdirda shu oilada tish rangi normal bo'lган farzandning tug'ilish ehtimoli qanday?

18. Qora ko'zli ayol – ranglarni yaxshi ajratadi, uning otasi ko'k ko'z va daltonik. Shu ayol ko'k ko'z, rangni yaxshi ajratadigan erkak bilan turmush qurdi. Bu oilada ko'k ko'z, kasal o'g'il bola, ko'k ko'z, kasal qiz va qora ko'zli, sog'lom qiz tug'ilishi ehtimoli qanday bo'ladi (agar qora ko'z autosomada joylashgan dominant belgi, daltonizm X-jinsiy xromosomaga birikkan retsessiv belgi ekanligi ma'lum bo'lса)?

19. \* Odamda ter bezlarining bo'lmasligi retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X-xromosoma bilan birikkan holda irsiylanadi. Albinizmni retsessiv autosoma geni belgilaydi. Normal ota-onadan ikki anomaliyaga ega bo'lган og'il tug'ildi. Ota-onaning genotipini aniqlang. Qizlarning ikkala anomaliya bilan kasallanib tug'ilishi ehtimoli qanday?

20. \* Gemofiliya X-xromosoma bilan birikkan holda irsiylanadigan retsessiv kasallik Albinizm retsessiv autosoma kasalligi. Sog'lom ota-onadan ikki belgisi bo'yicha kasal farzand tug'ildi. 2-o'g'ilning ikkala kasallik bilan tug'ilish ehtimoli qanday (%) va ota-onal genotipini aniqlang.

21. \*\* Odamda daltonizm retsessiv belgi bo'lib, X-xromosoma bilan birikkan holda irsiylanadi. Talassemiya autosoma orqali irsiylanadi va chala dominantlik qiladi. Ranglarni ajrata oladigan, lekin talassemianing yengil formasi bilan kasallangan ayol bilan sog'lom, lekin daltonik erkak turmush qurishdi. Oilada daltonik,talassemianing yengil formasi bilan kasallangan o'g'il tug'ildi. Ota-onaning hamda bolaning genotipini aniqlang va tug'iladigan farzandlar orasida sog'lom o'g'il bolalarning tug'ilish ehtimoli qanday (%)?

22. Ota-onasi sog'lom, onasi ko'k va otasi qora ko'zli oilada ko'k ko'zli, gemofilik o'g'il tug'ildi. Gemofiliya retsessiv X-xromosoma orqali irlsiylanadigan kasallik. Ota-onasi genotipini aniqlang.

23. \*\* Jingalak patli, yashil oyoqli xo'roz, normal patli, sariq oyoqli tovuq bilan chatishtrilganda F<sub>1</sub> da hamma xo'roزلar jingalak patli, sariq oyoqli va hamma tovuqlar jingalak patli, yashil oyoqli bo'lib chiqdi. Ikkinchisi avlodda esa tovuq va xo'roزلar 4 xil fenotipik sinf hosil qildi. Shulardan 73 tasi jingalak patli, sariq oyoqli, 71 tasi jingalak patli, yashil oyoqli, 21 tasi normal patli, sariq oyoqli, 18 tasi normal patli, yashil oyoqli bo'ldi. Ota-onalarning genotipini toping (jingalak pat autosoma orqali, oyoqlarning rangi jinsiy X-xromosoma orqali irlsiylanadi).

24. Ota va o'g'il daltonik, ona esa ranglarni normal ajratadi. O'g'ilga bu yetishmovchilikning otadan o'tganlik ehtimoli qancha?

25. Onasi va akasi ranglarni normal ajrata oladigan ayol ranglarni ajratolmaslik kasalligiga chalingan. Uning birinchi o'g'il farzandining daltonik bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha?

26. Tish emali gipoplaziyasi jinsiy X-xromosomaga birikkan dominant belgi sifatida irlsiylanadi. Ota-onaning har ikkalasi ham shu anomaliya bilan kasallangan oilada sog'lom tishlarga ega bo'lgan o'g'il farzand tug'ildi. Keyingi o'g'il farzandning sog'lom bo'lib tug'ilish ehtimolini toping.

27. \*\* «K» omili parrandalarda retsessiv jinsga birikkan holda irlsiyanuvchi letal gen hisoblanadi. Bu gen bo'yicha gomozigotalar tuxumdan ochib chiqqunichcha nobud bo'ladi. 248-raqamli xo'rozni ma'lum bir tovuq bilan chatishtriganda 200 ta jo'ja olindi. Ularning yarmi xo'roz, yarmi tovuq edi. 51-raqamli xo'rozni xuddi o'sha tovuq bilan chatishtriganda 210 ta jo'ja olindi, ulardan 70 tasi tovuqlar edi. Letal gen ta'sirida nobud bo'lgan individlarning soni va genotipini aniqlang.

28. \*\*-Parrandalarda patlarining chipor bo'lishi dominant (B), qora bo'lishi retsessiv (b), jinsga birikkan belgilari, terisi rangining to'q rangda (S) va oqish rangda (s) bo'lishi autosomaga birikkan belgilari hisoblanadi. Gulsimon toj - R, bargsimon - r bilan belgilanadi. Parrandalarning qisqa oyoqli bo'lishini autosomaga birikkan C geni belgilaydi, lekin bu gen faqat Cc ko'rinishda irlsiyanib, gomozigota holatda letal ta'sir ko'rsatadi. (yuqorida keltirilgan 3 ta belgilari (S, R, C) har xil autosomalarda joylashgan, mustaqil taqsimlanadi) Uning retsessiv alleli - c uzun oyoqlilikni ta'minlaydi. Qora patli, to'q rang terili, gulsimon tojli xo'roz

chipor patli, to'q rang terili, bargsimon tojli tovuq bilan chatishtirildi. Ularning ikkalasi ham qisqa yoqoli edi. Olingen jo'jalar quyidagicha: 6 ta chipor patli, to'q rang terili xo'roz, 2 ta chipor patli, oqish terili xo'roz, 5 ta qora patli, to'q rang terili tovuq, 2 ta qora patli, oqish terili tovuq. Hamma jo'jalar gulsimon tojli edi. Ota-onaning genotipi qanday?

29. \*\* «K» omili parrandalarda retsessiv jinsga birikkan holda irsiylanuvchi letal gen hisoblanadi. Bu gen bo'yicha gomozigotalilar tuxumdan ochib chiqqunicha nobud bo'ladi. 248-raqamli xo'rozni ma'lum bir tovuq bilan chatishtirganda 200 ta jo'ja olindi. Ularning yarmi xo'roz, yarmi tovuq edi. 51-raqamli xo'rozni xuddi o'sha tovuq bilan chatishtirganda 210 ta jo'ja olindi, ulardan 70 tasi tovuqlar edi. 248-raqamli xo'roznинг genotipini toping.

30. \*\* Odamda anaridiya (ko'rlikning bir turi) autosoma dominant gen orqali irsiylanadi. Optik atrofiya (ko'rlikning boshqa bir turi) retsessiv jinsiy X-xromosomaga birikkan kasallik hisoblanadi. Optik atrofiyaga ega bo'lgan erkak faqat anaridiya bilan kasallangan ayolga uylandi (ayolning onasi har ikkala anomaliya bo'yicha sog'lom, otasi esa optik atrofiya bilan kasallangan edi). Farzandlarining sog'lom bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha (%)?

31. \*\* «K» omili parrandalarda retsessiv jinsga birikkan holda irsiylanuvchi letal gen hisoblanadi. Bu gen bo'yicha gomozigotalilar tuxumdan ochib chiqqunicha nobud bo'ladi. 248-raqamli xo'rozni ma'lum bir tovuq bilan chatishtirganda 200 ta jo'ja olindi. Ularning yarmi xo'roz, yarmi tovuq edi. 51-raqamli xo'rozni xuddi o'sha tovuq bilan chatishtirganda 210 ta jo'ja olindi, ulardan 70 tasi tovuqlar edi. 51-nomerli xo'roznинг genotipini toping.

32. \*\* Odamda anaridiya (ko'rlikning bir turi) autosoma dominant gen orqali irsiylanadi. Optik atrofiya (ko'rlikning boshqa bir turi) retsessiv jinsiy X-xromosomaga birikkan kasallik hisoblanadi. Optik atrofiyaga ega bo'lgan erkak faqat anaridiya bilan kasallangan ayolga uylandi (ayolning onasi har ikkala anomaliya bo'yicha sog'lom, otasi esa optik atrofiya bilan kasallangan edi). Farzandlarining har ikkala anomaliya bilan kasallanib tug'ilish ehtimoli qancha (%)?

33. \*\* Pigmentli retinit (qorong'ulikda ko'rishning buzilishi bo'lib, sekinlik bilan ko'rlikka olib keladi) 3 xil yo'l bilan irsiyanishi mumkin: autosoma dominant, autosoma retsessiv va jinsiy X-xromosomaga birikkan retsessiv belgi sifatida (har uchchala turi ham turli xil

xromosomalarda joylashgan). Pigmentli retinit bilan og'rihan, har uchchala gen bo'yicha geterozigota bo'lgan ayol va uchchala gen bo'yicha sog'lom (faqat autosoma turi bo'yicha geterozigota) bo'lgan erkak oilasida sog'lom farzandlarning tug'ilish ehtimolini toping.

34. \*\* Odamda anaridiya (ko'rlikning bir turi) autosoma dominant gen orqali irlaylanadi. Optik atrofiya (ko'rlikning boshqa bir turi) retsessiv jinsiy X-xromosomaga birikkan kasallik hisoblanadi. Optik atrofiyaga ega bo'lgan erkak faqat anaridiya bilan kasallangan ayloga uylandi (ayolning onasi har ikkala anomaliya bo'yicha sog'lom, otasi esa optik atrofiya bilan kasallangan edi). Farzandlarining faqat bitta anomaliyaga ega bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha (%)?

35. \*\* Pigmentli retinit (qorong'ulikda ko'rishning buzilishi bo'lib, sekinlik bilan ko'rlikka olib keladi) 3 xil yo'l bilan irlaylanishi mumkin: autosoma dominant, autosoma retsessiv va jinsiy X-xromosomaga birikkan retsessiv belgi sifatida (har uchchala turi ham turli xil xromosomalarda joylashgan). Pigmentli retinit bilan og'rihan, har uchchala gen bo'yicha geterozigota bo'lgan ayol va uchchala gen bo'yicha sog'lom (faqat autosoma turi bo'yicha geterozigota) bo'lgan erkak oilasida kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolini toping.

36. \*\* Yanoqlarida chuqurchasi bor bo'lgan, ko'k ko'zli, qoni normal iviydigan ayol yonoqlarida chuqurchasi yo'q, qo'ng'ir ko'zli, qoni normal iviydigan erkakka turmushga chiqdi. Ularning oilasida yonoqlarida chuqurchasi yo'q, ko'k ko'zli, gemofilik o'g'il bola tug'ildi. Yonoqlarda chuqurcha bo'lishi, qo'ng'ir ko'z dominant belgi bo'lib, autosoma orqali birikmagan tarzda irlaylanadi. Gemofiliya retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irlaylanadi. Ushbu ojlada qo'ng'ir ko'zli farzandlarning necha foizi anomaliyasiz tug'ilishi mumkin?

37. \*\* Odamda anaridiya (ko'rlikning bir turi) autosoma dominant gen orqali irlaylanadi. Optik atrofiya (ko'rlikning boshqa bir turi) retsessiv jinsiy X-xromosomaga birikkan kasallik hisoblanadi. Optik atrofiyaga ega bo'lgan erkak faqat anaridiya bilan kasallangan ayloga uylandi (ayolning onasi har ikkala anomaliya bo'yicha sog'lom, otasi esa optik atrofiya bilan kasallangan edi). Farzandlarining kasal bo'lib tug'ilish ehtimoli qancha (%)?

38. \*\* Pigmentli retinit (qorong'ulikda ko'rishning buzilishi bo'lib, sekinlik bilan ko'rlikka olib keladi) 3 xil yo'l bilan irlaylanishi mumkin: autosoma dominant, autosoma retsessiv va jinsiy X-xromosomaga

birikkan retsessiv belgi sifatida (har uchchala turi ham turli xil xromosomalarda joylashgan). Pigmentli retinit bilan og'tigan, har uchchala gen bo'yicha geterozigota bo'lgan ayol va uchchala gen bo'yicha sog'lom (faqat autosoma turi bo'yicha geterozigota) bo'lgan erkak oilasida sog'lom o'g'il farzandlarning tug'ilish ehtimolini toping.

39. \* Gipofosfatomik raxit jinsiy X-xromosomada joylashgan dominant gen ta'sirida yuzaga chiqadi. Gipofosfatomik raxit bilan kasallangan, II qon guruhiiga ega bo'lgan ayol bilan ushbu raxit formasi bo'yicha sog'lom, III qon guruhli erkak oilasida I qon guruhiiga ega sog'lom bo'lgan qiz tug'ildi. Ushbu oilada anomaliyaga ega bo'lgan farzandlarning necha %i I, II, III, IV qon guruhlariga ega?

40. Yanoqlarida chuqurchasi bor bo'lgan, ko'k ko'zli, qoni normal iviydigan ayol yanoqlarida chuqurchasi yo'q, qo'ng'ir ko'zli, qoni normal iviydigan erkakka turnushiga chiqdi. Ularning oilasida yanoqlarida chuqurchasi yo'q, ko'k ko'zli, gemofilik o'g'il bola tug'ildi. Yanoqlarda chuqurcha bo'lishi, qo'ng'ir ko'z dominant belgi bo'lib, autosoma orqali birikmagan tarzda irlsylanadi. Gemofiliya retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irlsylanadi. Ushbu oilada gemofiliya bilan kasallangan, yanoqlarida chuqurchasi bo'lgan farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang.

41. Gipofosfatomik raxit jinsiy X-xromosomada joylashgan dominant gen ta'sirida yuzaga chiqadi. Gipofosfatomik raxit bilan kasallangan, II qon guruhiiga ega bo'lgan ayol bilan ushbu raxit formasi bo'yicha sog'lom, III qon guruhli erkak oilasida I qon guruhiiga ega sog'lom bo'lgan qiz tug'ildi. Ushbu oilada anomaliyaga ega bo'lgan va anomaliyasiz II qon guruhli farzandlarning tug'ilish ehtimolini toping.

42. Gipofosfatomik raxit jinsiy X-xromosomada joylashgan dominant gen ta'sirida yuzaga chiqadi. Gipofosfatomik raxit bilan kasallangan, II qon guruhiiga ega bo'lgan ayol bilan ushbu raxit formasi bo'yicha sog'lom, III qon guruhli erkak oilasida I qon guruhiiga ega sog'lom bo'lgan qiz tug'ildi. Ushbu oilada sog'lom farzandlarning necha %i I, II, III, IV qon guruhlariga ega?

43. Gipertoniya geni autosomaga bog'liq dominant holda irlsylanadi, ko'zning optik ateroskeyasi X-xromosomaga birikkan retsessiv belgi hisoblanadi. Agar ayol faqat ateroskeya bilan kasallangan, gipertoniya bo'yicha sog'lom bo'lsa va u faqat gipertoniya bilan kasallangan (uning otasi gipertonik, onasi sog'lom bo'lgan)

erkakka turmushga chiqsa, bu oilada necha foiz farzandlar ikkala belgi bo'yicha sog'lom tug'iladi?

44. Mushukda junning qora rangi dominant, sariq rangi retsessiv, olachipor oraliq forma. Bu genlar X-xromosomaga birikkan holatda irsiylanadi. Olachipor urg'ochi mushuk boshqa bir mushuk bilan chatishtirildi. F<sub>1</sub> da olachipor, sariq urg'ochi mushuk va sariq, qora erkak mushuklar olindi. Olachipor mushuk chatishtirilgan mushukning rangi va genotipini aniqlang.

45. Gipertoniya geni autosomaga bog'liq dominant holda irsiylanadi, ko'zning optik ateroskeyasi X-xromosomaga birikkan retsessiv belgi hisoblanadi. Agar ayol faqat ateroskeya bilan kasallangan, gipertoniya bo'yicha sog'lom bo'lsa va u faqat gipertoniya bilan kasallangan (uning otasi gipertronik, onasi sog'lom bo'lgan) erkakka turmushga chiqsa, bu oilada necha foiz farzandlar ikkala belgi bo'yicha kasal tug'iladi?

46. Mushukda junning qora rangi dominant, sariq rangi retsessiv, olachipor oraliq forma. Bu genlar X-xromosomaga birikkan holatda irsiylanadi. Olachipor urg'ochi mushuk boshqa bir mushuk bilan chatishtirildi. F<sub>1</sub> da olachipor, qora urg'ochi mushuk va sariq, qora erkak mushuklar olindi. Olachipor mushuk chatishtirilgan mushukning rangi va genotipini aniqlang.

47. Yanoqlarida chuqurchasi bor bo'lgan, ko'k ko'zli, qoni normal iviydigan ayol yanoqlarida chuqurchasi yo'q, qo'ng'ir ko'zli, qoni normal iviydigan erkakka turmushga chiqdi. Ularning oilasida yanoqlarida chuqurchasi yo'q, ko'k ko'zli, gemofilik o'g'il bola tug'iladi. Yanoqlarda chuqurcha bo'lishi, qo'ng'ir ko'z dominant belgi bo'lib, autosoma orqali birikmagan tarzda irsiylanadi. Gemofiliya retsessiv belgi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi. Ushbu oilada yanoqlarida chuqurchasi bo'lgan farzandlarning necha foizi anomaliya bilan tug'ilishi mumkin?

48. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonim bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'lmagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xshash o'g'il tug'ilgan. Ota-onalar va o'g'ilning genotipini aniqlang.

49. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'lmagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xshash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizi daltonik, albinos bo'lishi mumkin?

50. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'lmagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xhash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizida gipertrixoz namoyon bo'ladi?

51. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'lmagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xhash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'iladigan qizlarning necha foizida gipertrixoz namoyon bo'ladi?

52. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'lmagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xhash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'iladigan o'g'llarning necha foizida gipertrixoz namoyon bo'ladi?

53. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'lmagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xhash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizi albinizm va daltonizm bo'yicha sog' bo'ladi?

54. Albinos (a), daltonik (d) va gipertrixoz (b) erkak albinizm va daltonizm bo'yicha geterozigotali, gipertrixozga ega bo'lmagan ayolga uylangan. Bu oilada otasiga o'xhash o'g'il tug'ilgan. Oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizi albinizm va daltonizm bo'yicha sog', lekin gipertrixozli bo'ladi?

55. Odamlarda albinizm belgisi autosoma retsessiv belgi sifatida irlsiylanadi. Angidrozli ektodermal displaziya jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irlsiyanadigan retsessiv kasallikdir. Ushbu belgilari bo'yicha sog'lom ota-onadan har ikki anomaliya bilan kasallangan o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada ikkala belgisi bo'yicha sog'lom qiz tug'ilish ehtimolini aniqlang.

56. Odamlarda albinizm belgisi autosoma retsessiv belgi sifatida irlsiylanadi. Angidrozli ektodermal displaziya jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irlsiyanadigan retsessiv kasallikdir. Ushbu belgilari bo'yicha sog'lom ota-onadan har ikki anomaliya bilan kasallangan o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada ikkala belgisi bo'yicha sog'lom o'g'il tug'ilish ehtimolini aniqlang.

57. Odamlarda albinizm belgisi autosoma retsessiv belgi sifatida irlsiyanadi. Angidrozli ektodermal displaziya jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irlsiyanadigan retsessiv kasallikdir. Ushbu belgilari bo'yicha sog'lom ota-onadan har ikki anomaliya bilan kasallangan o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada faqat bitta anomaliya bilan kasallangan farzand tug'ilish ehtimolini aniqlang.

## BIRIKKAN HOLDA NASLDAN NASLGA O'TISH

Bitta xromosomada joylashgan genlar o'zaro birikkan holda nasldan naslga o'tadi. Bunday holatda genlarning o'zaro mustaqil taqsimlanish qonuniyati buziladi. Birikkan belgilar har doim ham birqalikda avloddan avlodga o'tavermaydi, chunki meyoz jarayonida gomologik xromosomalar o'rtasida krossingover hodisasi (chalkashib almashinish) sodir bo'lib, genlarning joylashish tartibi o'zgaradi.

Birikkan belgilarning nasldan naslga o'tish qonuniyatlaridan foydalanib, genlar orasidagi masofani aniqlab, xromosomalar genetik xaritasini tuzish mumkin.

Genlarning birikkan holda irsiylanish hodisasi AQSh olimi T.Morgan va uning shogirdlari tomonidan atroflicha o'rganildi. Morgan birinchi marotaba drozofila meva pashshasida ko'z rangini ifoda qiluvchi gen X-xromosoma bilan birikkan holda irsiylanishini amalda isbo'llab berdi.

Bu holat tusayli irsiyatning xromosoma nazariyasining asosi – genlar xromosomalarda joylashgan degan qoida inkor qilib bo'lmaydigan darajada to'g'ri ekanligi isbotlandi.

Aniqlanishicha, agar chatishirish uchun olingan organizm genlari har xil xromosomada joylashgan bo'lsa, ular avlodlarda mustaqil ravishda irsiylanadi. Buni diduragaylarning  $F_2$  da fenotip bo'yicha 9:3:3:1 nisbatda, tahliliy chatishirishda esa 1:1:1:1 nisbatda xilma-xillik berishida ko'rish mumkin. Belgilarning bunday irsiylanishi nogomologik xromosomalarning birikish va anafazizada tarqalish ehtimoli tasodifan teng bo'lganda kuzatiladi.

Tabiiyki, har bir organizmda genlar soni xromosomalar soniga nisbatan bir necha marotaba ortiq. Bu o'z-o'zidan bir xromosomada bitta gen emas, balki ko'p gen joylashganligidan dalolat beradi. Bir xromosomada joylashgan genlar tabiiy ravishda birikkan holda avloddan avlodga beriladi. Bunday holatda genlarning o'zaro mustaqil taqsimlanish qonuniyati buziladi.

Genlarning birikkan holda irsiylanishi ular o'rtasidagi masofaga bo'g'liq holda 2 xilda irsiylanadi:

I. To'liq birikkan holda II. To'liqsiz birikkan holda

1. Genlar to'liq birikkan holda irsiylanganda belgilarda ajralish kuzatilmaydi. Olingan barcha avlodda  $F_1$ ,  $F_2$ ,  $F_3$ .. da faqat ota-onal belgilarning rivojlanishi kuzatiladi.

## 2. Belgilarning to'liqsiz birikkan holda irlsylanishi va krossingover.

Morgan drozofilaning qora tanali, normal qanotli urg'ochi formasini kulrang tanali rudiment qanotli forma bilan chatishtirganda  $F_1$  da barcha erkak va urg'ochi pashshalar tanasi kulrang, qanoti normal bo'lgan. Morgan  $F_1$  dagi duragay kulrang tanali, normal qanotli erkak drozofilani qora tanali, rudiment qanotli urg'ochi forma bilan chatishtirganda  $F_2$  da 50 % drozofilalarda kulrang tana, rudiment qanot, 50 % drozofilalarda qora tana normal qanot rivojlangan. Binobarin,  $F_2$  da xuddi ota-onaga o'xshash formalar teng miqdorda paydo bo'lgan.

Aksinchalik  $F_1$  da urg'ochi kulrang tanali, normal qanotli duragay drozofilani qora tanali, rudiment qanotli erkak drozofila bilan chatishtirilsa,  $F_2$  da 83 % chatishtirishda qatnashgan ota va onaga o'xshash drozofilalar olingan. Ularning 41,5 %ida kulrang tana, rudiment qanot, yana 41,5 %ida qora tana, normal qanot rivojlangan. 17 % duragaylar esa ota-ona organizmlar orasida oraliq forma hisoblangan. Ularning 8,5 %i qora tanali, rudiment qanotli, 8,5 %ida kulrang tanali, normal qanotli bo'lib rivojlangan.

Binobarin, 17 % drozofilalar gomologik xromosomalarning konyutgatsiya va krossingoveri tusayli xromosomalarda genlarning ayriboshlanishi natijasida yangi kombinatsiyasi hosil bo'lган: Qayd etilgan misolda krossingover mavjudligi genetik usul bilan isbotlandi.

Ba'zan digeterozigotalarda ota-onaning ayrim belgilarni o'zida birlashtirgan organizmlar paydo bo'lishi mumkin. Lekin bunday organizmlarning miqdori  $F_2$  duragaylarning ota va onaga o'xshash individlar sonidan anchagina kam bo'ladi.  $F_2$  ota-onaga o'xshamagan individlarning paydo bo'lishiga asosiy sabab ularning o'r ganilayotgan ikki belgisini ifoda qiluvchi genlar birikkan gomologik xromosomalarning mitozning profaza I da o'zaro konyugatsiyalanishi va ayrim genlari bilan o'zaro o'r'in almashishidir. Bu hodisani genetikada krossingover deyiladi. Krossingover natijasida hosil bo'lgan, ya'ni ota-onaning ayrim belgilarni o'zlarida mujassamlashtirgan individlar crossover deb ataladi. Shu krossingover natijasida olingan individlarning umumiy % genlar orasidagi masoфа (morganida) ga doimo teng bo'ladi.

## Birikkan holda nasldan naslga o'tishga doir masalalar va topshiriqlar

1. \* Pomidor o'simligida shoxlarining uzunligi bilan mevasining shaklini ifodalovchi genlar birikkan bo'lib, bir xromosomada joylashgan. Seleksioner uzun poyali A va yumaloq mevali B gomozigota pomidor bilan kalta poyali a va noksimon mevali b pomidorni chatishtirib,  $F_1$  da 110 ta,  $F_2$  da 1200 ta o'simlik yetishtirgan.  $F_3$  da uzun poyali va yumaloq mevasi qancha?  $F_4$  da necha xil gameta hosil bo'ladi?

2. Pomidor o'simligida shoxlarining uzunligi bilan mevasining shaklini ifodalovchi genlar birikkan bo'lib, bir xromosomada joylashgan. Seleksioner uzun poyali H va yumaloq mevali P gomozigotasi pomidor bilan kalta poyali h va noksimon mevali p pomidorni chatishtirib,  $F_1$  da 110 ta,  $F_2$  da 1200 ta o'simlik yetishtirgan  $F_3$ , da necha xil genotipik sinf yuzaga keladi?  $F_4$  da nechta o'simlik kalta poyali, noksimon mevali bo'ladi?

3. \* Ikki drozofila pasishasining tahliliy chatishtirilishi natijasida quyidagi natija olingan. Fenotip bo'yicha ota-onaga o'xhash bo'lgan farzandlar - 965 va 944, fenotip bo'yicha farq qiladiganlari - 206 va 185 ta. Ajralish foizini va genlar orasidagi masofani aniqlang.

4. Makkajo'xorda urug'ining qo'ng'ir rangi va silliq shaklda bo'lishi dominant bo'lib, birikkan holda bir xromosomada joylashgan. Urug'ining oq rangda bo'lishi va burishgan shakli retsessiv bo'lib, boshqa gomologik xromosomada joylashgan. Tahliliy chatishtirish natijasida 4000 ta ota-onaga o'xhash; 152 ta oq, silliq shakldagi va 149 ta qo'ng'ir, burishgan shakldagi urug' olingan. Yuqoridagilardan qaysi urug'lar krossingover natijasida olingan?

5. Pomidorda poyaning uzun bo'lishi past bo'lishi ustidan, mevaning yumaloq bo'lishi esa noksimon bo'lishi ustidan dominantlik qildi. Poyaning uzunligini va mevaning shaklini belgilaydigan genlar bir xromosomada joylashgan bo'lib, ajralish foizi 20 %. Har ikki belgisi bo'yicha geterozigotali o'simlik bilan past bo'yli va noksimon mevali o'simlik chatishtirilgan. Farzandlarning necha foizi ota-onaga o'xhash, necha foizi fenotip bo'yicha ota-onadan farq qiladi (%)?

6. \*\* Odamlarda katarakta va polidaktiliya autosomaga joylashgan dominant gen tomonidan yuzaga chiqariladi. Bu genlar o'zaro to'liq bog'langan (krossingover kuzatilmaydi). Ikkala belgi bo'yicha

geterozigotali ayol va erkak nikohidan fenotip va genotip jihatidan qanday avlod kutish mumkin?

7. Odamda rezus omil geni bilan eritrotsitlarning shaklini belgilaydigan gen birikkan holda irsiylanadi. Ularning orasidagi masofa 3 morganidaga teng. Rezus musbat va elliptotsitz (eritrotsitlarning ellips shaklida bo'lishi)ga nisbatan geterozigotali bo'lgan erkak rezus-manfiy va normal eritrotsitli ayolga uylangan. Farzandlarining genotipini va fenotipi foizini aniqlang.

8. \*\* Odamlarda rezus-faktor va eritrotsitlarning shaklini ifodalovchi genlar autosomaga to'liq birikkan holda irsiylanadi. Rezus manfiy va elliptotsitz dominant genlarga bog'liq. Er-xotinlardan biri har ikki belgi bo'yicha geterozigota bo'lib, rezus manfiy va elliptotsitz belgilarini otasidan olgan bo'lsa, uning turmushli o'rtog'i ayolda rezus musbat, eritrotsitlar normal holatdadir. Bu oilada tug'ilgan bolalarning fenotip va genotiplari qanday?

9. \*\* Katarakta va polidaktiliya dominant belgilar bo'lib, to'liq jinsga birikkan holda irsiylanadi. Ayolga ikkala anomaliya otasidan o'tgan, uning onasi bu ikkala belgi bo'yicha sog'. Shu ayol sog'lom erkakka turmusliga chiqdi. Bu oilada ikkala anomaliya bo'yicha kasallanib tug'ilishi ehtimoli bo'lgan farzandlarning %ini toping.

10. Ko'z shox pardasining ko'rliji (katarakta) va polidaktiliya dominant belgi bo'lib, ular jinsga to'liq birikkan holda irsiylanadi. Onasi faqat katarakta bo'yicha gomozigota kasal, otasi esa faqat polidaktiliya bo'yicha gomozigota kasal bo'lgan oilada tug'ilgan qiz bu belgilar bo'yicha sog' yigitga turmushta chiqadi. Katarakta bilan tug'iladigan bolalar (%) ehtimolini toping.

11. \*\* Rezus musbat, II qon guruhli, rangni ajrata oladigan, qoni normal iviydigan erkak bilan rezus musbat, III qon guruhga ega, rangni yaxshi ajrata oladigan, qoni normal iviydigan ayol nikohidan rezus manfiy, I qon guruhiga ega, daltonik, gemofilik o'g'il tug'ildi (Rezus musbat dominant, keltirilgan 2 ta anomaliya jinsiy X-xromosominada joylashgan retsessiv gen kasalliklari bo'lib, to'liq birikkan holda irsiylanadi). Tug'ilgan sog'lom farzandlarning ichidan necha %i rezus manfiy, necha %i rezus musbat?

12. \* Ko'z shox pardasining ko'rliji (katarakta) va polidaktiliya dominant belgi bo'lib, ular jinsga to'liq birikkan holda irsiylanadi. Onasi faqat katarakta bo'yicha gomozigota kasal, otasi esa faqat polidaktiliya

bo'yicha gomozigota kasal bo'lgan oilada tug'ilgan qiz bu belgilar bo'yicha sog' yigitga turmushga chiqadi. Faqat 1 ta anomaliya bilan tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlar %ini toping.

13. Rezus musbat, II qon guruhi, rangni ajrata oladigan, qoni normal iviydigan erkak bilan rezus musbat, III qon guruhi ega, rangni yaxshi ajrata oladigan, qoni normal iviydigan ayol nikohidan rezus manfiy, I qon guruhibiga ega, daltonik, gemofilik o'g'il tug'ildi (Rezus musbat dominant, keltirilgan 2 ta anomaliya jinsiy X-xromosomada joylashgan retsessiv gen kasalliklari bo'lib, to'liq birikkan holda irsiylanadi). Anomaliyaga ega farzandlarning ichidan necha %i rezus manfiy, necha %i rezus musbat?

14. Rezus musbat, II qon guruhi, rangni ajrata oladigan, qoni normal iviydigan erkak bilan rezus musbat, III qon guruhi ega, rangni yaxshi ajrata oladigan, qoni normal iviydigan ayol nikohidan rezus manfiy, I qon guruhibiga ega, daltonik, gemofilik o'g'il tug'ildi (Rezus musbat dominant, keltirilgan 2 ta anomaliya jinsiy X-xromosomada joylashgan retsessiv gen kasalliklari bo'lib, to'liq birikkan holda irsiylanadi). Ota-onasining qon guruhibiga o'xshash qon guruhi ega bo'lgan farzandlar necha %?

15. \*\*\*Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashgan retsessiv gen orqali nasldan naslga o'tadi. Ushbu genlar orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Onasi daltonik bo'lgan, otasi esa gemofiliya bilan kasallangan, o'zi sog'lom ayol ikkala kasallik bilan kasallangan erkakka turmushga chiqadi. Bolalarning ikkala anomaliya bilan tug'ilish ehtimolini toping (%).

16. \* Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashgan retsessiv gen orqali nasldan naslga o'tadi. Ushbu genlar orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Onasi daltonik bo'lgan, otasi esa gemofiliya bilan kasallangan oilada tug'ilgan qiz bilan ushbu belgilar bo'yicha sog'lom erkak nikohidan tug'ilgan ikki o'g'ilning biri daltonik, qoni normal ivydi, ikkinchisi gemofilik, lekin ranglarni yaxshi ajratadi. Ushbu oilada ikkala juft belgilari bo'yicha sog'lom o'g'il, qizlarning tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

17. \*\*\* Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashgan retsessiv gen orqali nasldan naslga o'tadi. Ushbu genlar orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Onasi daltonik bo'lgan, otasi esa gemofiliya bilan kasallangan oilada tug'ilgan qiz bilan o'zi ranglarni normal ajratadigan,

onasi gemosiliya bilan kasallangan erkak nikohidan tug'ilgan ikki o'g'ilning biri daltonik, qoni normal ivydi, ikkinchisi gemofilik, lekin ranglarni yaxshi ajratadi. Ushbu oilada farzandlarning keltirilgan anomaliyalarning bittasi bilan kasallangan bo'lib tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

18. \*\* Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyasining past bo'yilik geni retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada bir-biridan 18 morganida masofada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik burishgan bargli, past bo'yli makkajo'xori bilan chatishtirilganida  $F_1$  da 450 ta o'simlik olinib, ularning barchasi normal bo'yli, barglari silliq edi.  $F_2$  da esa 1200 ta o'simlik olingan.  $F_3$  da olingan o'simliklardan necha %i burishgan bargli, past bo'yli ekanligini aniqlang.

19. \* Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyasining past bo'yilik geni retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada bir-biridan 18 morganida masofada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik burishgan bargli past bo'yli makkajo'xori bilan chatishtirilganida  $F_1$  da 450 ta o'simlik olinib, ularning barchasi normal bo'yli, barglari silliq edi.  $F_2$  da esa 1200 ta o'simlik olingan.  $F_3$  da olingan o'simliklardan necha %i ikki belgisi bo'yicha geterozigota ekanligini aniqlang.

20. \*\* Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyasining past bo'yilik geni retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada bir-biridan 18 morganida masofada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik burishgan bargli past bo'yli makkajo'xori bilan chatishtirilganida  $F_1$  da 450 ta o'simlik olinib, ularning barchasi normal bo'yli, barglari silliq edi.  $F_2$  da esa 1200 ta o'simlik olingan.  $F_3$  da olingan o'simliklardan nechtasi silliq bargli, past bo'yli ekanligini aniqlang.

21. Drozofilada tana rangi va qanotining shakli birikkan holatda irsiylanuvchi belgilar hisoblanadi. Tananing qora rangi kulrangga, qanotning kaltaligi uning uzunligiga nisbatan retsessivdir. Laboratoriyada ikkala belgi bo'yicha geterozigotali kulrang, uzun qanotli pashsha bilan tanasi qora va kalta qanotli erkak pashsha chatishtirilgan. Olingan avlodlarning 827 tasi kulrang, uzun qanotli, 833 tasi qora, kalta qanotli, 165 tasi qora, uzun qanotli, 175 tasi kulrang, kalta qanotli ekanligi ma'lum bo'lsa, genlar orasidagi masofani toping.

22. \*\* Drozofila pashshasida ko'zning normal rang geni oq ko'zlilik geniga, anomal qorin tuzilishi esa normal qorin tuzilishiga nisbatan dominantlik qiladi. Ushbu genlar jinsiy X-xromosomada 3 morganida

masofa oralig'ida joylashgan. Har ikkala gen bo'yicha geterozigotali urg'ochi pashsha ko'zlarining rangi va qornining tuzilishi normal bo'lgan erkak pashsha bilan chatishtirilganida,  $F_1$  da 400 ta avlod olingan.  $F_1$  da olingan pashshalardan nechtaasi normal belgilarga ega?

23. \*\* Drozofila pashshasida ko'zning normal rang geni oq ko'zlilik geniga, anomal qorin tuzilishi esa normal qorin tuzilishiga nisbatan dominantlik qiladi. Ushbu genlar jinsiy X-xromosomada 3 morganida masofa oralig'ida joylashgan. Har ikkala gen bo'yicha geterozigotali urg'ochi pashsha ko'zlarning rangi va qornining tuzilishi normal bo'lgan erkak pashsha bilan chatishtirilganida,  $F_1$  da 400 ta avlod olingan.  $F_1$  da olingan pashshalardan nechtaasi anomal qorin tuzilishiga ega ?

24. \*\* Drozofila pashshasida ko'zning normal rang geni oq ko'zlilik geniga, anomal qorin tuzilishi esa normal qorin tuzilishiga nisbatan dominantlik qiladi. Ushbu genlar jinsiy X-xromosomada 3 morganida masofa oralig'ida joylashgan. Har ikkala gen bo'yicha geterozigotali urg'ochi pashsha ko'zlarning rangi va qornining tuzilishi normal bo'lgan erkak pashsha bilan chatishtirilganida,  $F_1$  da 400 ta avlod olingan.  $F_1$  da olingan pashshalardan necha % i ko'zining rangi oq?

25. Kalamushlarda junining qoramtilr rangi och rangga nisbatan, ko'zining pushti rangi qizilga nisbatan ustunlikka ega. Bu belgililar bitta xromosomada joylashgan. Laboratoriyada pushti ko'z, qoramtilr junli kalamushlarni qizil ko'z, och rang junllilar bilan chatishtirilganida quyidagidek avlodlar olingan: 55 ta och rang junli, qizil ko'zli, 54 ta qoramtilr yungli, pushti ko'zli, 55 ta och rang yungli, pushti ko'zli, 54 ta qoramtilr junli, qizil ko'zli. Shu genlar o'rtaisdagi masofani aniqlang (morganida).

26. Ranglarni ajrata olmaslik (daltonizm) va shapko'rlikni yuzaga chiqaruvchi retsessiv genlar jinsiy X-xromosomada joylashgan bo'lib, ular orasidagi masofa 50 morganidaga teng. Onasi shapko'rlik bilan, otasi esa daltonizm bilan kasallangan, o'zining ko'rish qobiliyati normal bo'lgan ayol faqat shapko'rlik bilan kasallangan erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada sog'lom farzandlarning tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

27. Ranglarni ajrata olmaslik (daltonizm) va shapko'rlikni yuzaga chiqaruvchi retsessiv genlar jinsiy X-xromosomada joylashgan bo'lib, ular orasidagi masofa 50 morganidaga teng. Onasi shapko'rlik bilan, otasi esa daltonizm bilan kasallangan, o'zining ko'rish qibiliyati normal bo'lgan ayol sog'lom erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada ko'rish qibiliyati normal bo'lmanган farzandlarning tug'ilishi ehtimolini aniqlang.

28. \*\* Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashgan retsessiv gen orqali nasldan naslga o'tadi. Ushbu genlar orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Onasi daltonik bo'lgan, otasi esa gemofiliya bilan kasallangan oilada tug'ilgan qiz bilan ushbu belgilar bo'yicha sog'lom erkak nikohidan tug'ilgan ikki o'g'ilning biri daltonik, qoni normal iviydi, ikkinchisi gemofilik, lekin ranglarni yaxshi ajratadi. Ushbu oilada faqat bitta anomaliya bilan kasallangan farzandlarning tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

29. Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashigan retsessiv gen orqali nasldan naslga o'tadi. Ushbu genlar orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Onasi daltonik bo'lgan, otasi esa gemofiliya bilan kasallangan oilada tug'ilgan qiz bilan ranglarni normal ajratadigan, onasi gemofiliya bilan kasallangan erkak nikohidan tug'ilgan ikki o'g'ilning biri daltonik, qoni normal iviydi, ikkinchisi gemofilik, lekin ranglarni yaxshi ajratadi. Ushbu oilada farzandlarning sog'lom bo'lib tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

30. Gemofiliya va daltonizm kasalliklari X-xromosomada joylashgan retsessiv gen orqali nasldan naslga o'tadi. Ushbu genlar orasidagi masofa 9,8 morganidaga teng. Onasi daltonik bo'lgan, otasi esa gemofiliya bilan kasallangan sog'lom ayol ikkala kasallik bilan kasallangan erka'ka turmusliga chiqadi. Bolalarning faqat bitta anomaliya bilan tug'ilish ehtimolini toping (%).

### ALLEL BO'L MAGAN GENLARNING O'ZARO TA'SIRLARI

Odatda, har bir gen mustaqil ravishda bitta belgini yuzaga chiqaradi. Mendel kashf etgan irlar qonuniyatlarini aynan mana shu holatlarni, ya'ni organizmdagi har qaysi gen alohida bitta geni bitta belgini rivojlanishini ta'minlashini aks ettiradi. Lekin Mendeldan keyingi davrdagi genetik tahlil sohasidagi tadqiqotlar rivoji tufayli organizmdagi aksariyat belgilarning rivojlanishi bittagina genga emas, balki bir nechta genga bog'liq ekanligi aniqlandi. Belgilarning bir necha just allel bo'l magan genlarning o'zaro ta'sir etib irlarining quyidagi xillari yaxshi o'r ganilgan:

1. Genlarning epistatik ta'siri – *epistaz*.
2. Genlarning komplementar ta'siri – *komplementar*.
3. Genlarning polimer ta'siri – *polimeriya*.

## NOALLEL GENLARNING KOMPLEMENTAR TA'SIRI

**Komplementarlik** – bir organizmda mavjud bo'lgan ikkita allel bo'lmasan genlar alohida kelganda har xil belgini, birga kelganda boshqa bir belgini yuzaga chiqaradi. Komplementarlikda ikki va undan ortiq allel bo'lmasan genlarning o'zaro ta'siri natijasida organizmda yangi, ota-onada yo'q belgilarning rivojlanishi ta'minlanadi. Noallel genlarning o'zaro ta'siri komplementariya xilining o'ziga xos jihat shundan iboratki,  $F_1$  duragayda chatishirishda qatnashgan ota yoki ona belgisi emas, balki yangi belgi rivojlanadi. Belgining rivojlanishiga ta'sir etuvchi noallel genlarning qiymati bir xil emasligi tufayli  $F_2$  avlodida belgilarning rivojlanishi turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ikkinci avlodda komplementar ta'sir natijasida belgilari 9:3:3:1; 9:6:1; 9:7 nisbatda ajralishi mumkin.

### Komplementarga doir masalalar va topshiriqlar

1. Odamlarda ikki noallel genlar jufti dominant holda bo'lsa, qulq normal eshitadi. Qolgan hollarda qulq kar bo'ladi. Tubandagi genotipli odamlar o'zaro nikohlanganda ular va farzandlarining eshitish qobiliyati qanday bo'ladi?

1. AABB x aabb.    2. AaBb x aabb.    3. Aabb x aaBb.  
4. AaBb x AaBb.    5. Aabb x aaBb.    6. Aabb x AaBb.

2. Olako'zanlarning sarg'ish va kulrang mo'ynali organizmlari o'zaro chatishirilganida  $F_1$  duragaylarining barchasi jigarrang bo'ldi.  $F_2$  da esa 9 ta jigarrang, 3 ta sarg'ish, 3 ta kulrang hamda 1 ta oq rangli individlar olindi. Olaqo'zanlarda jun rangi qanday irlsiylanadi? Jigarrangni yuzaga chiqaruvchi genotiplarni aniqlang.

3. Olako'zanlarning sarg'ish ya kulrang mo'ynali organizmlari o'zaro chatishirilganida  $F_1$  duragaylarining barchasi jigarrang bo'ldi.  $F_2$  da esa 9 ta jigarrang, 3 ta sarg'ish, 3 ta kulrang hamda 1 ta oq rangli individlar olindi. Olaqo'zanlarda jun rangi qanday irlsiylanadi? Agar 1-dominant gen 2-ressessiv gen bilan kelsa, kulrang, 1-ressessiv gen 2- dominant gen bilan kelsa, sarg'ish tus yuzaga chiqsa, sarg'ish tusni yuzaga chiqaruvchi genotiplarni aniqlang.

4. Olako'zanlarning sarg'ish va kulrang mo'ynali organizmlari o'zaro chatishirilganida  $F_1$  duragaylarining barchasi jigarrang bo'ldi.  $F_2$  da esa

9 ta jigarlang, 3 ta sarg'ish, 3 ta kulrang hamda 1 ta oq rangli individlar olindi. Olako'zanlarda jun rangi qanday irlsiylanadi? Agar 1-dominant gen 2-ressessiv gen bilan kelsa kulrang, 1-ressessiv gen 2-dominant gen bilan kelsa, sarg'ish tus yuzaga chiqsa, kulrangni yuzaga chiqaruvchi genotiplarni aniqlang.

5. Olako'zanlarning sarg'ish va kulrang mo'ynali organizmlari o'zaro chatishirilganida F<sub>1</sub> duragaylarining barchasi jigarlang bo'ldi. F<sub>2</sub> da esa 9 ta jigarlang, 3 ta sarg'ish, 3 ta kulrang hamda 1 ta oq rangli individlar olindi. Olako'zanlarda jun rangi qanday irlsiylanadi? Oq rangni yuzaga chiqaruvchi genotiplarni aniqlang.

6. \* Yovvoyi aguti (A) tusi uchun har bir junida sariq pigmentli halqaning bo'lishi xos. Uning yuzaga chiqishi A geniga bog'liq bo'lib, retsessiv alleli a esa junlarda sariq halqa bo'lmasligiga olib keladi. Shuning uchun aa genotipli sichqonlar qora junli bo'ladi.

Sichqonlar junining rangi qanday bo'lishiда yana boshqa just xromosomada joylashgan boshqa bir just genlar ham qatnashadi. Uning dominant alleli – B rangning yuzaga chiqishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Retsessiv alleli – b esa A va a genlariga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Dominant gen A bilan birga kelganda jun rangining jigarlang bo'lishiha olib keladi. Agar retsessiv a geni bilan birga kelsa sichqonlar junining rangi «shokolad» rangga ega bo'ladi. Sichqonlarning yana boshqa bir just xromosomasida ularning juni rangiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir just gen bo'lib, uning dominant alleli C ranglarga umuman ta'sir ko'rsatmaydi, retsessiv alleli c esa gomozigota holatda ranglarning yuzaga chiqishiga yo'l qo'ymay ularning ta'sirini bo'g'ib qo'yadi.

Ushbu 3 just belgi bo'yicha geterozigotali sichqonlarni chatishirish natijasida olingan avlodlar 1152 tani tashkil etdi. Ularning nechtasi yovvoyi aguti rangli?

7. To'tiqushlarda patlar rangi 2just birikmagan va allelmas genlar tomonidan belgilanadi. Ikkixil dominant genlarning genotipda birga kelishi yashil rangni belgilaydi, 1-justning dominant geni ikkinchi justning retsessiv geni bilan birga uchraganda sariq yoki havorang namoyon bo'ladi, har ikkala justning retsessiv genlari esa oq rangni belgilaydi. Yashil rangli to'tiqushlarni o'zaro chatishirish natijasida avlodda 27 ta yashil, 9 ta sariq, 10 ta havorang va 4 ta oq rang qushlar olingan, ota-onal genotipini aniqlang.

8. Piyoz rangining irlsylanishi genlarning komplementar ta'siriga bog'liq. A va B geni birligida piyozning oq rangda bo'lishini ta'minlaydi. A geni B genisiz piyozga qizil rang beradi. Qolgan holatlarda piyoz rangi sariq bo'ladi. Qizil va sariq rangli piyozlar o'zaro chatishtirilganda F<sub>1</sub> da 960 ta oq rangli piyozlar olingan, ularni o'zaro chatishtirish natijasida F<sub>2</sub> da 1440 ta o'simlik olingan. F<sub>2</sub> da olingan qizil rangli piyozlarning soni qancha?

9. \*\* Odamda yaqindan ko'rish dominant bo'lib, turli darajada namoyon bo'ladi. Bu belgi har xil autosomada joylashgan dominant genlarning komplementar ta'siri natijasidadir. Genotipda har ikkala dominant genlar uchrasa yaqindan ko'rishning yuqori darajasi, dominant belgilardan faqat bittasi uchrasa o'rta darajasi kuzatiladi.

Ona yuqori darajada yaqindan ko'radigan, ota esa normal ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan oilada ikki farzand tug'ilgan: biri yuqori darajada, ikkinchisi esa o'rta darajada yaqindan ko'radi. Ota-onalar va avlodlar genotipini toping.

10. \* Kartoshka tugunagida antotsian rang bo'lishi asosiy P va R genlariga bog'liq. Lekin ular o'z ta'sirini dominant D gen bo'lqandagina fenotipda namoyon qiladi. Shunga ko'ra P-rrD- genotipli kartoshka tugunagi ko'k-binafsha rang, P-R-D- genotipli kartoshka tugunagi qizil-binafsha rang, ppR-D- pushti rangda bo'ladi. Boshqa holatda tugunak oq rangda bo'ladi. Kartoshkaning geterozigotali qizil binafsha tugunakli o'simligi gomozigota oq rang hosil qiluvchi PPrrdd genotipli o'simlik bilan chatishtirilganda F<sub>b</sub> da 896 ta o'simlik hosil bo'ldi. Ulardan nechta barcha allellar bo'yicha geterozigotali?

11. Oq gulli no'xatlarni o'zaro chatishtirganda barcha F<sub>1</sub> duragaylarining guli qizil rangda bo'lgan. Ota-onalar (1) va F<sub>1</sub> duragaylarining (2) genotipi qanday bo'ladi?

12. Oq gulli no'xatlarni o'zaro chatishtirganda barcha F<sub>1</sub> duragaylarining guli qizil rangda bo'lgan. F<sub>2</sub> da fenotip bo'yicha qanday ajralish sodir bo'ladi?

13. Oq gulli no'xatlarni o'zaro chatishtirganda barcha F<sub>1</sub> duragaylarining guli qizil rangda bo'lgan. F<sub>2</sub> da genotip bo'yicha qanday ajralish sodir bo'ladi?

14. Oq gulli no'xatlarni o'zaro chatishtirganda barcha F<sub>1</sub> duragaylarining guli qizil rangda bo'lgan. F<sub>1</sub> duragaylarini retsessiv belgili

organizm bilan chatishtirilganda avlodda fenotip bo'yicha qanday ajralish sodir bo'ladi?

15. Oq gulli no'xatlarni o'zaro chatishtirganda barcha  $F_1$  duragaylarining guli qizil rangda bo'lgan.  $F_1$  duragaylarini retsessiv belgili organizm bilan chatishtirilganda avlodda genotip bo'yicha qanday ajralish sodir bo'ladi?

16. Tovuqlar tojining shakli komplementar genlar bilan belgilanadi. No'xatsimon va yong'oqsimon tojli tovuqlar chatishtirilganda naslda oddiy, no'xatsimon, yong'oqsimon va gulsimon tojlilar olingan. Ota-onalar genotipini aniqlang?

17. \* Tovuqlar tojining shakli komplementar genlar bilan belgilanadi. No'xatsimon va gulsimon tojli tovuqlar chatishtirilganda naslda oddiy, no'xatsimon, yong'oqsimon va gulsimon tojlilar olingan. Ota-onalar genotipini aniqlang?

18. \*\* Itning koker-sspaniel nomli zotining genotipida ikki noallel genning dominant genlari birgalikda kelsa qora tus, bir dominant gen ikkinchisisiz kelsa sariq va jigarrang tus, ularning retsessiv alellari birgalikda kelsa och sariq tus namoyon bo'ladi. Sariq va jigarrang tusli itlar o'zaro chatishtirilganida ulardan faqatgina qora rangdagi avlodlar olingan. Olingan avlodlar o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da fenotip bo'yicha qanday ajralish olinadi?

19. \* Itning koker-sspaniel nomli zotining genotipida ikki noallel genning dominant genlari birgalikda kelsa qora tus, bir dominant gen ikkinchisisiz kelsa sariq va jigarrang tus, ularning retsessiv alellari birgalikda kelsa och sariq tus namoyon bo'ladi. Sariq va jigarrang tusli itlar o'zaro chatishtirilganida ulardan faqatgina qora rangdagi avlodlar olingan. Olingan avlodlar o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da olingan qora tusli individlar ichida necha xil genotipik sinf bo'ladi?

20. Itning koker-sspaniel nomli zotining genotipida ikki noallel genning dominant genlari birgalikda kelsa qora tus, bir dominant gen ikkinchisisiz kelsa sariq va jigarrang tus, ularning retsessiv alellari birgalikda kelsa och sariq tus namoyon bo'ladi. Sariq va jigarrang tusli itlar o'zaro chatishtirilganida ulardan faqatgina qora rangdagi avlodlar olingan. Olingan avlodlar o'zaro chatishtirilsa,  $F_2$  da olingan jigarrang tusli individlar ichida necha xil genotipik sinf bo'ladi?

21. Itning koker-sspaniel nomli zotining genotipida ikki noallel genning dominant genlari birgalikda kelsa qora tus, bir dominant gen ikkinchisisiz

kelsa sariq va jigarrang tus, ularning retsessiv alellari birgalikda kelsa och sariq tus namoyon bo'ladi. Sariq va jigarrang tusli itlar o'zaro chatishtirilganida ulardan faqatgina qora rangdagi avlodlar olingan. Olingan avlodlar o'zaro chatishtirilsa,  $F_1$  da olingan sariq tusli individlar ichida necha xil genotipik sinf bo'ladi?

22. Itning koker-spaniel nomli zotining genotipida ikki noallel genning dominant genlari birgalikda kelsa qora tus, bir dominant gen ikkinchisisiz kelsa sariq va jigarrang tus, ularning retsessiv alellari birgalikda kelsa och sariq tus namoyon bo'ladi. Sariq va jigarrang tusli itlar o'zaro chatishtirilganida ulardan faqatgina qora rangdagi avlodlar olingan. Olingan avlodlar o'zaro chatishtirilsa,  $F_1$  da olingan olib sariq tusli individlar ichida necha xil genotipik sinf bo'ladi?

23. Qora urg'ochi quyonni oq erkak quyon bilan chatishtirilganda birinchi bo'g'inda olingan avlodning hammasi qora rangli bo'ldi.  $F_1$  duragaylari o'zaro chatishtirilganida  $F_2$  da 27 ta oq va 21 ta qora quyonchalar olindi. Oq rangli individlarning genotipini aniqlang.

24. Qora urg'ochi quyonni oq erkak quyon bilan chatishtirilganda birinchi bo'g'inda olingan avlodning hammasi qora rangli bo'ldi.  $F_1$  duragaylari o'zaro chatishtirilganida  $F_2$  da 27 ta oq va 21 ta qora quyonchalar olindi. Qora rangli individlarning genotipini aniqlang.

25. \*\* Makkajo'xorilarda aleyronning qizil rangi rivojlanishi uchun bir vaqtning o'zida C va P genlarining ta'siri zarur, agar shu genlardan bittasi bo'lmasa aleyron oq bo'ladi. Agar genotipda C va P geni bilan birgalikda K geni ham qatnashsa uning rangi qirmizi bo'ladi. K geni C va P genlari genotipda birga bo'lgandagina o'zining ta'sirini namoyon qiladi. 1) oq; 2) qizil; 3) qirmizi rangli individlarning genotiplarini aniqlang.

26. \*\* Makkajo'xorilarda aleyronning qizil rangi rivojlanishi uchun bir vaqtning o'zida C va P genlarining ta'siri zarur, agar shu genlardan bittasi bo'lmasa aleyron oq bo'ladi. Agar genotipda C va P geni bilan birgalikda K geni ham qatnashsa uning rangi qirmizi bo'ladi. K geni C va P genlari genotipda birga bo'lgandagina o'zining ta'sirini namoyon qiladi. CcPpKk va ccPpKK genotipli organizmlar chatishtirilganda fenotip bo'yicha qanday ajralish olinadi?

27. \*\* Makkajo'xorilarda aleyronning qizil rangi rivojlanishi uchun bir vaqtning o'zida C va P genlarining ta'siri zarur, agar shu genlardan bittasi bo'lmasa aleyron oq bo'ladi. Agar genotipda C va P geni bilan

birgalikda K geni ham qatnashsa uning rangi qirmizi bo'ladi. K geni C va P genlari genotipda birga bo'lgandagina o'zining ta'sirini namoyon qiladi. CcPpKk va ccPpKK genotipli organizmlar chatishtirilganda 960 ta individ olingan bo'lsa, ulardan nechtaasi qizil rangli?

28. \*\* Makkajo'xorilarda aleyronning qizil rangi rivojlanishi uchun bir vaqtning o'zida C va P genlarining ta'siri zarur, agar shu genlardan bittasi bo'lmasa aleyron oq bo'ladi. Agar genotipda C va P geni bilan birgalikda K geni ham qatnashsa, uning rangi qirmizi bo'ladi. K geni C va P genlari genotipda birga bo'lgandagina o'zining ta'sirini namoyon qiladi. CcPpKk va ccPpKK genotipli organizmlar chatishtirilganda 960 ta individ olingan bo'lsa, ulardan nechtaasi qirmizi rangli?

29. \* Makkajo'xorilarda aleyronning qizil rangi rivojlanishi uchun bir vaqtning o'zida C va P genlarining ta'siri zarur, agar shu genlardan bittasi bo'lmasa aleyron oq bo'ladi. Agar genotipda C va P geni bilan birgalikda K geni ham qatnashsa, uning rangi qirmizi bo'ladi. K geni C va P genlari genotipda birga bo'lgandagina o'zining ta'sirini namoyon qiladi. CcPpKk va ccPpKK genotipli organizmlar chatishtirilganda 960 ta individ olingan bo'lsa, ulardan nechtaasi oq rangli?

30. \*\* Kartoshka tugunagida asotsian rang bo'lishi asosiy P va R genlariga bog'liq. Lekin ular o'z ta'sirini dominant D gen bo'lgandagina fenotipda namoyon qiladi. Shunga ko'ra P-rrD-genotipli kartoshka tugunagi ko'k-binafsha rang, P-R-D- genotipli kartoshka tugunagi qizil-binafsha rang, ppR-D- pushti rangda bo'ladi. Boshqa holatda tugunak oq rangda bo'ladi. Kartoshkaning geterozigotali qizil binafsha tugunakli o'simligi gomozigota oq rang hosil qiluvchi PPrdd genotipli o'simlik bilan chatishtirilganda F<sub>2</sub> da 152 ta o'simlik hosil bo'ldi. Ulardan nechtaasi oq rangli?

31. Sichqoniarda jun rangining kulrang bo'lishi dominant A va B genlarning komplementar ta'siriga bog'liq. A geni mustaqil holda jun rangining qora bo'lishini ta'minlaydi, B geni esa A geni ishtirokida junning rangli bo'lishini ta'minlaydi, lekin A geni ishtirokisiz junning rangli bo'lishini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun genotipida dominant gen B bo'lsa ham sichqonlar oq junli bo'ladi. Shu genlarning retsessiv allellari yig'indisi ham jun rangining oq bo'lishiga sabab bo'ladi. Kulrang sichqonlar chatishtirilganda keyingi avlodda olingan sichqonlarning 82 tasi kulrang, 27 tasi qora va 35 tasi oq junli bo'lgan. Chatishirish uchun olingan sichqonlarning genotipini aniqlang.

32. Sichqonlarda jun rangining kulrang bo'lishli dominant A va B genlarning komplementar ta'siriga bog'liq. A geni mustaqil holda jun rangining qora bo'lishini ta'minlaydi, B geni esa A geni ishtirokida junning rangli bo'lishini ta'minlaydi, lekin A geni ishtirokisiz junning rangli bo'lishini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun genotipida dominant gen B bo'lsa ham sichqonlar oq junli bo'ladi. Shu genlarning retsessiv allellari yig'indisi ham jun rangining oq bo'lishiga sabab bo'ladi. Kulrang sichqonlar chatishtilganda F<sub>1</sub> da olingen sichqonlarning 58 tasi kulrang va 19 tasi qora junli bo'lgan. Sichqonlarning genotipini aniqlang.

33. Sichqonlarda jun rangining kulrang bo'lishligi dominant A va B genlarning komplementar ta'siriga bog'liq. A geni mustaqil holda jun rangining qora bo'lishligini ta'minlaydi, B geni esa Ageni ishtirokida junning rangli bo'lishini ta'minlaydi, lekin A geni ishtirokisiz junning rangli bo'lishini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun genotipida dominant gen B bo'lsa ham sichqonlar oq junli bo'ladi. Shu genlarning retsessiv allellari yig'indisi ham jun rangining oq bo'lishiga sabab bo'ladi. Digeterozigotali kulrang sichqonlar retsessiv oq sichqonlar bilan chatishtilsa, keyingi avloddan olingen sichqonlarning fenotipi qanday bo'ladi?

## NOALLEL GENLARNING EPISTATIK TA'SIRI

Noallel genlarning o'zaro ta'sirini yana bir tipi epistazdir. Epistazda bir gen ikkinchi noallel genning fenotipik namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Epistaz dominant yoki retsessiv bo'lishi mumkin. Agar dominant gen ustunlik qilsa - dominant epistaz, agar retsessiv gen ustunlik qilsa retsessiv epistaz deyiladi. Epistaz belgilarning dominantligiga o'xshash. Lekin dominantlikda bir genning ikki alleli, masalan, A>a ustidan dominantlik qilsa, epistazda esa noalleldir ya'ni A>B yoki B>A, a>b yoki b>A dominantlik qiladi. Bunday genlar epistatik genlar nomini olgan. Ular ingibitor yoki suppressorlar deb ataladi hamda J (J) va S harflari bilan ifoda qilinadi. «Bo'g'ilgan» genlar gipostatik genlar deb ataladi.

Retsessiv epistazda retsessiv genlar gomozigota holatda dominant genlarning belgiga ko'rsatayotgan ta'sirini bo'g'adi. Retsessiv epistaz bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'ladi. Bir tomonlama epistazda chatishtilishda qatnashgan bir organizmning retsessiv genlari gomozigota holatda dominant gen ta'sirini to'xtatadi. Ikkinchi organizmda esa

retsessiv gen gomozigota holatda dominant genga ta'sir ko'rsata olmaydi. Bir tomonlama epistazga misol qilib piyozboshning sariq va oq bo'lgan navlarini chatishtirishdagi natijani olamiz. Piyozboshning resessiv cc geni piyozboshning oq rangda bo'lishini ifodalaydi. Uning dominanti esa sariq rangni hosil etadi. R va r allellari esa C geni bilan birlashib yo piyozboshning sariq, yo piyozboshning qizil rangda bo'lishini ta'minlaydi. Oqibatda, sariq piyozboshli piyoz bilan oq piyozboshli piyoz o'simligi chatishtirilsa, F<sub>1</sub> da qizil piyozboshli o'simliklar olinadi. Ular o'zaro chatishtirilsa, F<sub>2</sub> da 9/16 qizil piyozi (C-R), 3/16 sariq piyozboshli (C-rr) va 4/16 oq piyozboshli (cc-R) o'simliklar hosil bo'ladi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin.

	Sariq	oq	
P <sub>1</sub>	CCrr	x	ccRR
Gam	Cr		cR
	qizil		qizil
F <sub>1</sub>	CcRr	x	CcRr

F<sub>2</sub>

♀ \ ♂	CR	Cr	cR	cr
CR	qizil CCRR	qizil CCRr	qizil CcRR	qizil CcRr
Cr	qizil CCRr	sariq CCrr	qizil CcRr	sariq Ccrr
cR	qizil CcRR	qizil CcRr	oq ccRR	oq ccRr
cr	qizil CcRr	sariq Ccrr	oq ccRr	oq ccrr

Resessiv genlarning gomozigota holatda dominant genlarga bir tomonlama ta'siri resessiv epistaz yoki kriptomeriya deyiladi.

Dominant epistazda belgilari ikkinchii avlodda 13:3, 12:3:1 nisbatda ajraladi. Retsessiv epistazda esa 9:3:4 nisbatta ajraladi.

## Epistazga doir masalalar va topshiriqlar

1. Qovoq mevasining oq rangi V, sariq rangi U, yashil rangi u gen bilan ifodalanadi. V gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi, quyidagi VvUu va vvUu genotipga ega organizmlar o'zaro chatishdirilsa, birinchi bo'g'in duragaylarining fenotipi qanday nisbatda bo'ladi?

2. Qovoq mevasining oq rangi V, sariq rangi U, yashil rangi u gen bilan ifodalanadi. V gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi, quyidagi VvUu va VvUu genotipga ega organizmlar o'zaro chatishdirilsa, birinchi bo'g'in duragaylarining fenotipi qanday nisbatda bo'ladi?

3. Qovoq mevasining oq rangi V, sariq rangi U, yashil rangi u gen bilan ifodalanadi. V gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi, quyidagi VvUu va VvUu genotipga ega organizmlar o'zaro chatishdirilsa, birinchi bo'g'in duragaylarining fenotipi qanday nisbatda bo'ladi?

4. Qovoq mevasining oq rangi V, sariq rangi U, yashil rangi u gen bilan ifodalanadi. V gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi, quyidagi VvUu va vvUu genotipga ega organizmlar o'zaro chatishdirilsa, birinchi bo'g'in duragaylarining fenotipi qanday nisbatda bo'ladi?

5. Qovoq mevasining oq rangi V, sariq rangi U, yashil rangi u gen bilan ifodalanadi. V gen dominant ingibitor vazifasini bajaradi, quyidagi VVUu va vvUu genotipga ega organizmlar o'zaro chatishdirilsa, birinchi bo'g'in duragaylarining fenotipi qanday nisbatda bo'ladi?

6. Oq patli tovuqlarni o'zaro chatishdirilganda  $F_1$  da barcha duragaylar oq patli,  $F_2$  da esa 650 ta oq, 150 tasi qora rangli bo'lgan.  $F_2$  da olingan oq patli duragaylarning nechtaisi 2 ta gen bo'yicha gomozigotali genotipga ega?

7. Oq patli tovuqlarni o'zaro chatishdirilganda  $F_1$  da barcha duragaylar oq patli,  $F_2$  da esa 650 ta oq, 150 tasi qora rangli bo'lgan.  $F_2$  da olingan oq patli duragaylarning nechtaisi 2 ta gen bo'yicha geterozigotali genotipga ega?

8. Oq patli tovuqlarni o'zaro chatishdirilganda  $F_1$  da barcha duragaylar oq patli,  $F_2$  da esa 650 ta oq, 150 tasi qora rangli bo'lgan.  $F_2$  da olingan qora patli duragaylarning nechtaisi 2 ta gen bo'yicha gomozigotali genotipga ega?

9. \*\* Tovuq patning rangi 2 just allel bo'lмаган va birikmagan genlar bilan ifodalanadi. Birinchi justning dominant geni patning rangli bo'lishini, uning retsessiv alleli esa oq bo'lishini ta'minlaydi. Ikkinchi justning dominant geni patning rangli bo'lishiga to'sqinlik qiladi, uning

retsessiv alleli esa to'sqinlik qilmaydi. Oq patli tovuq va xo'roz chatishtirilganda 716 ta oq, 715 ta rangli jo'ja olingan. Tovuq, xo'rozning genotipini toping.

10. \*\* Tovuq patining rangi 2 juft allel bo'lmagan va birikmagan genlar bilan ifodalanadi. Birinchi justning dominant geni patning rangli bo'lishini, uning retsessiv alleli esa oq bo'lishini ta'minlaydi. Ikkinchchi justning dominant geni patning rangli bo'lishiga to'sqinlik qiladi, uning retsessiv alleli esa to'sqinlik qilmaydi. Oq patli tovuq rangli xo'roz chatishtirilganda 716 ta oq, 715 ta rangli jo'ja olingan. Tovuq, xo'roz, jo'jalarning genotipini toping.

11. \*\* Tovuq patining rangi 2 juft allel bo'lmagan va birikmagan genlar bilan ifodalanadi. Birinchi justning dominant geni patning rangli bo'lishini, uning retsessiv alleli esa oq bo'lishini ta'minlaydi. Ikkinchchi justning dominant geni patning rangli bo'lishiga to'sqinlik qiladi, uning retsessiv alleli esa to'sqinlik qilmaydi. Oq patli tovuq rangli xo'roz chatishtirilganda 5044 ta oq, 3033 ta rangli jo'ja olingan. Ota-onalarning genotipini toping.

12. Oq urug'li loviyani qo'ng'ir urug'li loviya bilan chatishtirilganda birinchi bo'g'inda olingan hamma avlod sarg'ish tusli bo'ldi. Ikkinchchi avlodda esa quyidagicha ajralish kuzatildi: 560 ta sarg'ish, 188 ta qo'ng'ir, 265 ta oq. Olingan oq urug'li individlarda nechta genotipik sind uchraydi, sarg'ish urug'li larning nechtasi sof gomozigotali?

13. Oq urug'li loviyani qo'ng'ir urug'li loviya bilan chatishtirilganda birinchi bo'g'inda olingan hamma avlod sarg'ish tusli bo'ldi. Ikkinchchi avlodda esa quyidagicha ajralish kuzatildi: 560 ta sarg'ish, 188 ta qo'ng'ir, 265 ta oq. Olingan qo'ng'ir urug'li individlarda nechta genotipik sind uchraydi, oq urug'li o'simliklarning nechtasi sof gomozigotali?

14. Oq urug'li loviyani qo'ng'ir urug'li loviya bilan chatishtirilganda birinchi bo'g'inda olingan hamma avlod sarg'ish tusli bo'ldi. Ikkinchchi avlodda esa quyidagicha ajralish kuzatildi: 560 ta sarg'ish, 188 ta qo'ng'ir, 265 ta oq. Olingan sarg'ish urug'li individlarda nechta genotipik sind uchraydi, qo'ng'ir urug'li larning nechtasi sof gomozigotali?

15. \* Piyoz po'stining qizil rangi – B gen, sariq rangini b gen ifodalaydi. V – rang yuzaga chiqishiga ta'sir ko'rsatmaydi, v-ingibitor vazifasini bajaradi, rang yuzaga chiqishiga to'sqinlik qiladi. Po'sti qizil piyoz sariq piyoz bilan chatishtirilganda avlodda qizil, sariq, oq piyozi hoslil bo'ldi. Ota-onalarning genotipini aniqlang.

16. Piyoz po'stining qizil rangi – B gen, sariq rangini b gen ifodalaydi. V – rang yuzaga chiqishiga ta'sir ko'rsatmaydi, v-ingibitor vazifasini bajaradi, rang yuzaga chiqishiغا to'sqinlik qiladi. Po'sti qizil piyoz sariq piyoz bilan chatishtirilganda avlodda qizil, sariq, oq piyozi lar hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan avlodda fenotip bo'yicha qanday ajralish kuzatiladi?

17. Sariq mevali qovoq o'simliklari oq mevali o'simliklar bilan chatishtirilganda  $F_1$  da olingan o'simliklarning mevasi oq rangli bo'lgan.  $F_2$  da esa 204 ta oq mevali, 53 ta sariq mevali va 17 ta yashil mevali o'simliklar olingan.  $F_3$  da olingan oq mevali o'simliklar yashil mevali o'simliklar bilan chatishtirilsa, keyingi avloddag'i meva rangi bo'yicha qanday fenotipga ega bo'ladi?

18. Genlarning epistatik ta'siri natijasida oq mevali qovoq o'simliklari yashil mevali o'simliklar bilan chatishtirilganda keyingi avlodda olingan o'simliklarning 50 %i oq, 25 %i sariq va 25 %i yashil mevali bo'lgan. Chatishtirish uchun olingan o'simliklarning genotipini aniqlang.

19. Sariq mevali qovoq o'simliklari oq mevali o'simliklar bilan chatishtirilganda  $F_1$  da olingan o'simliklarning nevasi oq rangli bo'lgan.  $F_2$  da esa 204 ta oq mevali, 53 ta sariq mevali va 17 ta yashil mevali o'simliklar olingan. Dastlabki ota-onal genotipini aniqlang.

20. \*\*Sulida donning rangi 2 juft allel bo'lmagan, bir-biriga birikmagan genlar tomonidan ifodalanadi. Bitta dominant gen – qora rangni, ikkinchisi – kulrangni belgilaydi. Qora rang geni kulrang genga epistatik ta'sir qiladi. Ikkita retsessiv allellar esa oq rangli rivojlanishini ta'minlaydi. Qora donli suli o'simliklari kulrang donli o'simliklar bilan chatishtirilganda keyingi avlodda olingan o'simliklarning 50 %i qora, 25 %i kulrang va 25 % oq donli bo'lgan. Chatishtirishdan olingan qora donli o'simliklarning ayrimlari oq donli o'simliklar bilan chatishtirilganda keyingi avlodda olingan o'simliklarning  $\frac{1}{2}$  qismi qora,  $\frac{1}{2}$  qismi oq donli bo'lgan. I-chatishtirish uchun olingan o'simliklarning genotipini aniqlang.

21. \*\*Sulida donning rangi 2 juft allel bo'lmagan, bir-biriga birikmagan genlar tomonidan ifodalanadi. Bitta dominant gen – qora rangni, ikkinchisi – kulrangni belgilaydi. Qora rang geni kulrang genga epistatik ta'sir qiladi. Ikkita retsessiv allellar esa oq rangli rivojlanishini ta'minlaydi. Qora donli suli o'simliklari kulrang donli o'simliklar bilan chatishtirilganda, keyingi avlodda olingan o'simliklarning 50 %i qora,

25 % oq donli bo'lgan. Chatishtirishdan olingen qora donli o'simliklarning ayrimlari oq donli o'simliklar bilan chatishtirilganda keyingi avlodda olingen o'simliklarning  $\frac{1}{2}$  qismi qora,  $\frac{1}{2}$  qismi oq donli bo'lgan. 2-chatishtirish uchun olingen o'simliklarning genotipini aniqlang.

22. Sulida A – dominant suppressor, donning qora rangda bo'lishiga olib keladi, a – geni rang hosil bo'lish jarayoniga ta'sir ko'rsatmaydi. B – donning kulrang bo'lishini ta'minlaydi. b – mevaning oq rangda bo'lishini ta'minlaydi. Genotiplari bir-biridan farq qilgan 2 suli chatishtirilganda  $F_1$  da 4096 ta o'simlik olingen, shulardan 1030 tasi kulrang donli, qolganlari esa qora donli bo'lgan. Chatishtirilgan o'simliklarning genotipini aniqlang.

23. G'o'zada A geni tolanning malla, a geni esa oq bo'lishini ta'minlaydi. S geni esa ularning ta'sirini bo'g'ib, tolanning yashil rangda bo'lishiga olib keladi. Uning retsessiv alleli s tola rangiga ta'sir ko'rsatmaydi. Tajribada aaSS x AAss genotipli organizmlar chatishtirilganida  $F_1$  da 180 ta o'simlik,  $F_2$  da esa 800 ta o'simlik olindi. Chatishtirilgan ota-onalarning fenotipini va  $F_2$  da fenotip bo'yicha ajralish nisbatini aniqlang.

24. \* G'o'zada A geni tolanning malla, a geni esa oq bo'lishini ta'minlaydi. S geni esa ularning ta'sirini bo'g'ib, tolanning yashil rangda bo'lishiga olib keladi. Uning retsessiv alleli s tola rangiga ta'sir ko'rsatmaydi. Tajribada aaSS x AAss genotipli organizmlar chatishtirilganida  $F_1$  da 180 ta o'simlik,  $F_2$  da esa 800 ta o'simlik olindi.  $F_2$  da olingen o'simliklardan nechta yashil, oq, malla tolali?

25. Otlar junining kulrang belgisi ikki xil noallel dominant gen ishtirokida rivojlanadi. Ularda B – qora, b – malla junning rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Boshqa xromosomada joylashgan I geni esa B va b genlar funksiyasini susaytiradi. Otlar fermasida gomozigota kulrang biya bilan malla junli ayg'ir chatishtirilganida  $F_1$  da kulrang otlar hosil bo'lgan. Ular o'zaro chatishtirilganida  $F_2$  da kulrang, qora va malla junli otlar hosil bo'lgan.  $F_2$  da fenotipik ajralish nisbati va fenotipik sinflar sonini aniqlang.

26. Sulida donning rangi ikki xil gen ta'sirida rivojlanadi. Dominant genlardan biri donning qora, ikkinchisi kulrang bo'lishini ta'minlaydi. Qora rang hosil qiluvchi gen kulrangni yuzaga chiqaruvchi gen ustidan dominantlik qiladi. Mazkur genlar retsessiv holda donning oq bo'lishiga sababchi bo'ladi. Qora va kulrang donli o'simliklar chatishtirilganida

356 ta qora, 267 ta kulrang va 89 ta oq donli o'simliklar olingan bo'lsa, chatishtirilgan o'simliklarning genotipini aniqlang.

27. Otlar junining kulrang belgisi ikki xil noallel dominant gen ishtirotkida rivojlanadi. Ularda B – qora, b – malla junning rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Boshqa xromosomada joylashigan I geni esa B va b genlar funksiyasini susaytiradi. Kulrang va malla junli otlar o'zaro chatishtirilganida o'zaro teng miqdorda kulrang va qora junli otlar olingan. Chatishtirilgan organizmlarning genotipini toping.

28. \* Xirzutum turiga mansub g'o'za o'simligida chigitning tuksiz bo'lishi dominant va retsessiv holatda nasldan naslga o'tadi. Dominant belgili tuksiz o'simlikning genotipi IIU<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub>BB genlari orqali ifodalanadi. Bunda U<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub> chigitning urug' yo'li tomonidagi, B – geni esa xalaza va yon tomonidagi tukchalarining rivojlanishini ta'minlaydi. Genotipda dominant U<sub>1</sub> yoki U<sub>2</sub>, B allellarining biri kelsa ham tuklar rivojlanadi. Ularning retsessiv allellari u<sub>1</sub>u<sub>1</sub>u<sub>2</sub>u<sub>2</sub> va bb, o'zlarining dominant allellari ta'sir qiladigan chigit qismlarida tukning bo'lmasligini ta'minlaydi. I esa barcha genlar ustidan dominantlik qilib, ularning ta'sir xususiyatini bo'g'ib qo'yadi va u genotipda bo'lgan vaqtida chigit tuksiz bo'ladi. Iiu<sub>1</sub>u<sub>1</sub>U<sub>2</sub>u<sub>2</sub>Bb genotipli organizm iiU<sub>1</sub>u<sub>1</sub>u<sub>2</sub>u<sub>2</sub>bb genotipli organizm bilan chatishtirilganida F<sub>1</sub> da fenotip bo'yicha qanday ajralish olinadi?

29. \*\* Xirzutum turiga mansub g'o'za o'simligida chigitning tuksiz bo'lishi dominant va retsessiv holatda nasldan naslga o'tadi. Dominant belgili tuksiz o'simlikning genotipi IIU<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub>BB genlari orqali ifodalanadi. Bunda U<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub> chigitning urug' yo'li tomonidagi, B – geni esa xalaza va yon tomonidagi tukchalarining rivojlanishini ta'minlaydi. Genotipda dominant U<sub>1</sub> yoki U<sub>2</sub>, B allellarining biri kelsa ham tuklar rivojlanadi. Ularning retsessiv allellari u<sub>1</sub>u<sub>1</sub>u<sub>2</sub>u<sub>2</sub> va bb, o'zlarining dominant allellari ta'sir qiladigan chigit qismlarida tukning bo'lmasligini ta'minlaydi. I esa barcha genlar ustidan dominantlik qilib, ularning ta'sir xususiyatini bo'g'ib qo'yadi va u genotipda bo'lgan vaqtida chigit tuksiz bo'ladi. Iiu<sub>1</sub>u<sub>1</sub>U<sub>2</sub>u<sub>2</sub>Bb genotipli organizm iiu<sub>1</sub>u<sub>1</sub>u<sub>2</sub>u<sub>2</sub>bb genotipli organizm bilan chatishtirilganida F<sub>1</sub> da tukli va tuksiz chigitli o'simliklar nisbati qanday bo'ladi?

30. \*\* Xirzutum turiga mansub g'o'za o'simligida chigitning tuksiz bo'lishi dominant va retsessiv holatda nasldan naslga o'tadi. Dominant belgili tuksiz o'simlikning genotipi IIU<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub>BB genlari orqali

ifodalanadi. Bunda  $U_1 U_1 U_2 U_2$  chigitning urug' yo'li tomonidagi, B – geni esa xalaza va yon tomonidagi tukchalarning rivojlanishini ta'minlaydi. Genotipda dominant  $U_1$  yoki  $U_2$ , B allellarining biri kelsa ham tuklar rivojlanadi. Ularning retsessiv allellari  $u_1 u_1 u_2 u_2$  va  $bb$ , o'zlarining dominant allellari ta'sir qiladigan chigit qismalarida tukning bo'lmasligini ta'minlaydi. I esa barcha genlar ustidan dominantlik qilib, ularning ta'sir xususiyatini bo'g'ib qo'yadi va u genotipda bo'lgan vaqtida chigit tuksiz bo'ladi. Ii  $U_1 u_1 u_2 u_2 Bb$  genotipli organizm iiu,  $u_1 u_2 u_2 bb$  genotipli organizm bilan chatishirilganida  $F_1$  da fenotip bo'yicha qanday ajralish olinadi?

31. Zig'ir gultojbarglari chetining kungurador bo'lishi – A, tekisligi a genga bog'liq. S – gen suppressorlik vazifasini bajaradi, unda ham gultojbarglarning cheti tekis bo'ladi, s – geni ta'sirsiz. Tekis va kungurador gultojbargli o'simliklar chatishirilganida 135 ta kungurador va 225 ta tekis gultojbargli o'simliklar olingan bo'lsa, chatishirilgan o'simliklarning genotipini aniqlang.

32. \* Ba'zan odamlarda qon guruhalining o'ziga xos holatda nasldan naslga o'tishi kuzatiladi («Bombey fenomeni»). Bunday hollarda A va B larning yuzaga chiqishi retsessiv epistaz geni tomonidan bo'g'ib qo'yiladi (h) va bunda I qon guruhi namoyon bo'ladi, shu genning dominant alleli (H) esa qon guruhaliga ta'sirsiz. II va III qon guruhi va H geni bo'yicha geterozigotali (genotiplari:  $I^A I^H Hh$  x  $I^B I^H Hh$ ) ayol va erkak nikohidan I qon guruqli farzandlarning tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

33. \*\* Ba'zan odamlarda qon guruhalining o'ziga xos holatda nasldan naslga o'tishi kuzatiladi («Bombey fenomeni»). Bunday hollarda A va B larning yuzaga chiqishi retsessiv epistaz geni tomonidan bo'g'ib qo'yiladi (h) va bunda I qon guruhi namoyon bo'ladi, shu genning dominant alleli (H) esa qon guruhaliga ta'sirsiz. II va III qon guruhi va H geni bo'yicha geterozigotali (genotiplari:  $I^A I^H Hh$  x  $I^B I^H Hh$ ) ayol va erkak nikohidan II qon guruqli farzandlarning tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

34. \*\* Ba'zan odamlarda qon guruhalining o'ziga xos holatda nasldan naslga o'tishi kuzatiladi («Bombey fenomeni»). Bunday hollarda A va B larning yuzaga chiqishi retsessiv epistaz geni tomonidan bo'g'ib qo'yiladi (h) va bunda I qon guruhi namoyon bo'ladi, shu genning dominant alleli (H) esa qon guruhaliga ta'sirsiz. II va III qon guruhi va H geni bo'yicha geterozigotali (genotiplari:  $I^A I^H Hh$  x  $I^B I^H Hh$ ) ayol va erkak nikohidan III qon guruqli farzandlarning tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

35. \*\* Ba'zan odamlarda qon guruhi larning o'ziga xos holatda nasldan naslga o'tishi kuzatiladi («Bombey fenomeni»). Bunday hollarda A va B larning yuzaga chiqishi retsessiv epistaz geni tomonidan bo'g'ib qo'yiladi (h) va bunda I qon guruhi namoyon bo'ladi, shu genning dominant alleli (H) esa qon guruhlariiga ta'sirsiz. II va III qon guruhi va H geni bo'yicha geterozigotali (genotiplari:  $I^A I^B Hh$  x  $I^B I^B Hh$ ) ayol va erkak nikohidan VI qon guruhi farzandlarning tug'ilish ehtimolini (%) aniqlang.

## NOALLEL GENLARNING POLIMER TA'SIRI

*Polimeriya* – bir belgining bir nechta allel bo'lmagan genlar ta'sirida yuzaga chiqishi. Polimeriya orqali irsiylanish qonuniyatlarini o'rganishning ahamiyati katta. Chunki ko'pgina belgilari polimer (poligen) genlar ta'sirida rivojlanadi va irsiylanadi.

Noallel genlarning polimer irsiylanishini ikkiga: kumulativ va nokumulativ polimeriya xillariga bo'linadi.

Kumulativ polimeriya ko'proq miqdoriy belgilarning irsiylanishida namoyon bo'ladi. Chunonchi, g'o'za o'simligida tupdag'i ko'saklar soni, chigitining og'irligi, poyaning uzunligi polimer irsiylanishga misoldir.

Nilson Ele tajribalarida bug'doy doni po'stlog'in rangi bitta, ikkita, uchta genlar ta'sirida rivojlanishi aniqlangan. Agar bitta dominant gen bug'doy doni po'stlog'iga ta'sir ko'rsatsa  $F_2$  da 1:2:1, ikkita dominant gen ta'sir etsa 1:4:6:4:1, uchta dominant gen ta'sir etsa 1:6:15:20:15:6:1 nisbatda xilma-xillik kuzatiladi.

Nokumulativ polimeriyada esa bunday holat kuzatilmaydi. Genotipdag'i dominant noallel genlarning soni nechta bo'lishiga qaramay, ular bir fenotipli va  $F_2$  da xilma-xillik 15:1 yoki 63:1 nisbatda bo'ladi.

### Polimeriyaga doir masalalar va topshiriqlar

1. Quyonlarning qulog'i uzunligi ikki just polimer genlarga bog'liq. Har bir dominant gen – 6 sm, har bir retsessiv genda qulogning uzunligi – 3 sm. Quyidagi genotiplarni qulog'inining uzunligi bilan to'g'ri joylashtiring.

- 1)  $D_1 D_1 D_2 D_2$ ;    2)  $D_1 d_1 D_2 D_2$ ;    3)  $D_1 D_1 D_2 d_2$ ;    4)  $D_1 D_1 d_2 d_2$ ;
  - 5)  $D_1 d_1 d_2 d_2$ ;    6)  $d_1 d_1 d_2 d_2$ ;    7)  $d_1 d_1 D_2 D_2$ ;    8)  $D_1 d_1 D_2 d_2$ .
- a) 24 sm; b) 21 sm; c) 18 sm; d) 15 sm; e) 12 sm.

2. Tashqi muhit ta'sirlarini hisobga olmaganda odamning baland bo'yli bo'lishi –  $A_1A_1A_2A_2A_3A_3$ , past bo'lishi –  $a_1a_1a_2a_2a_3a_3$ , genlarga bog'liq. Barcha genlar dominant holda bo'lsa bo'y – 180sm, barcha retsessiv bo'lsa – 150sm. Bo'yni 170sm ga teng odamning genotipini aniqlang.

3. Tashqi muhit ta'sirlarini hisobga olmaganda odamning baland bo'yli bo'lishi –  $A_1A_1A_2A_2A_3A_3$ , past bo'lishi –  $a_1a_1a_2a_2a_3a_3$ , genlarga bog'liq. Barcha genlar dominant holda bo'lsa bo'y – 180sm, barcha genlar retsessiv bo'lsa – 150sm. Barcha genlari bo'yicha gomozigotali baland bo'yli erkak va past bo'yli ayol nikohidan qanday bo'y uzunlikdagi farzand tug'iladi?

4. \* Makkajo'xori so'tasining uzunligi 2 juft polimer genlar bilan ifodalanadi. Makkajo'xorining so'tasi 24 sm (hamma genlar dominant) va 16 sm (hamma genlar retsessiv) uzunlikda bo'lgan 2 ta navi chatishtirilganda  $F_2$  da olingan duragaylarning necha %i 24 sm va 16 smli bo'lgan?

5. Makkajo'xori so'tasining uzunligi 2 juft polimer genlar bilan ifodalanadi. Makkajo'xorining so'tasi 24 sm (hamma genlar dominant) va 16 sm (hamma genlar retsessiv) uzunlikda bo'lgan 2 ta navi chatishtirilganda  $F_2$  da olingan duragaylarning necha %i 22 smli bo'lgan?

6. Makkajo'xori so'tasining uzunligi 2 juft polimer genlar bilan ifodalanadi. Makkajo'xorining so'tasi 24 sm (hamma genlar dominant) va 16 sm (hamma genlar retsessiv) uzunlikda bo'lgan 2 ta navi chatishtirilganda  $F_2$  da olingan duragaylarning necha %i 18 sm va 20 smli bo'lgan?

7. \*\* Agar 4 gen bo'yicha gomozigota dominant bo'lgan genotip 104 sm, gomozigota retsessiv bo'lgan genotip 48 sm ni tashkil qilsa, genotipi  $A_1a_1A_2A_2A_3A_3A_4a_4$  bo'lgan o'simlik o'z-o'zidan changlantirilganda  $F_2$  da o'simliklar bo'yining uzunligi bo'yicha qanday xilma-xillik kuzatiladi? Fenotip bo'yicha nechta sinf hosil bo'ladi?

8. \*\* Agar 4 gen bo'yicha gomozigota dominant bo'lgan genotip 104 sm, gomozigota retsessiv bo'lgan genotip 48 sm ni tashkil qilsa, genotipi  $A_1a_1A_2A_2A_3A_3A_4a_4$  bo'lgan o'simlik o'z-o'zidan changlantirilganda  $F_2$  da olingan avlodning necha %ini 83 sm li individlar tashkil qiladi? Sof gomozigotali organizmlar necha % bo'ladi?

9. \*\* Agar 4 gen bo'yicha gomozigota dominant bo'lgan genotip 104 sm, gomozigota retsessiv bo'lgan genotip 48 sm ni tashkil qilsa, genotipi

A<sub>1</sub>a<sub>1</sub>A<sub>2</sub>A<sub>3</sub>A<sub>4</sub>A<sub>5</sub>a<sub>5</sub> bo'lgan o'simlik o'z-o'zidan changlantirilganda F<sub>1</sub>da olingan avlodning necha %ini 76 sm li individlar tashkil qiladi?

10. \*\* Agar 4 gen bo'yicha gomozigota dominant bo'lgan genotip 104 sm, gomozigota retsessiv bo'lgan genotip 48 sm ni tashkil qilsa, genotipi A<sub>1</sub>a<sub>1</sub>A<sub>2</sub>A<sub>3</sub>A<sub>4</sub>A<sub>5</sub>a<sub>5</sub> bo'lgan o'simlik o'z-o'zidan changlantirilganda F<sub>1</sub>da olingan avlodning necha %ini 69 sm li individlar tashkil qiladi?

11. \*\* Agar 4 gen bo'yicha gomozigota dominant bo'lgan genotip 104 sm, gomozigota retsessiv bo'lgan genotip 48 sm ni tashkil qilsa, genotipi A<sub>1</sub>a<sub>1</sub>A<sub>2</sub>A<sub>3</sub>A<sub>4</sub>A<sub>5</sub>a<sub>5</sub> bo'lgan o'simlik o'z-o'zidan changlantirilganda F<sub>1</sub>da olingan avlodning necha %ini 90 sm li individlar tashkil qiladi?

12. \*\* Xizritum turiga mansub g'o'za chigitining urug' yo'li qismidagi tuklar bo'lishi dominant U<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub> genlariga bog'liq. Agar genotipda 4 ta dominant gen bo'lsa tuklar ko'p, 3 ta bo'lsa normal, 2 ta bo'lsa oraliq, bitta bo'lsa juda oz bo'ladi. Bu genlar retsessiv bo'lganida tuklar rivojlanmaydi. Oraliq turdag'i tuklarga ega bo'lgan o'simliklar chatishdirilganida 1120 ta o'simlik olingan bo'lsa, ulardan nechtasida tuklar ko'p bo'ladi?

13. \*\* Xizritum turiga mansub g'o'za chigitining urug' yo'li qismidagi tuklar bo'lishi dominuant U<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub> genlariga bog'liq. Agar genotipda 4 ta dominant gen bo'lsa tuklar ko'p, 3 ta bo'lsa normal, 2 ta bo'lsa oraliq, bitta bo'lsa juda oz bo'ladi. Bu genlar retsessiv bo'lganida tuklar rivojlanmaydi. Oraliq turdag'i tuklarga ega bo'lgan o'simliklar chatishdirilganida 1120 ta o'simlik olingan bo'lsa, ulardan nechtasida tuklar normal bo'ladi?

14. \* Xizritum turiga mansub g'o'za chigitining urug' yo'li qismidagi tuklar bo'lishi dominant U<sub>1</sub>U<sub>1</sub>U<sub>2</sub>U<sub>2</sub> genlariga bog'liq. Agar genotipda 4 ta dominant gen bo'lsa tuklar ko'p, 3 ta bo'lsa normal, 2 ta bo'lsa oraliq, bitta bo'lsa juda oz bo'ladi. Bu genlar retsessiv bo'lganida tuklar rivojlanmaydi. Oraliq turdag'i tuklarga ega bo'lgan o'simliklar chatishdirilganida 1120 ta o'simlik olingan bo'lsa, ulardan nechtasida tuklar umuman bo'lmaydi?

15. Odam terisining rangi ikki xil gen bilan belgilanadi. BBCC genotipli odamlarning terisi qora, bbcc genotipli odamlarniki oq rangda bo'ladi. Genotipda 3 ta dominant gen bo'lsa teri qoramitir, 2 ta bo'lsa oraliq, bitta bo'lsa oqishi bo'ladi.

Terisining rangi oraliq bo'lgan erkak terisi oqishi bo'lgan ayolga uylandi. Ular farzandlarining 6/8 qismida teri rangi oraliq va oqish, 2/

8 qismida qoramtidir va oq bo'lgan. Erkak va ayolning genotipini aniqlang.

16. Odam terisining rangi ikki xil gen bilan belgilanadi. BBCC genotipli odamlarning terisi qora, bbcc genotipli odamlarniki oq rangda bo'ladi. Genotipda 3 ta dominant gen bo'lsa teri qoramtidir, 2 ta bo'lsa oraliq, bitta bo'lsa oqish bo'ladi.

Terisining rangi oraliq bo'lgan ota-onalari qora va oq rang terili farzandlar ko'risibgan. Ota-onaning genotipini aniqlang.

17. \*\* Tovuqlar oyog'ida patning bo'lishi ikki juft polimer nokumulativ genlarga bog'liq. Agar ularidan bittasining dominant geni bo'lsa ham tovuqning oyoqlarida pat bo'ladi. Agar polimer genlar retsessiv holda kelsa, pat rivojlanmaydi. Oyoqlarida pati yo'q tovuq pati bor xo'roz bilan chatishtirilgan, genotiplari  $A_1A_1A_2A_2$  va  $a_1a_1a_2a_2$ .  $F_1$  da 125 ta va  $F_2$  da 1200 ta tovuq va xo'roz olingan.  $F_2$  da olingan avloddan nechtasining oyoqlarida pati bor?

18. \* Tovuqlar oyog'ida patning bo'lishi ikki juft polimer nokumulativ genlarga bog'liq. Agar ularidan bittasining dominant geni bo'lsa ham tovuqning oyoqlarida pat bo'ladi. Agar polimer genlar retsessiv holda kelsa pat rivojlanmaydi. Oyoqlarida pati yo'q tovuq pati bor xo'roz bilan chatishtirilgan genotiplari  $A_1A_1A_2A_2$  va  $a_1a_1a_2a_2$ .  $F_1$  da 125 ta va  $F_2$  da 1200 ta tovuq va xo'roz olingan.  $F_2$  da olingan avloddan nechtasining oyoqlarida pati yo'q?

19. Tashqi muhit ta'sirlarini hisobga olmaganda odamning baland bo'yli bo'lishi ~  $A_1A_1A_2A_2A_3A_3$ , past bo'lishi ~  $a_1a_1a_2a_2a_3a_3$  genlarga bog'liq. Barcha genlar dominant holda bo'lsa bo'y – 180 sm, barcha retsessiv bo'lsa – 150 sm bo'ladi. Past bo'yli ayol o'rta bo'yli erkakka turmushga chiqqan va 4 farzand ko'rgan. Ularning bo'yi 165 sm, 160 sm, 155 sm, 150 sm. Ayol va erkakning genotipi va bo'yining uzunligini toping.

20. Odam bo'yini uzunligi bir necha juft allelmas genlar tomonidan nazorat qilinadi, bu genlar polimeriya tipida o'zaro munosabatda bo'ladi. Agar uch juft polimer genlarning hammasi retsessiv holatda genotipda uchrasa, bo'y uzunligi 150 sm, hammasi dominant holatda bo'lsa 180 sm atrosida bo'ladi. Uchala juft belgi bo'yicha geterozigota organizmlar bo'yini aniqlang.

21. Odam terisining pigmentatsiyasi uchta allelmas dominant genlar tomonidan belgilanadi. Dominant genlar genotipda qancha ko'p uchrasa, terining rangi ham shuncha qora bo'ladi. Negrlarda genotip

A<sub>1</sub>A<sub>1</sub>A<sub>2</sub>A<sub>2</sub>A<sub>3</sub>A<sub>3</sub>, oq tanlilarda esa a<sub>1</sub>a<sub>1</sub>a<sub>2</sub>a<sub>2</sub>a<sub>3</sub>a<sub>3</sub>, bo'ladi. Negr va oq tanlilar avlodni mulotlar deyiladi.

Agar ikki mulotning nikohidan oq tanli bola tug'ilgan bo'lsa, ularning genotipini aniqlang.

22. Jag'-jag' o'simligining mevasi uchburchakli va oval shaklda bo'ladi. Mevaning shakli 2 just birikmagan, allel bo'lmanan genlar bilan ifodalanadi. 2 ta o'simlikni o'zaro chatishtirish natijasida avlodda ajralish namoyon bo'lib, ularning 24 570 tasi uchburchakli va 1638 tasi oval shaklli mevalarga ega bo'lgan. Ota-oni genotipini aniqlang.

23. Makkajo xorining so'tasi 24 va 12 sm uzunlikda bo'lgan ikkita navi chatishtirilgan. Agar har bir dominant gen so'taning 6 sm, retsessiv gen 3 sm uzunligini namoyon qilsa, u holda birinchi avlod duragaylarda so'taning uzunligi qancha bo'ladi? Ikkinci avlodda qanday ajralish kuzatiladi? F<sub>2</sub> dagi 960 ta o'simlikdan nechtasi 1 ta, nechtasi 2 ta, nechtasi 3 ta dominant genli bo'ladi?

24. Mo'ynachilik xo'jaligida ko'paytiriladigan norka mo'ynalarining rangi 2 just birikmagan, noallel genlar bilan ifodalanadi. 2 justning dominant genlari mo'ynaning qo'ng'ir rangini, ularning retsessiv allellari esa mo'ynaning kumush rangda bo'lishini belgilaydi. Nokumulativ polimeriya qoidalariga mos holda irlsiylanadi. Ikti just genlar bo'yicha geterozigotali norkalarni o'zaro chatishtirishi natijasida qanday avlod hosil bo'lishini aniqlang?

25. Quyonlarning bir zotining genotipi A<sub>1</sub>A<sub>1</sub>A<sub>2</sub>A<sub>2</sub> bo'lib, ular quloq suprasining uzunligi 28 sm ga teng, ikkinchi zotini genotipi a<sub>1</sub>a<sub>1</sub>a<sub>2</sub>a<sub>2</sub> bo'lib, ular quloq suprasining uzunligi 12 sm ga teng. Bunday zotlarni o'zaro chatishtirilsa, birinchi avlod duragaylarning quloq suprasi uzunligi necha sm bo'ladi? Ikkinci avlodda ajralish namoyon bo'ladi? Nechta genotipik va fenotipik sinflar hosil bo'ladi?

## GENLARNING KO'PTOMONLAMA TA'SIRI. PLEYOTROPIYA

Pleyotropiya noallel genlarning o'zaro ta'sirining teskari hodisasiidir. Agar noallel genlarning o'zaro ta'sirida ikki, uch noallel gen bir belgining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatsa, pleyotropiyada, aksincha, bir gen bir vaqtning o'zida bir necha belgining rivojlanishini ta'minlaydi.

Masalan, sheroziy qo'y zotida A dominant geni yungning kulrang, a geni esa qora rangda bo'lishiga ta'sir qiladi. A geni gomozigota, ya'ni

AA holatda esa qo'zichoqlarning yungi kulrang bo'lsa-da, ular o'lik tug'iladi. Binobarin, AA geni bir vaqtning o'zida qo'zichoqlar yungi kulrang bo'lsa-da, ularning yashab qolishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, boshqacha aytganda, letallik vazifasini ham bajaradi. Boshqa misol, RR geni g'o'za o'simligida poyaning to'q qizil (antotsian) rangda bo'lishini ta'minlaydi.

Shu bilan bir qatorda, aytilgan gen bargning, hosil shoxining, ochilmagan ko'saklarning, gulyonbarglarning ham to'q qizil rangda bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Odamlarda pleiotropiya albinizm hodisasida ko'zga yaqqol tashlanadi.

Odamlarda Morfan kasalini hosil etuvchi dominant gen uchraydi. Bu gen dominant holatda odamlarda bir vaqtning o'zida oyoqlarning, ayniqsa, qo'l barmoqlarining uzayishiga va ko'z gavharining xiralashishiha olib keladi. Pleiotropiyaga yana bir misol: dastlab afrikaliklarda kuzatilgan o'roqsimon anemiya xastaligidir. Bu xastalik qondagi eritrotsitlarni yumaloq emas, balki o'roqsimon shaklda bo'lishi bilan aloqador. Bu gen allellari gomozigota holatda bo'lganda eritrotsitlar kislorod tashish xossasini yo'qotadi, natijada tug'ilgan bolalar havo yetishmaganligi tufayli tezda o'ladilar. Mazkur gen alleli geterozigota holatida o'roqsimon shakldagi eritrotsitlar qisman yuzaga keladi va kislorod tashishga unchalik putur yetmaydi. O'roqsimon anemiya alleli bo'yicha geterozigota bo'lgan shaxslar bezgak kasali bilan kam og'riydlilar, ya'ni bu gen odamlarga bir tomondan zarar keltirsa (o'roqsimon anemiya), ikkinchi tomondan foydali belgini (bezgakka chidamlilik) keltirib chiqaradi.

### Pleyotropiyaga doir masalalar va topshiriqlar

1. \* Talassemiya autosoma orqali irsiylanadigan to'liq bo'Imagan dominant belgi. Ushbu belgilari bo'yicha gomozigota organizmlarni 90-95 % o'lim bilan tugaydi. Geterozigotali organizmlarda kasallik nisbatan yengil o'tadi. Bir oilada tug'ilgan 3 ta farzandlardan biri Talassemiya kasalligi bilan nobud bo'ldi, ikkinchisi yengil shakli bilan kasallandi. Uchinchisi esa bu kasallik bo'yicha sog'lom edi. Ota-onaning genotipini aniqlang.

2. Talassemiya autosoma orqali chala dominant belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Dominant gomozigotalilar nobud bo'ladi,

geterozigotalilarda kasallik yengil o'tadi. O'roqsimon anemiya retsessiv holatda irsiylanadi va uning gomozigota retsessiv holatlari yashamaydi. Digeterozigotalilar avlodida farzandlarning necha % ida o'roqsimon anemiya namoyon bo'ladi?

3. Talassemiya autosoma orqali chala dominant belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Dominant gomozigotalilar nobud bo'ladi, geterozigotalilarda kasallik yengil o'tadi. O'roqsimon anemiya retsessiv holatda irsiylanadi va uning gomozigota retsessiv holatlari yashamaydi. Digeterozigotalilar avlodida farzandlarning necha % ida genotip ota-onaga o'xshash bo'ladi?

4. Talassemiya autosoma orqali chala dominant belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Dominant gomozigotalilar nobud bo'ladi, geterozigotalilarda kasallik yengil o'tadi. O'roqsimon anemiya retsessiv holatda irsiylanadi va uning gomozigota retsessiv holatlari yashamaydi. Digeterozigotalilar avlodida farzandlarning necha % ida nobud bo'ladi?

5. Talassemiya autosoma orqali chala dominant belgi sifatida nasldan naslga o'tadi. Dominant gomozigotalilar nobud bo'ladi, geterozigotalilarda kasallik yengil o'tadi. O'roqsimon anemiya retsessiv holatda irsiylanadi va uning gomozigota retsessiv holatlari yashamaydi. Digeterozigotalilar avlodida farzandlarning necha % ida talassemianing yengil formasi namoyon bo'ladi?

6. \*\* Tovuqlarning ayrim zotlari kalta oyoqliligi bilan ajralib turadi. Oyoqlari kalta bo'lishi autosomaga birikkan holda irsiyanib, bir vaqtida tovuqlar tumshug'inining kalta bo'lishiga olib keladi. Bu belgi gomozigota holatda embrionlik davridayoq o'limga sababchi bo'ladi. Tovuqchilik fermasida genotipi noma'lum bo'lgan uzun oyoqli xo'roz va kalta oyoqli tovuqlar chatishtilrganda naslda o'lim kuzatilmagani. O'sha kalta oyoqli tovuq boshqa bir xo'roz bilan chatishtilrganda olingan naslda o'lim kuzatilgan va olingan nasl 17472 tani tashkil qilgan. O'lgan jo'jalar soni, ularning genotipini aniqlang.

7. Arilarda qanotining osilib turgan holatda bo'lishini belgilaydigan gen faqat geterozigota holatda (Aa) namoyon bo'lib, gomozigota holatda o'limga olib keladi. Arilarning erkaklari urug'lanmagan tuxumdan rivojlanib, gomozigotali (aa) bo'ladi. Osilgan qanotga ega bo'lgan arilarni, normal trutenlar bilan chatishtilrganda 1200 ta avlod olingan, shu olingan avloddan qanchasi nobud bo'lgan?

8. Arilarda qanotining osilib turgan holatda bo'lishini belgilaydigan gen faqat geterozigota holatda (Aa) namoyon bo'lib, gomozigota holatda o'limga olib keladi. Arilarning erkaklari urug'lanmagan tuxumdan rivojlanib, gomozigotali (aa) bo'ladi. Osilgan qanotli arilar avlodni bo'lgan erkak arilarni genotip va fenotipini aniqlang.

9. \*\* Golshteyn zotiga taalluqli geterozigotali buqa yungning bo'lmasligini yuzaga keltiradigan retsessiv genni o'zida saqlaydi. Ushbu gen gomozigota holda buzoqlarning nobud bo'lishiga olib keladi. Shu zotli buqani genotipi xuddi o'ziga o'xshash bo'lgan 250 ta sigir bilan chatishdirilganda 384ta buzoqchalar olindi. Shu olingan buzoqchalardan nechtaşı gomozigotali?

10. Tulkilarning platina rangli yunglari, kumush rangga nisbatan yuqoriroq qadrlanadi va shunga yarasha narxi ham qimmat bo'ladi. Shuning uchun mo'ynachilik fermalari platina rangli tulkilarni ko'proq olishga harakat qilishadi. Platina rangni yuzaga chiqaruvchi genlar autosomada joylashgan bo'lib, kumush rangni yuzaga chiqaruvchi genga nisbatan dominantlik qiladi. Platina rangni yuzaga chiqaruvchi gen gomozigota holatda kelganda organizmnning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda qanday usulda ish olib borilganda samarali bo'lishini (o'lim yuz bermasligini) aniqlang (chatishdirilishi lozim bo'lgan organizmlar genotipini aniqlang)

11. \*\* Tulkilarning platina rangli yunglari kumush rangga nisbatan yuqoriroq qadrlanadi va shunga yarasha narxi ham qimmat bo'ladi. Shuning uchun mo'ynachilik fermalari platina rangli tulkilarni ko'proq olishga harakat qilishadi. Platina rangni yuzaga chiqaruvchi genlar autosomada joylashgan bo'lib, kumush rangni yuzaga chiqaruvchi genga nisbatan dominantlik qiladi. Platina rangni yuzaga chiqaruvchi gen gomozigota holatda kelganda organizmnning nobud bo'lishiga sabab bo'ladi. Mo'ynachilik fermasida platina rangli tulkilar o'zaro chatishdirilishidan 570 bosh tulki olingan. Shu olingan tulkilardan nechtaşı kumush rangli (platina rangi faqat geterozigota holatda irsiylanadi)?

12. XIX asrda qoramollarning dekster degan qisqa oyoqli turi keng ma'lum edi. Ammo zot ichidagi chatishdirish natijasida olingan avlodlarni hisoblaganda  $\frac{1}{4}$  qismi o'lik holda tug'ilgan,  $\frac{1}{4}$  qismi uzunoyoq, sog'lom bo'lgan. Qisqa oyoqli individlarning genotipini aniqlang va genlarga xarakteristika bering.

13. \*\* Golshitinks zotining geterozigotali buqalari junsizlikni chaqiruvchi retsessiv genni tashiydi. Gomozigotali holatda bu gen buzoqni o'limga olib keladi. Shu buqa ota-onasi sog'lom bo'lgan, o'zi tashuvchi sigir bilan chatishtirilsa, avlodlarda o'limning uchrash ehtimolini aniqlang.

14. \* Kokildor o'rdaklar o'zaro chatishtirilganda olingan tuxumlarning  $\frac{1}{2}$  tasi jo'ja ochdi, embrionlarning  $\frac{1}{4}$  qismi halok bo'ldi. Agar tuxumlarning soni 1252 tani tashkil etsa, olingan avloddan nechta si sog'lom bo'ladi (kokildorlik – dominant gen, letal ta'sirga ega)?

15. \* Odamda o'rgimchak barmoqlilik – araxnodaktilya kasalligi mavjud bo'lib, autosoma dominant belgi hisoblanadi. Bu belgi barmoq shakli bilan birga yana ko'plab belgilarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada bu belgi bo'yicha gomozigotalilarda erta o'lim kuzatiladi. Shu anomaliya bo'yicha geterozigotali erkak va ayol oilasida farzandlarning sog'lom bo'lib tug'ilish ehtimolini toping.

## MASALALARING YECHILISH USULLARI

### Nuklein kislotalar va ırsiyatning molekular asoslariiga doir masalalar

1. DNK fragmentining bitta zanjirida 2546<sup>7</sup> ta nukleotid bor, shu DNK fragmentida jami nechta nukleotid bor?

Yechish: Ma'lumki, DNK da nukleotidlardan qaf'iy qonuniyatlar asosida joylashgan bo'ladi, ya'ni o'zaro komplementar juftliklar A va T (yoki S va G) larning soni (%lari ham) o'zaro teng bo'ladi. Shu bilan birga, purin azot asoslari (A va G)ning yig'indisi pirimidin azot asoslari (S va T) yig'indisiga teng bo'ladi. Shu jumladan, DNKning har bir zanjiridagi nukleotidlardan soni o'zaro teng bo'ladi. Demak, ushbu ma'lumotlardan kelib chiqadiki, bir zanjirida 2546<sup>7</sup> ta nukleotid bo'lsa, ikkinchi zanjirda ham xuddi shuncha nukleotid mayjud. DNK dagi jami nukleotidlardan esa

$$25\ 467 \times 2 = 50\ 934 \text{ tani tashkil qiladi.}$$

Javob: 50 934 ta

14. DNK fragmentida 456 ta nukleotid bor, shu fragmentning uzunligini hisoblang (qo'shni nukleotidlardan orasidagi masofa 0,34 nm).

Yechish: DNK ikki zanjirli bo'lib, ikkisi ham bir xil uzunlikda. DNKdagi jami nukleotidlardan teng miqdorda shu ikki zanjirda joylashgan bo'ladi.

Demak,  $456 : 2 = 228$ , har bir zanjirda 228 tadan nukleotid bor. Har bir nukleotid orasidagi masofa 0,34 nm ga tengligini hisobga olib, 228 ta nukleotidlardan orasidagi masofa qancha ekanligini topamiz, ya'ni

$$228 \times 0,34 = 77,52 \text{ nm}$$

Javob: DNK fragmentining uzunligi 77,52 nm ga teng.

24. DNK zanjirida 450 ta T nukleotidi bo'lib, u barcha nukleotidlarning 15 %ini tashkil qiladi. Shu DNK dagi vodorod bog'lar sonini hisoblang.

Yechish: Yuqorida ta'kidlanganidek, komplementar bo'lgan nukleotidlardan son va foiz jihatidan o'zaro teng bo'ladi. Ya'ni 450 ta timin nukleotidi bo'ladigan bo'lsa, adenin nukleotidi ham 450 ta va umumiyligi nukleotidlarning 15 %ini tashkil qiladi. Demak, T va A  $450 \times 2 = 900$  ta va jami nukleotidlarning 30% ( $15 + 15$ ) ini tashkil qiladi. Jami nukleotidlarga 100% deb qaraydigan bo'lsak, ularning sonini topib olamiz:

$$900 \text{ ta nukleotid} \quad 30\%$$

$$x \text{ ta nukleotid} \quad 100\%, \text{ bundan } x = 900 \times 100 / 30 \quad x = 3000$$

Jami nukleotidlarni ma'lum, lekin bizga vodorod bog'larini hisoblash uchun G va S nukleotidlarning sonini bilishimiz kerak bo'ladi:

1)  $15\% (A) + 15\% (T) + x\% (G+S) = 100\%$  ekanligi ma'lum bo'lsa, unda  $x=70\%$ , o'z-o'zidan G va Sning yig'indisi bo'lgani uchun 2 ga bo'lib olamiz,  $G=35\%$   $S=35\%$ . Bundan

$$3\ 000 \text{ ta nukleotid} \quad 100\%$$

$$x \text{ ta nukleotid} \quad 35\% \text{ bundan } x = 35 * 3000 / 100 \quad x = 1\ 050 \text{ ta.}$$

2) G va S nukleotidlarning hisoblashning 2-usuli:

(A soni) 450ta + (T soni) 450 ta + (G+S soni) x ta = 3000 ta (jami nukleotidlarni ma'lum qilish).

Bundan  $x = 2100$ , G va Sning yig'indisi bo'lgani uchun 2 ga bo'lib olamiz:  $G=1050$   $S=1050$ ta.

DNK tarkibidagi har bir nukleotidlarning soni ma'lum bo'lgach, vodorod bog'lar sonini hisoblaymiz:

$A=T$  juftligi orasida 2 ta vodorod bog'i bor, juftlik soni:  $450 \text{ ta} * 2 = 900 \text{ ta}$  vodorod bog';

$G=S$  juftligi orasida 3 ta vodorod bog'i bor, juftlik soni:  $1\ 050 \text{ ta} * 3 = 3\ 150 \text{ ta}$  vodorod bog'. Har ikkala juftliklar o'rtaсидаги vodorod bog'larni qo'shib olamiz:

$$900 + 3150 = 4050.$$

Javob: ushlbu DNK fragmentida 4050ta vodorod bog'i mavjud.

39. 15 ta aminokislordan tashkil topgan polipeptid zanjirini sintezlashga xizmat qilgan DNK fragmentida nechta nukleotid mavjud?

Yechish: Yuqorida keltirilib o'tilgan nazariy tushunchalarga asoslangan holda bilanizki, har bitta aminokislotani 3 ta nukleotidlardan ketma-ketligi kodlab keladi.

Demak,

$$1 \text{ ta aminokislota} \quad 3 \text{ ta nukleotid}$$

$$15 \text{ ta aminokislota} \quad x \text{ ta nukleotid}$$

$x = 15 * 3 / 1 \quad x = 45$ ta nukleotid. Lekin bu son bizga shu oqsil sinteziga qatnashgan DNK fragmentidagi jami nukleotidlarni bermaydi, chunki oqsil sintezida fragmentning faqat bitta zanjiri qatnashgan bo'ladi.

Shuni hisobga olgan holda  $45 * 2 = 90$  ta nukleotid.

Javob: DNK fragmentida jami 90 ta nukleotid mavjud.

42. Ma'lum bir oqsil gidrolizlanganda 110 molekula suv hosil bo'ldi. Uni sintezlagan DNK fragmentidagi nukleotidlari sonini aniqlang?

Yechish: Oqsilning polipeptid zanjirida har bir aminokislota bir-biri bilan peptid bog'lar yordamida bog'langan holda joylashgan bo'ladi. Ikkita aminokislota bog'lanishidan bitta, 3 ta aminokislotadan 2 ta, 4 ta aminokislotadan 3 ta peptid bog'i hosil bo'ladi va bu masalaning yana bir muhim tomoni shundaki, oqsillardagi peptid bog'lari soni nechta bo'lsa, ularning gidrolizlanishiiga ham xuddi shuncha suv molekulasi sarflanadi. Ushbu masalada 110 ta suv molekulasi qatnashgan bo'lsa, demak, bu oqsilda 110 ta peptid bog'i, ularning sonidan bitta ko'p - 111 ta aminokislota mavjud ekan. Keyin bu aminokislotalardan DNK fragmentidagi nukleotidlari sonini topib olamiz:

$$1 \text{ ta aminokislota} \longrightarrow 3 \text{ ta nukleotid}$$

$$111 \text{ ta aminokislota} \longrightarrow x \text{ ta nukleotid}$$

$x = 111 \cdot 3 / 1$   $x = 333$  ta nukleotid. Bu son faqat fragmentning bitta zanjiridagi nukleotidlarni ifodalagani uchun uni 2 ga ko'paytirib olamiz. Chunki DNKda xuddi unga o'xshaydigan yana bitta zanjir bor.

$$333 \cdot 2 = 666 \text{ ta nukleotid.}$$

Javob: 666 ta nukleotid.

44. Oqsilning molekular massasi 40000 D bo'lsa, uni sintezlaydigan genning uzunligi qancha (nm) (Ita aminokislotaning massasi o'rtacha 100 D, ita nukleotidniki 330 D).

Yechish: Oqsil aminokislotalardan tashkil topgan biopolimer hisoblanadi. Demak, oqsilning massasini uning tarkibidagi aminokislotalarning massa yig'indilari tashkil etadi.

Ushbu masalada gen (DNK) uzunligini topish uchun dastlab oqsil tarkibida nechta aminokislota borligini bilishimiz lozim. Buning uchun

$$1 \text{ ta aminokislota} \longrightarrow 100 \text{ D}$$

$$x \text{ ta aminokislota} \longrightarrow 40\,000 \text{ D}$$

$x = 40\,000 \cdot 1 / 100 = 400$  ta aminokislota. Aminokislotalardan ularni sintezlashga qatnashgan nukleotidlari sonini topib olamiz.

$$1 \text{ ta aminokislota} \longrightarrow 3 \text{ ta nukleotid}$$

$$400 \text{ ta aminokislota} \longrightarrow x \text{ ta nukleotid}$$

$x = 400 \cdot 3 / 1$   $x = 1200$  ta nukleotid. Bu son faqat fragmentning bitta zanjiridagi nukleotidlarni ifodalaydi. Bizga ham aynan 1 ta zanjirdagi nukleotidlari soni kerak (chunki, DNK uzunligini 1 ta zanjiri aniqlab

keladi). Har bitta nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm bo'lsa, 1200 tasi orasidagi masofa qancha ekanligini topamiz.

$$1 \text{ ta nukleotid} = 0,34 \text{ nm}$$

$$1200 \text{ ta nukleotid} = x$$

$$x = 1200 \cdot 0,34 / 1 = 408 \text{ nm.}$$

Javob: 408 nm.

47. Translatsiya jarayonida jami 90 molekula t-RNK qatnashdi. Shu sintezlangan oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalar sonini (1) hamda shu sintez jarayonida matritsa vazifasini bajargan i-RNKdagi tripletlar soni (2) va shu i-RNK ni sintezlangan DNA dagi nukleotidlar sonini (3) toping.

Yechish: Translatsiya-oqsil sintezi jarayonida har bir aminokislotani tashishda alohida-alohida, faqat o'sha aminokislotaning o'zi uchun xos komplementar t-RNK qatnashadi. Demak, t-RNKLar soni 90 ta bo'lsa, aminokislotalar soni ham xuddi shuncha (1). Matritsa – i-RNKda 1 ta aminokislotani 1 ta triplet (uchlik-uchta nukleotid) kodlab keladi, shundan kelib chiqadiki, i-RNKdagi tripletlar soni 90 ta (2).

Agar RNKda 90 ta kodon-triplet bo'lsa, undagi jami nukleotidlar soni  $90 \cdot 3 = 270$  ta bo'ladi. Bundan biz xuddi shu i-RNKni sintezlangan DNA fragmentining faqat bitta zanjirida 270 ta nukleotid borligini bilsak bo'ladi. Har ikkala zanjirdagi nukleotidni topish uchun

$$270 \cdot 2 = 540 \text{ ta nukleotid (3).}$$

Javob: 1-90; 2-90; 3-540

## TO'LADOMINANTLIK

### Monoduragay irsiylanishga doir masalalar va topshiriqlar

3. G'o'zaning hosil shoxi cheklanmagan (A) gomozigotali formasi bilan hosil shoxi cheklangan formasi o'zaro chatishtirildi. F<sub>1</sub> va F<sub>2</sub> bo'g'ining fenotipi va genotipini aniqlang.

Yechish: Genetikaga doir har bir masalani yechishdan oldin keltirilgan belgilarni dominant yoki retsessiv ekanligini belgilab olish lozim.

A<sub>—</sub> («\_» o'rnida «A» yoki «a» allellari bo'lishi mumkin) – hosil shoxi cheklangan (qisq. h.sh.ch.gan)

aa – hosil shoxi cheklanmagan. (qisq. h.sh.ch.magan)

So'ngra dastlabki ota-onalarning genotiplarini yozib olamiz:

P ♀ AA x ♂ aa

**G A a**

**F<sub>1</sub>**, Aa – fenotipi hosil shoxi cheklangan. F<sub>1</sub> da genotip va fenotip bo'yicha ajralish sodir bo'lmadi. F<sub>2</sub> avlodni olish uchun F<sub>1</sub> bo'g'inda olingan duragaylarni o'zaro chatishtiramiz.

**F<sub>1</sub> ♀ Aa x ♂ Aa**

**G A; a A; a**

**F<sub>2</sub>**

Gen: AA; Aa; Aa; aa

Fen: h.sh.ch.gan h.sh.ch.gan h.sh.ch.gan h.sh.ch.magan

5. Ipak qurti urug'ining qoramtilrang (A) oq rangi (a) ustidan dominantlik qiladi. Geterozigotali urg'ochi kapalak shunday erkak kapalak bilan chatishtilganida olingan naslda fenotip bo'yicha qanday ajralish sodir bo'ladi (%larda ifodalang).

**Yechish:**

A\_ («\_» o'mida «A» yoki «a» allellari bo'lishi mumkin) - qoramtilrang (qisqartirilgan Q)

aa – oq rangi (qisqartirilgan O)

Masala shartida ota-onalarning genotiplari geterozigota ekanligi aytilgan (Aa)

**P ♀ Aa x ♂ Aa**

**G A; a A; a**

**F<sub>1</sub>**

Gen: AA; Aa; Aa; aa

Fen: qora qora qora oq

Demak, fenotip jihatdan olingan ajralish quyidagicha: 3 ta qora va 1 ta oq. Buni foizlarda (%) ifodalash uchun:

4 ta \_\_\_\_\_ 100%

3 ta \_\_\_\_\_ x % x = 3•100 / 4 = 75% qora rangli urug'lar bo'lsa, qolgan 25 % oq rangli urug'lar bo'lib hisoblanadi.

Javob: 75% qora; 25% oq rangli urug'lar olinadi.

16. Burishgan va silliq urug'li no'xat o'simligi chatishtilganda F<sub>2</sub> da 7324 ta no'xat olindi, shulardan 1850 tasi burishgan edi. Bu holatda qaysi belgi dominantlik qilgan? F<sub>2</sub> da olingan o'simliklardan nechta gomozigotali ekanligini aniqlang.

### Yechish:

Ushbu masalada qaysi belgi ustunlik qilgani haqida ma'lumot keltirilmagan, buni masala shartida, yechish davomida topish lozim. Hozircha masala shartini berilgan ma'lumotlar yordamida ifodalaymiz:

F<sub>1</sub> gen: burishgan X silliq.

F<sub>1</sub>  
gen:

F<sub>2</sub> jami olingan avlod 7324 ta, shundan 1850 tasi burishgan.

F<sub>2</sub> da olingan silliq no'xatlarning sonini hisoblash uchun 7324 - 1850 = 5474. Demak, silliq va burishgan belgilarning o'zaro nisbati 5474 : 1850, ya'ni 3:1 (ushbu nisbatni keltirib chiqarish uchun, shartda olingan har ikkala belgiga tegishli sonlarni, ya'ni silliq - 5474 va burishgan - 1850 ni shu ikkalasidan eng kichigiga, ya'ni 1850 ga bo'lib olish lozim:  $5474 / 1850 = 3$ ;  $1850 / 1850 = 1$ , bundan, silliq 3: burishgan 1 ekanligi kelib chiqadi). Mendelning II qonuniga ko'ra silliq dominant, burishgan retsessiv belgi ekanligini 3:1 nisbatdan bilib olsak bo'ladi. Ikkinchisi shart - F<sub>2</sub> dagi gomozigotalilar sonini topish uchun masala shartini to'la holda yozib olamiz:

Plen:	burishgan	X	silliq.
gen:	♀ aa	♂ AA	
G	a	A	
F <sub>1</sub>	Aa	x	Aa
G	A; a	A; a	
F <sub>2</sub>			
Gen:	<u>AA</u> ; Aa; Aa; <u>aa</u>		
Fen:	silliq	silliq	burishgan

retsessiv gomozigotali organizmlar

soni ma'lum 1850 ta, dominant

gomozigotalar sonini hisoblaymiz:

3 ta silliq ————— 1 ta (dominant gomozigota AA)

5474 ta silliq ————— x ta. x =  $5474 / 3 \approx$  taxminan 1825 ta.

Javob: Dominant belgi - silliq; gomozigotalilar:

1825 ta AA + 1850 ta aa.

50. Tovuqlarda gulsimon toj R geni bilan, bargsimon toj esa r geni bilan belgilanadi. Gulsimon tojli xo'roz ikkita gulsimon tojli tovuq bilan

chatishtirildi. Birinchisi 14 ta jo'ja berdi, ularning hammasi gulsimon tojli edi. Ikkinchisi esa 13 ta jo'ja berdi, ulardan 10 tasi gulsimon, 3 tasi esa bargsimon tojli edi. Barcha ota-onalarning genotipini aniqlang.

Yechish:

R\_ («\_» o'rnida «R» yoki «r» allellari bo'lishi mumkin) – gulsimon toj

rr – oddiy toj

Birinchi chatishtirish

Pfen	gulsimon	X	gulsimon
$\delta$	R_	$\varphi$	R_
F <sub>1</sub>	R_		

Barchasi gulsimon

Ikkinci chatishtirish

Pfen	gulsimon	X	gulsimon
$\delta$	R_	$\varphi$	R_
F <sub>1</sub>			

Gen: R\_

Fen: gulsimon oddiy

va rr

Masala shartini yozib oldik. Ushbu masalada dastlabki e'tiborni ikkinchi chatishtirishiga qaratish lozim. Ikki dominant belgili organizm chatishtirilganida retsessiv gomozigotali «rr» oddiy tojli avlod olingan. Bu chatishtirilgan ota-onaning ham genotipida retsessiv genlar borligidan dalolat beradi. Xullas, ikkinchi chatishtirilishdagi ota-onalar genotiplar geterozigotali – Rr.

Endi birinchi chatishtirishdagi organizmlar genotipini topamiz. Bunda chatishtirilgan xo'rozning genotipi ma'lum Rr, tovuq esa R\_ holatida turibdi. Masala shartida ushbu chatishtirilishdan olingan barcha organizmlar gulsimon tojli ekanligi aytilgan, demak, noma'lum «\_» o'rniga dominant «R» allelini qo'yib olamiz (chunki retsessiv «r» qo'yilsa F<sub>1</sub>da oddiy tojli organizmlar ham olinishi kerak bo'ladi).

Birinchi chatishtirish

Pfen	gulsimon	X	gulsimon
$\delta$	Rr	$\varphi$	RR
G	R r	R	
F <sub>1</sub>	Rr	RR	

Barchasi gulsimon

Ikkinci chatishtirish

Pfen:	gen:	gulsimon	X	gulsimon
$\delta$	Rr	$\varphi$	Rr	Rr
G	R r		R r	R r
F <sub>1</sub>				

Gen: RR

Fen: gulsimon

Rr

Fen: gulsimon

Rr

Fen: gulsimon

rr

Fen: oddiy

Javob: Birinchi chatishtirishdagi ota-onsa:  $\delta$  Rr x  $\varphi$  RR; ikkinchi chatishtirishdagi ota-onsa:  $\delta$  Rr x  $\varphi$  Rr;

## Monoduragay chatishirishda to'liqsiz dominant holatda irsiylanuvchi belgilarga doir masalalar va topshiriqlar

24. Odamlarda anoftalm (ko'z olmasining bo'lmasligi) a allel geni orqali irsiylanadi. Uning A alleli ko'zning normal rivojlanishini ta'minlaydi. Geterozigotalilarda esa ko'z olmasi kichraygan bo'ladi. A geni bo'yicha geterozigotali bo'lgan erkak ko'zlar normal bo'lgan ayol bilan oila qurdi. Bu oilada kichraygan ko'zli farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang (%).

Yechish:

AA – sog'lom;

Aa – ko'z olmasi kichraygan;

aa – anoftalm bilan kasallangan.

Pien gen:	kichraygan	X	sog'lom
	♂ Aa	♀ AA	
G	A a		A
F			
Gen:	AA	Aa	
Fen:	sog'lom		kichraygan

Demak, bu oilada har ikki farzanddan biri ko'z olmasi kichraygan bo'lib tug'ilari ekan. Foizlarda ifodalasak:

2 ta (AA – sog'lom va Aa – kichraygan) tug'ilish ehtimoli — 100%

1 ta (Aa-kichraygan) —— x % x=100 / 2 = 50%

Kichraygan ko'zli farzandlarning tug'ilish ehtimoli 50%.

Javob: 50% ehtimollikda.

25. Sistinuriyaning bir formasi – benor odamning siydigida bir qancha aminokislotalarning, jumladan, sistin, arginin, ornitin kabilarning uchrashi, moddalar almashinuvining buzilishi bilan xarakterlanadi, autosoma retsessiv belgi sisatida irsiylanadi. Genotip jihatdan geterozigotali organizmlarda faqatgina siydigida sistin aminokislotsining miqdori yuqori bo'lishi kuzatilsa, gomozigotalilarda kasallik buyrakda tosh hosil bo'lishi bilan kechadi. Ota-onalardan biri bu kasallik bilan kasallanib, genotipi gomozigota holatda, ikkinchisida esa klinik belgilari namoyon bo'lmay, faqatgina siydiqi tarkibidagi sistin moddasining miqdori yuqori bo'lsa, bu oilada tug'iladigan farzandlarda kasallikning uchrash ehtimolini (%) aniqlang.

Yechish:

**AA – sog'lom;**

Aa – yengil forma faqatgina aminokislota miqdori baland;  
aa – sistinuriyaning og'ir formasi, buyrak tosh kasalligi.

Pfen: gen:	yengil forma	X	og'ir forma
	♀ Aa	♂ aa	
G	A a	a	
F			
Gen:	Aa	aa	
Fen:	yengil forma	og'ir forma	

Demak, bu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan barcha farzandlarda sistinuriya kasalligi (yengil va og'ir formalarda) uchraydi. 100% ehtimollikda.

Javob: 100% ehtimollikda.

28. Giperxolesterinemiya kasalligi autosoma dominant belgi sifatida irsiylanadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gomozigotalarda esa kasallik ateroskleroz va terida ksantomalar (xavfsiz hisoblangan o'smalar) paydo bo'lishi bilan kechadi.

Agar ota-onalarning har ikkalasi ham kasallikning yengil formasi bilan kasallangan bo'lsa, bu oilada giperxolesterinemiya bilan kasallangan farzndlarning tug'ilish ehtimolini (%) toping.

Yechish:

**AA – giperxolesterinemiya og'ir shakli – ateroskleroz va kasantomalar uchraydi;**

**Aa – yengil forma, faqatgina xolesterin miqdori baland;**

**aa – sog'lom.**

Pfen: gen:	yengil forma	X	yengil forma
	♀ Aa	♂ Aa	
G	A a	A a	
F			
Gen:	AA; Aa; aa		
Fen:	og'ir forma	yengil forma	yengil forma sog'lom

Ushbu belgi bo'yicha bu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan jami farzandlar - 4 ta, shularidan 3 tasi kasallangan (og'ir va yengil formada ham kasallik mavjud, shuning uchun ularni birgalikda olish kerak) va 1 tasi sog'lom. Foizlarda ifodalasak:

4 ta tug'ilish ehtimoli ————— 100%

3 ta kasallangan (AA, Aa, Aa) —————  $x\% \times 100 \cdot 3 / 4 = 75\%$

Ushbu oilada giperxolesterinemiya bilan kasallangan farzandlarning tug'ilish ehtimoli 75%

Javob: 75% ehtimollikkda

### KODOMINANTLIK

**Qon guruhlaring irlashtirishiga doir masalalar va topshiriqlar**

1. II qon guruhi bo'yicha geterozigotali ayol qon guruhi I bo'lgan erkakka turmushga chiqdi. Bu oilada farzandlarning qanday qon guruhlari ega bo'llib tug'ilish ehtimolini toping.

Yechish:

Qon guruhlarni belgilash quyidagi tartibda bo'ladi:

Qon guruhlari	Gomozigota holati	Geterozigota holati
I yoki (0)	I <sup>a</sup> I <sup>a</sup>	—
II yoki (A)	I <sup>a</sup> I <sup>A</sup>	I <sup>A</sup> I <sup>A</sup>
III yoki (B)	I <sup>A</sup> I <sup>B</sup>	I <sup>A</sup> I <sup>B</sup>
IV yoki (AB)	—	I <sup>A</sup> I <sup>B</sup>

P <sub>gen:</sub> ♀ I<sup>A</sup>I<sup>B</sup>      X ♂ I<sup>A</sup>I<sup>B</sup>

G I<sup>A</sup>;                          I<sup>A</sup>I<sup>B</sup>

F I<sup>A</sup>I<sup>B</sup>                          I<sup>A</sup>I<sup>B</sup>

II guruhi      I guruhi

Javob: Ushbu oilada I va II qon guruhiga ega bo'lgan farzandlar tug'ilishi mumkin.

## DIDURAGAY CHATISHTIRISHGA DOIR MASALALAR

1. No'xatda dukkakning bo'g'imliliqi oddiyligiga nisbatan, mevaning yashil rangi sariq rangiga nisbatan retsessiv belgi hisoblanadi. Gomozigota bo'g'imli, sariq mevali va oddiy, yashil mevali o'simliklar o'zaro chatishtirilganida  $F_1$  duragaylarining fenotipi qanday bo'ladi?

Yechish:

- A\_ – oddiy dukkak (qisqartirilgan – o.);  
Aa – bo'g'imli dukkak (qisqartirilgan – b.);  
B\_ – sariq meva (qisqartirilgan – s.);  
bb – yashil meva (qisqartirilgan – y.).

	b.s		o.y
P <sub>gen</sub>	♀ aaBB	x	♂ AAbb
G	aB		Ab
F <sub>1</sub> fen.	AaBb		

Barchasi oddiy dukkak, sariq mevali.

Javob: gen: AaBb fen: Barchasi oddiy dukkak, sariq mevali.

3. Gomozigota qora to'lqinsimon yungli quyon oq silliq yungli quyon bilan chatishtirilganida  $F_1$  da hammasi qora to'lqinsimon yungli bo'lgan quyonlar olingan. Agar  $F_1$  duragaylari qayta chatishtirilsa,  $F_2$  da olingan duragaylarning fenotipi va genotipi qanday bo'ladi?

Yechish:

Ushbu masalada, dastavval, dominant va retsessiv belgilarni aniqlab olish lozim. Buning uchun masala shartining boshida chatishtirilgan va  $F_1$  olingan organizmlarning belgilariiga e'tiborimizni qaratamiz: Gomozigota qora to'lqinsimon yungli quyon oq silliq yungli quyon bilan chatishtirilganida  $F_1$  da hammasi qora to'lqinsimon yungli bo'lgan quyonlar olingan. Gomozigota qora va oq allellar chatishtirilganida qora rangli avlodlar olinayapti, demak qora dominant belgi, xuddi shunday gomozigotali to'lqinsimon va silliq chatishtirilganida barchasi to'lqinsimon yungli avlod olingan, to'lqinsimon yung ham dominant belgi.

- A\_ – qora yung (qisqartirilgan – q.);  
Aa – oq yung (qisqartirilgan – o.);

B<sub>—</sub> – to'lqinsimon yung (qisqartirilgan – t.);

bb – silliq yung (qisqartirilgan – s.).

	♂ q.t ♀ AAbb	x	♂ o.s ♀ aabb	
P <sub>fen</sub> gen	AB		ab	
G				
F <sub>1</sub> gen fen	AaBb			AaBb fenotip jihatdan barchasi qora to'lqinsimon yungli

AaBb x AaBb

F<sub>2</sub>:

♂ \ ♀	AB	Ab	aB	ab
AB	AABB	AABb	AaBB	AaBb
Ab	AAAb	AAbb	AaBb	Aabb
aB	AaBB	AaBb	aaBB	aaBb
ab	AaBb	Aabb	aaBb	aabb
	q.t	q.s	o.t	o.s

Fenotip bo'yicha ajralish nisbatini hisoblaymiz:

Qora, to'lqinsimon yunglilar (q.t) — 9 ta,

Qora, silliq yunglilar ( q.s ) — 3 ta,

Oq, to'lqinsimon yunglilar (o.t) — 3 ta,

Oq, silliq yunglilar ( o.s ) — 1 ta.

Fen: 9:3:3:1.

Genotip bo'yicha ajralish nisbatini hisoblaymiz:

AABB – 1 ta      AaBb – 4 ta      aaBB – 1 ta

AABb – 2 ta      AAAb – 1 ta      aaBb – 2 ta

AaBB – 2 ta      Aabb – 2 ta      aabb – 1 ta

umumlashtirsak, genotip bo'yicha ajralish nisbati: 1:2:2:4:1:2:1:2:1

Javob: fenotip bo'yich ajralish nisbati: 9:3:3:1, genotip bo'yicha ajralish nisbati: 1:2:2:4:1:2:1:2:1.

7. Bangidevona o'simligida gulning qizil rangi uning oqligiga nisbatan to'la dominantlik qila olmaydi, natijada geterozigota holatda gulning rangi qirmizi bo'ladi. O'simlik mevasi sirtining tikanliligi tekisligiga

nisbatan to'la dominantlik qiladi. Qirmizi gulli va tikanli mevaga ega bo'lgan o'simliklar chatishtirilishi natijasida olingan  $F_1$  avlod ichida tekis mevali o'simliklar uchragan. Agar  $F_1$  da 960 ta o'simlik olingani ma'lum bo'lsa,  $F_1$  da genotip va fenotip bo'yicha ajralish nisbatlarini aniqlang.

**Yechish:**

AA – qizil rang (qisqartirilgan – q.);

Aa – qirmizi rang (qisqartirilgan – qm.);

Aa – oq rang (qisqartirilgan – o.);

B<sub>—</sub> – tikanli meva sirti (qisqartirilgan – tli.);

bb – tekis meva sirti (qisqartirilgan – t.).

$P_{\text{gen}}^{\text{fen}}$	qm.tli AaB <sub>—</sub>	qm.tli AaB <sub>—</sub>	$\times$ $\text{shu joyda noma'lum allellar}$ $(\_)$ o'rnida «b» qo'ysak bo'ladi, $\text{chunki } F_1 \text{ da tekis mevali (bb)}$ $\text{individlar olingan, demak}$ $\text{chatishtirilgan organizmlar ham}$ $\text{retsessiv allellarga ega.}$	
-------------------------------	----------------------------	----------------------------	--	--

$P_{\text{gen}}^{\text{fen}}$	qm.tli ♀ AaBb	qm.tli ♂ AaBb
-------------------------------	------------------	------------------

$F_1$

$\delta$	$\varphi$	AB	Ab	aB	ab
AB	AABB	AABb	AaBB	AaBb	AaBb
	q.tli	q.tli	qm.tli	qm.tli	qm.tli
Ab	AABb	AAbb	AaBb	Aabb	Aabb
	q.tli	q.t	qm.tli	qm.t	qm.t
aB	AaBB	AaBb	aaBB	aaBb	aaBb
	qm.tli	qm.tli	o.tli	o.tli	o.tli
ab	AaBb	Aabb	aaBb	aabb	aabb
	qm.tli	qm.t	o.tli	o.t	o.t

Fenotip bo'yicha ajralish nisbatini hisoblaymiz, ya'ni bir xil belgiga ega bo'lgan organizmlarni umumlashtiramiz.

Qizil, tikanli mevalilar (q.tli) — 3 ta,

Qizil, tekis mevalilar ( q.t ) — 1 ta,

Qirmizi, tikanli mevalilar (qm.tli) — 6 ta,

Qirmizi, tekis mevalilar (qm.t) — 2 ta,

Oq, tikanli mevalilar (o.tli) — 3 ta,

Oq, tekis mevalilar (o.t) — 1 ta.

Sinflar soni so'raladigan bo'lsa fenotipik sinflar soni 6 ta:

1. Qizil, tikanli mevalilar. 2. Qizil, tekis mevalilar.

3. Qirmizi, tikanli mevalilar. 4. Qirmizi, tekis mevalilar.

5. Oq, tikanli mevalilar. 6. Oq, tekis mevalilar sinflari.

Fen: 6:3:3:2:1:1 6ta sinf

Genotip bo'yicha ajralish nisbatini hisoblaymiz:

AABB — 1 ta      AaBb — 4 ta      aaBB — 1 ta

AABb — 2 ta      AAbb — 1 ta      aaBb — 2 ta

AaBB — 2 ta      Aabb — 2 ta      aabb — 1 ta

umumlashtirsak, genotip bo'yicha ajralish nisbati: 1:2:2:4:1:2:1:2:1

Javob: fenotip bo'yicha ajralish nisbati: 6:3:3:2:1:1; 6 ta sinf;

genotip bo'yicha ajralish nisbati: 1:2:2:4:1:2:1:2:1; 9 ta sinf.

30. Odamda qo'y ko'zlik va o'naqaylik dominant. Erkak ko'k ko'z, o'naqay bo'lib, uning onasi chapaqay bo'lgan. Ayol ko'k ko'z va o'naqay bo'lgan turmushdan ko'k ko'z, chapaqay bola tug'ilishi ehtimolini toping. Bu oilada oldin ko'k ko'z chapaqay bola tug'ilgan.

Yechish:

A\_ — qo'y ko'z (qisqartirilgan — q.);

Aa — ko'k ko'z (qisqartirilgan — k.);

B\_ — o'naqay (qisqartirilgan — o');

bb — chapaqay (qisqartirilgan — ch.).

Erkakning genotipini aniqlab oladigan bo'lsak, aaB\_, noma'lum allel o'rniqa onasidan o'tgan chapaqaylik «b» belgisini qo'yib olamiz, chunki onadan faqatgina chapaqaylik belgisigina o'tishi mumkin. Ayolning genotipi ham berilgan, ma'lumot bo'yicha aaB\_, undagi noma'lum allelni ushbu oilada tug'ilgan ko'k ko'z chapaqay (aabb) bola orqali aniqlab olsak bo'ladi. Bu oilada ushbu farzandning tug'ilishi uchun ayolda ham, erkakda ham retsessiv belgining genlari bo'lishi shart, erkak genotipida har ikkala gen mavjud: aaBb, demak ayolning genotipi aaBb bo'lishi shart.

	k.o'		k.o'
P <sup>fen</sup> <sub>gen</sub>	♂ aaBb	x	♀ aaBb
G	aB; ab		aB; ab

$\delta$	$\varphi$	aB	ab
aB		aaBB k.o'	aaBb k.o'
ab		aaBb k.o'	aabb k.ch

Bu oilada ushbu belgilär bo'yicha tug'ilishi mumkin bo'lgan jami farzandlar 4 ta, shulardan faqat bittasigina ko'k ko'z chapaqay. Foizlarda ifodalaydigan bo'lsak.

4 ta tug'ilish ehtimoli ————— 100%

1 ta ko'k ko'z, chapaqay —————  $x \%$   $x = 100 \cdot 1 / 4 = 25\%$

Javob: Ushbu oilada ko'k ko'z chapaqay farzandlarning tug'ilish ehtimoli 25%.

37. Odamda talassemiya to'liqsiz dominant belgi sifatida irlanadi. Gomozigota dominant holatda nobud bo'ladi. Geterozigota holatda yashaydi, kasallik yengil kechadi. O'rroqsimon anemiya retsessiv holda irlanadi va o'limga olib keluvchi kasallik hisoblanadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tadi. Agar ota-onasi bu belgilari bo'yicha geterozigotali bo'lsa, bolalarning necha foizi ikkala anomaliya bilan kasallangan bo'lib tug'iladi?

Yechish:

AA – talassemiyaning og'ir formasi, o'limga olib keladi (qisqartirilgan – to').;

Aa – talassemiyaning yengil formasi (qisqartirilgan – ty.);

Aa – talassemiya bo'yicha sog'lom (qisqartirilgan – ts.);

BB – o'rroqsimon anemiya bo'yicha sog'lom (qisqartirilgan – as.);

Bb – o'rroqsimon anemiya yengil formasi (qisqartirilgan – ay.);

bb – o'rroqsimon anemiya o'g'ir formasi, o'limga olib keladi (qisqartirilgan – ao').).

$$P_{gen}^{fem} \quad \begin{matrix} ty.ay \\ \delta \end{matrix} \quad AaBb \quad \times \quad \begin{matrix} ty.ay \\ \varphi \end{matrix} \quad AaBb$$

$\delta$	$\varphi$	AB	Ab	aB	ab
AB		AABB to'.as	AABb To'.ay	AaBB AaBb	AaBb Ty.ay
Ab		AABb To'.ay	AAbb To'.ao'	Ty.ay	Aabb Ty.ao'
aB		AaBB Ty.as	AaBb Ty.ay	aaBB Ts.as	aaBb Ts.ay
ab		AaBb Ty.ay	Aabb Ty.ao'	aaBb Ts.ay	aabb Ts.ao'

AABB – talassemianing o'g'ir (o'lim) formasi, anemianing yengil formasi – 2 ta

Aabb – talassemianing o'g'ir (o'lim) formasi, anemianing o'g'ir (o'lim) formasi – 1

AaBb – talassemianing yengil formasi, anemianing yengil formasi – 4 ta

Aabb – talassemianing yengil formasi, anemianing o'g'ir (o'lim) formasi – 2 ta

Har ikkala anomaliya bilan kasallanganlari 9 ta ekan (bunda kasalliklarning barcha og'ir va yengil formalari olinadi).

Foizlarda ifodalasak:

16 ta tug'ilish ehtimoli \_\_\_\_\_ 100%

9 ta ikki belgi bo'yicha kasal \_\_\_\_\_  $x \% = 100 \cdot 9 / 16 = 56,25\%$

Javob: Farzandlar ikkala anomaliya bilan kasallangan bo'lib, tug'ilish ehtimoli 56,25%.

48. Glaukomaning bir nechta yo'l bilan irlsylanadigan formalari mavjud. Birinchi formasi autosoma dominant, ikkinchi formasi – retsessiv, bu formasi ham autosoma orqali, lekin birinchi forma bilan birikmagan holda irlsylanadi. Agar ota-onaning ikkalasi ham kasallikning har ikkala formasi bo'yicha geterozigota bo'lsa, bu oilada farzandlarning glaukomaniug faqat bir turi bilan kasallanib tug'ilish ehtimoli qancha? (%)

Yechish:

A – glaukoma I forma (qisqartirilgan – gl.);

Aa – sog'lom glaukoma I forma (qisqartirilgan – sl.);

B\_ – sog'lom glaukoma II forma (qisqartirilgan – sII);  
 bb – glaukoma II forma (qisqartirilgan – gII.).

$$\begin{array}{c}
 \text{♂ gl. sII} & \text{♀ gl. sII} \\
 \text{P}_{\text{gen}}^{\text{fem}} \quad \delta \quad \text{AaBb} \quad \times \quad \text{♀} \quad \text{AaBb}
 \end{array}$$

F

$\sigma$	$\Omega$	AB	Ab	aB	ab
AB		AABB gl. sII	AABb gl. sII	AuBB gl. sII	AaBb gl. sII
Ab		AABb gl. sII	AAbb gl. gII	AaBb gl. sII	Aabb gl. gII
aB		AaBB gl. sII	AaBb gl. sII	aaBB sl. sII	aaBb sl. sII
ab		AaBb gl. sII	Aabb gl. gII	aaBb sl. sII	aabb sl. gII

Bu oilada tug'ilishi mumkin bo'lgan farzandlarning jam-kombinatsiyasi 16 ta shulardan glaukomaning faqatgina bir formasi bilan (I yoki II ekanligining alaniyati yo'q) kasallangani 10 tani tashkil etadi. Ehtimollikda so'ralgani uchun %larda ifodalasak:

16 ta tug'ilish ehtimoli ————— - 100%

10 ta glaukomaning 1 ta turi bo'yicha

kasal ——————  $x \% = 100 \cdot 10 / 16 = 62,25\%$

Javob: Farzandlarning ikkala anomaliya bilan kasallanib tug'ilish ehtimoli 62,5%.

### Poliduragay chatishdirishga doir masalalar

9. Kataraktaning bir necha xil irlsiy shakllari mavjud. Bir turi autosoma dominant tipda, 2-turi autosoma retsessiv tipda irlsiylanadi. Ular bir-biri bilan birikmagan holda irlsiylanadi. Bir oilada qo'ng'ir ko'zli er-xotinning ikkalasi kataraktaning autosoma-dominant turi bo'yicha ham, kataraktaning autosoma-retsessiv turi bo'yicha ham, ko'zining rangi bo'yicha ham geterozigotali bo'lsa sog'lom farzandlarning tug'ilish ehtimolini aniqlang. (%)

### Yechish:

- A\_ – katarakta I forma (qisqartirilgan – kI.);  
 aa- sog'gom katarakta I forma (qisqartirilgan – sI.);  
 B\_ – sog'gom katarakta II forma (qisqartirilgan – sII.);  
 bb – katarakta II forma (qisqartirilgan – kII.);  
 D\_ – qo'ng'ir ko'z (qisqartirilgan – q.);  
 dd – ko'k ko'z (qisqartirilgan – k.).

$\text{P}_{\text{gen}}^{\text{fen}}$        $\begin{matrix} \text{kI.sII.q} & \text{kI.sII.q} \\ \sigma \text{ AaBbDd} & \times \text{ } \varphi \text{ AaBbDd} \end{matrix}$

### F

$\frac{\sigma}{\varphi}$	ABD							
ABD	AABBDD kI. sII. q							
ABd	AABBDD kI. sII. q	AABBDd kI. sII. k						
AbD	AABBDD kI. sII. q	AABbDd kI. sII. q	AAbbDD kI. kII. q	AAbbdd kI. kII. q	AaBbDD kI. sII. q	AaBbDD kI. sII. q	AabbDD kI. kII. q	AabbDd kI. kII. q
Abd	AABBDD kI. sII. q	AABbDd kI. sII. k	AAbbdd kI. kII. q	AAbbdd kI. kII. k	AaBbDD kI. sII. q	AaBbdd kI. sII. k	AabbDD kI. kII. q	AabbDd kI. kII. k
aBD	AaBBDD kI. sII. q	AaBBDd kI. sII. q	AaBbDD kI. sII. q	AaBbdd kI. sII. q	aaBBDD sI. sII. q	aaBBDD sI. sII. q	aaBbDD sI. sII. q	aaBbdd sI. sII. q
aBd	AaBBDD kI. sII. q	AaBBDd kI. sII. k	AaBbDd kI. sII. q	AaBbdd kI. sII. k	aaBBDD sI. sII. q	aaBBDD sI. sII. q	aaBbDD sI. sII. q	aaBbdd sI. sII. k
abD	AaBBDD kI. sII. q	AaBBDd kI. sII. q	AabbDD kI. kII. q	AabbDD kI. kII. q	aaBBDD sI. sII. q	aaBBDD sI. sII. q	aaBbDD sI. kII. q	aaBbdd sI. kII. q
abd	AaBBDD kI. sII. q	AaBBDd kI. sII. k	AabbDD kI. kII. q	AabbDD kI. kII. k	aaBBDD sI. sII. q	aaBBDD sI. sII. q	aaBbDD sI. kII. q	aaBbdd sI. kII. k

ris.

### Fenotipik guruhlar-sinflarni hisoblaymiz:

1. Kataraktaning I forması bo'yicha kasal, II forması bo'yicha sog'gom, qo'ng'ir ko'zli farzandlar – 27 ta
2. Kataraktaning I forması bo'yicha kasal, II forması bo'yicha sog'gom, ko'k ko'zli farzandlar – 9 ta
3. Kataraktaning I forması bo'yicha kasal, II forması bo'yicha ham kasal, qo'ng'ir ko'zli farzandlar – 9 ta
4. Kataraktaning I forması bo'yicha sog'gom, II forması bo'yicha ham sog'gom, qo'ng'ir ko'zli farzandlar – 9 ta
5. Kataraktaning I forması bo'yicha sog'gom, II forması bo'yicha ham sog'gom, ko'k ko'zli farzandlar – 3 ta

6. Kataraktaning I formasi bo'yicha sog'lom, II formasi bo'yicha kasal, qo'ng'ir ko'zli farzandlar – 3 ta

7. Kataraktaning I formasi bo'yicha kasal, II formasi bo'yicha ham kasal, ko'k ko'zli farzandlar – 3 ta

8. Kataraktaning I formasi bo'yicha sog'lom, II formasi bo'yicha kasal, ko'k ko'zli farzandlar – 1 ta

Fen: 27:9:9:3:3:1

Gen: 1:2:4:2:2:4:4:2:2:1:4:1:8:1:2:4:2:2:2:4:1:1:2:1:2:1

Sog'lom farzandlarning ehtimolini aniqlash uchun:

1. Kataraktaning I formasi bo'yicha sog'lom, II formasi bo'yicha ham sog'lom, qo'ng'ir ko'zli farzandlar – 9 ta

2. Kataraktaning I formasi bo'yicha sog'lom, II formasi bo'yicha ham sog'lom, ko'k ko'zli farzandlar – 3 ta

Jami sog'lom farzandlar 64 tadan 12 tani tashkil qilar ekan, buni %larda ifodalaymiz:

64 ta tug'ilish ehtimoli \_\_\_\_\_ - 100%

12 ta sog'lom \_\_\_\_\_ x % x=100·12 / 64 = 18,75%

Javob: Sog'lom farzandlarning tug'ilish ehtimoli 18,75 %

### Jinsga birikkan holda irsiylanishga doir masalalar

3. Gemofiliya bilan kasallangan ayol va sog'lom erkak oilasidagi farzandlarning kasal bo'lib tug'ilish ehtimolini aniqlang (gemofiliya retsessiv gen kasalligi bo'lib, jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanadi).

Yechish:

X<sup>H</sup> – gemofiliya bo'yicha sog'lom, qoni normal iviydi;

X<sup>h</sup> – gemofiliya kasalligi bilan kasallangan.

	gemofilik	sog'lom
P <sup>fen</sup>	♀ X <sup>h</sup> X <sup>h</sup>	x ♂ X <sup>H</sup> Y
G	X <sup>h</sup>	X <sup>H</sup> ; Y

♀ ♂	X <sup>H</sup>	Y
X <sup>h</sup>	X <sup>H</sup> X <sup>h</sup> sog'lom qiz	X <sup>h</sup> Y gemofilik og'il

Ushbu oilada ikki farzanddan biri gemofilik bo'lib tug'ilalar ekan.

2 ta tug'ilish ehtimoli \_\_\_\_\_ - 100%

1 ta gemofilik \_\_\_\_\_  $x \% x = 100 \cdot 1 / 2 = 50\%$

Javob: 50% ehtimollikda.

8. Tovuq va xo'rozlar patining oltin rangli va kumush rangda bo'lishini ta'minlovchi genlar jinsiy X-xromosomaga birikkan holda irsiylanib, oltin rang kumush rangga nisbatan dominantlik qiladi. Gomozigotali oltin rangli xo'roz kumush rang tovuq bilan chatishdirilganida olingan parrandalarning fenotipi qanday bo'ladi?

Yechish:

$X^H$  – oltin rang;

$X^h$  – kumush rang.

Har doim jins bilan birikkan belgilari bilan ishlayotganda sudralib yuruvchilar, qushlar, kapalaklarning urg'ochi organizmlari geterogametalii (XY), erkak organizmlari esa gomogametalii (XX) bo'lishini unutmashlik lozim.

	Kumush rang	oltin rang
